Dilafruz Xidoyatova, Iroda Bakirova,
Fayoza Rahmatova, Namoz Rasulov

O‘ZBEK TILI

8-sinf

Yangi nashr

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etgan

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2025

скачано с сайта www.idum.uz

UO‘K 811.512.133(075.3)
KBK 81.2 O‘zb-922
O-58

O‘zbek tili. 8-sinf [Matn]: darslik / Dilafruz Xidoyatova, Iroda Bakirova, Fayoza Rahmatova, Namoz Rasulov; muharrir Hamza Abdullayev. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2025. – 176 b.

Mas’ul muharrir:

Yekaterina Shirinova – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili va adabiyoti ta’limi kafedrasi dotsenti, f.f.b.f.d. (PhD).

Taqrizchilar:

Gulnora Fozilova – Toshkent shahri Shayxontohur tumanidagi 34-umumiy o‘rta ta’lim maktabining oliy toifali o‘zbek tili fani o‘qituvchisi.

Lobar Xoliqova – Toshkent shahri Sergeli tumanidagi 7-umumiy o‘rta ta’lim maktabining birinchi toifali o‘zbek tili fani o‘qituvchisi.

Shartli belgilar:


O‘qing


Tinglang


Gapiring


Yozing


Lug‘at


Mustaqil ish


Guruhda ishlash


Diqqat qiling!


Savollarga javob bering


Mosini tanlang


O‘ylab ko‘ring


Test topshiriqlari

ISBN 978-9910-584-07-7

© G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2025

скачано с сайта www.idum.uz

O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi

Abdulla Oripov so‘zi *Mutal Burhonov musiqasi*

Serquyosh, hur o‘lkam, elga baxt, najot,
Sen o‘zing do‘stlarga yo‘ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

NAQAROT:
Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo‘r qanot!
Istiqlol mash’ali, tinchlik posboni,
Haqsevar ona yurt, mangu bo‘l obod!

NAQAROT:
Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!











I CHORAK

скачано с сайта www.idum.uz

O‘ZBEKISTON – BAG‘RI KENG YURT

1. Tinglang.



2. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Madhiya nima?
2. O‘zbekiston Respublikasi madhiyasi qanday tadbirlarda yangraydi?
3. Madhiyamizdagi “bag‘ri keng” so‘zini qanday tushunasiz?

Bag‘rikenglik – ochiq ko‘ngillik, rahm-shafqat, mehmondo‘stlik, saxiylik, hammani teng ko‘rish, o‘zaro hurmat, fidoyilik, samimiylikdir.

yangramoq
ahil
kafolatlamoq
boyitmoq
saxiylik

3. O‘qing.

O‘zbekiston – mehribon va bag‘ri keng insonlar yurti. Bu yurtda 130 dan ortiq millat vakillari ahillikda yashaydi. Har bir millat o‘z madaniyati, tili va an’analarini erkin rivojlantirishi mumkin. Bu Konstitutsiyamizda kafolatlangan. Mamlakatda turli millatlarning madaniyat markazlari mavjud. Ta’lim 7 ta, ya’ni o‘zbek, qoraqalpoq, rus, tojik, qozoq, qirg‘iz va turkman tillarida olib boriladi.

O‘zbekistonda bag‘rikenglik an’analariga rioya qilinadi. Bu an’ana – bobolardan meros. Qadimda Buyuk ipak yo‘li orqali turli xalqlar yurtimizda uchrashib, o‘z tajriba va madaniyatlarini boyitgan. Hozir bu an’ana zamonaviy ko‘rinishda davom etmoqda. O‘zbekistonda har yili 10 ga yaqin xalqaro festival va tadbirlar o‘tkaziladi. Ularda qatnashgan ko‘plab insonlar bir-birlari bilan do‘stlashadilar.

Sanoq son	Dona son *(-ta yoki dona)*	Chama son *(-tacha, -lab)*
uch (3) *to‘qqiz (9)* *yuz (100)*	*3* ***ta****, uch****ta****, 3* ***dona*** *9* ***ta****, to‘qqiz****ta****, 9* ***dona*** *100* ***ta****, yuz****ta****, 100* ***dona***	*uch****tacha*** *to‘qqiz****tacha*** *o‘n****lab****, yuz****lab,*** *ming****lab***

4. Yozing.

Sanoq son	Dona son: *-ta, dona*	Chama son: *-tacha, -lab*
besh/maktub	*beshta maktub, besh dona maktub*	*beshtacha maktub*
yetti/kitob	***	***
o‘n/qush	***	***
yuz/askar	***	***
130/millat	***	***

5. Fikrlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini ayting.

№	FIKR	to‘g‘ri ✓	noto‘g‘ri ✗
1.	O‘zbekistonda faqat o‘zbeklar yashaydi.	***	***
2.	Bag‘rikenglik fazilati faqat bugungi kunda rivojlanmoqda.	***	***
3.	O‘zbekistonda turli millatlarning madaniyat markazlari mavjud.	***	***
4.	Buyuk ipak yo‘li orqali O‘zbekistonga turli madaniyatlar kirib kelgan.	***	***
5.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi millatlararo do‘stlikni kafolatlaydi.	***	***

6. 3–5 ta gap tuzing.

Namuna: ***Bag‘rikenglik*** *– turli millat vakillarining* ***madaniyat****ini hurmat qilish.*

mehmondo‘stlik bag‘rikenglik madaniyat Buyuk ipak yo‘li saxiylik an’ana

7. Mosini tanlang.

I	II
bag‘rikenglik	ahillik
totuvlik	ochiq ko‘ngillik
xalq	ishonch
qadriyat	millat
do‘stlik	urf-odat

O‘zbekiston haqida 10 ta ma’lumot yozing. Bu faktlarda sonlar ishtirok etsin.

TARIXIY SHAHARLAR – O‘ZBEKISTONNING YUZI

1. O‘qing.



O‘zbekiston – qadimiy shaharlarga boy mamlakat. Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz dunyo madaniyatining noyob durdonalaridir. Bu shaharlar asrlar davomida savdo, ilm-fan va madaniyat markazi bo‘lib kelgan.

Samarqand “Sharq gavhari” sifatida mashhur. Bu shahar qadimda Buyuk ipak yo‘lidagi eng muhim markazlardan biri bo‘lgan. Shaharda Registon maydoni, Shohi Zinda, Go‘ri Amir maqbaralari va Bibixonim masjidi kabi tarixiy yodgorliklar mavjud.

Buxoro 2500 yillik tarixga ega. U Sharqda ilm-fan va islom dini markazlaridan biri hisoblanadi. Shahar Buxoro Arki, Ismoil Somoniy maqbarasi, Mir Arab madrasasi, Labi hovuz, Poyi Kalon majmualari bilan mashhur.

Xiva – Buxoroga tengdosh shahar. U yerdagi Ichan qal’a me’moriy majmuasi UNESCOning jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

Shahrisabz ham O‘zbekistonning qadimiy shaharlaridan biri. Amir Temur davrida gullab-yashnagan.

1380–1386-yillarda Amir Temur qurdirgan Oqsaroy Shahrisabzning tashrif qog‘ozidir. Oqsaroyning peshtoqida shunday yozuv bor: “Qudratimizga shubhangiz bo‘lsa, biz qurdirgan binolarga boqing”.

O‘zbekistonning tarixiy shaharlarini ko‘rish uchun har yili dunyoning turli davlatlaridan millionlab sayyohlar tashrif buyurmoqda.

2. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. O‘zbekistonda qanday tarixiy shaharlar bor?
2. Matnda Buxoroga qanday ta’rif berilgan?
3. Xivada qanday tarixiy obidalar bor?
4. Shahrisabz qadimda kim tufayli gullab-yashnagan?
5. Oqsaroy me’moriy yodgorligi peshtoqidagi yozuvni izohlang.

noyob durdonalar
qudrat
ziyorat
shubha

Peshtoq – madrasa, masjid, maqbara kabi binolarning old tomonidagi mehrob shaklli baland darvoza, ark.

3. Yozing.

Namuna: *Buyuk ipak yo‘li – Sharq va G‘arbni bog‘lagan qadimiy savdo yo‘li.*

Tushuncha	Izoh
Jahon merosi	tarixiy yoki me’moriy obidalar to‘plami
Majmua	podshohlar yoki hukmdorlar istiqomat qilgan ulkan bino
Buyuk ipak yo‘li	UNESCO himoyasidagi madaniy va tarixiy obidalar
Saroy	Sharq va G‘arbni bog‘lagan qadimiy savdo yo‘li

4. Tinglang.



5. Tinglang. Yozing.

Namuna: *Birinchi manzil Samarqand edi. U Registon maydonining go‘zalligidan hayratga tushdi.*

1. ... manzil Samarqand edi. U Registon maydonining go‘zalligidan hayratga tushdi.
2. “ ... asrdan beri saqlanib kelmoqda!” hayajonlanib gapirdi u.
3. “Bu joy ... yillik tarixga ega”, dedi otasi.
4. ... manzil Xiva edi.

6. Fikrlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini ayting.

№	FIKR	to‘g‘ri	noto‘g‘ri
		✓	✗
1.	Bekzod yozgi ta’tilda oilasi bilan xorijga sayohat qilmadi.	***	***
2.	Bekzod Buxoro Arkiga otasi bilan bordi.	***	***
3.	Bekzod Ichan qal’ada o‘zini boshqa zamonga tushib qolgandek his qilmadi.	***	***
4.	“Sharq taronalari” festivali Samarqandda o‘tkaziladi.	***	***

1. Xarita chizing va sayohat manzillarini belgilang.
2. Har bir manzil haqida 3–5 ta ma’lumot yozing.
3. “Mening orzumdagi sayohat” mavzusida esse yozing.

скачано с сайта www.idum.uz

IMOM AL-BUXORIYNING BOLALIGI

1. O‘qing.



Imom al-Buxoriy 810-yilda Buxoroda tavallud topgan. Uning otasi Ismoil ilmli kishilardan bo‘lgan. Al-Buxoriy otasidan yetim qolgan. Uning tarbiyasi bilan onasi shug‘ullangan. Al-Buxoriy bolaligidan kuchli xotirasi bilan tengdoshlaridan ajralib turgan, hadislarni yodlash qobiliyati bilan mashhur bo‘lgan. Rivoyatlarga ko‘ra, u bolaligida Qur’onni yod olgan. Keyinchalik hadis ilmini o‘rganishga katta qiziqish bildirgan. Ilm olishi uchun onasi uni masjid va madrasalarga olib borar edi.

Hijoz, Makka, Madina, Jidda, Bag‘dod, Shom kabi shaharlarga qilgan safari Imom al-Buxoriy hayotida muhim o‘rin egalladi. Chunki u mana shu ilm safarlari asosida “Al-jome’ as-sahih” asarini yozdi. Asarning eng qadimiy nusxalari Turkiya, Misr, Saudiya Arabistoni, O‘zbekiston va Britaniya kutubxonalarida saqlanmoqda.

2. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Imom al-Buxoriy qachon Qur’onni yod olgan?
2. Ilm olishi uchun onasi uni qayerga olib borgan?
3. Imom al-Buxoriy qanday kitob yozgan?
4. Uning kitobi qaysi mamlakat kutubxonalarida saqlanmoqda?

3. Yozing.

Namuna: *Buxoro – Imom al-Buxoriy tug‘ilgan shahar.*

Buxoro –
Onasi –
“Al-jome’ as-sahih” –
Ilm –

asar yozmoq
qadimiy nusxa
yod olmoq
ilmli
yetim

4. Yozing.

Namuna: *1. Imom al-Buxoriy yoshligida ko‘p kitoblarni **o‘qigan.***

1. Imom al-Buxoriy yoshligida ko‘p kitoblarni ... . (o‘qiyapti/o‘qigan/o‘qishdi)
2. Onasi uni madrasaga olib ... . (boryapti/borgan/boradi)
3. U yoshlik chog‘ida ko‘plab hadislarni ... . (o‘rgatdi/o‘rganildi/o‘rgangan)
4. “Al-jome’ as-sahih” asari Imom al-Buxoriy tomonidan ... . (yozilgan /yozdi/yozildi)
5. Uning kuchli xotirasi do‘stlari va ustozlari tomonidan hamisha ... . (e’tirof etdi/e’tirof qildi/ e’tirof etilgan)

5. Tinglang.

3



6. Audiomatn asosida gaplarni tartib bilan yozing.

___ Bir kuni ijtimoiy tarmoqlarda hadislar haqida ma’lumot ko‘rib qoldi.
___ Kunlarning birida u eski javondan chang bosgan katta kitob topdi.
1 Hasanning eng sevimli joyi – mahalla kutubxonasi edi.
___ Bu voqeadan Hasan ilmni o‘rganish va to‘g‘ri tarqatish muhimligini bildi.
___ Ijtimoiy tarmoqlardagi hamma xabarlar ham to‘g‘ri emas, buni bilish uchun inson ko‘proq kitob o‘qishi kerak.
___ U bu mavzuda maqola yozib, ustozining yordami bilan uni ijtimoiy tarmoqlarga joyladi.

7. Anagramma.

Namuna: *Bxorou → Buxoro*

Bxorou →
hidsa →
ktuuoxbna →
moqala →
tienentr →

Uyingizdagi eng eski kitoblardan 5 tasini oling. Ularning chop etilgan yili, muallifi va nomini yozing.

OSH BO‘LSIN!

1. O‘qing.

O‘zbek xalqining oshpazlik an’analari chuqur ildiz otgan. Qadimda oshpazlar o‘z shogirdlarini sinash uchun ularga 200 gramm guruchdan osh damlashni buyurishgan. Aytishlaricha, guruch qancha kam bo‘lsa, oshni tayyorlash shuncha qiyin bo‘lar ekan. Qolaversa, mahorat bilan damlangan osh do‘ppi shakliga juda o‘xshaydi. Shuning uchun o‘zbek tilida kamgina osh damlashga nisbatan “do‘ppidekkina osh” birikmasini ishlatamiz.

Taom dasturxonga olib kelinganida hamma bir-biriga yoqimli ishtaha tilaydi. Xo‘randalar ovqat pishirgan odamga “Qo‘lingiz dard ko‘rmasin”, deb aytadilar, oshpaz esa “Osh bo‘lsin”, deb tilak bildiradi. Siz ham o‘zbek oshxonasida bu sehrli so‘zlarni qo‘llashni unutmang!



2. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Oilangizda kim oshni yaxshi pishiradi? Nima uchun?
2. Oshni mahorat bilan pishirish uchun nimalarga e’tibor berish kerak?
3. Taom bilan bog‘liq iboralarning qanday ahamiyati bor deb o‘ylaysiz?

shogird
mahorat
osh damlamoq

3. Mosini tanlang.

Namuna: *Xo‘randa – taomlanuvchi odam.*

1.	Xo‘randa	**A**	xo‘randalarning oshpazga minnatdorchiligini ifodalaydi
2.	Do‘ppidekkina osh damlamoq	**B**	ovqatlanishdan oldin aytiladi
3.	Qo‘lingiz dard ko‘rmasin	**D**	kam, ammo mahorat bilan osh tayyorlamoq
4.	Yoqimli ishtaha	**E**	taomlanuvchi odam

4. Tinglang.

Piyoz		Piyoz
Ayoz		Sabzi
Lahm		Go‘sht
Oliyo		Yog‘
Vet		Tuz
Ob		Suv
Sholi		Guruch

4

5. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Palov tayyorlash uchun kerak bo‘ladigan mahsulotlarni ketma-ketlikda yozib chiqing.
2. Uyingiz yoki maktabingiz atrofida palov tayyorlaydigan qanday oshxonalar bor?

Tandir – non, somsa va shu kabi taomlarni yopib pishirish uchun qurilgan maxsus loy o‘choq.



6. Dialogni sherigingiz bilan birga davom ettiring.

Foydalanish uchun so‘zlar: *o‘n ming, oz, to‘rtta, ko‘p, qancha, qaytim.*

– Assalomu alaykum!
– Vaalaykum assalom, keling.
– Kartoshkali somsangiz bormi?
– Ha, bor. Kartoshkali va ko‘k somsamiz besh ming so‘mdan.
– Go‘shtli somsa-chi?
– …

7. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. O‘zbekistonda qanday turdagi somsalar pishirilishini bilasizmi?
2. Mashhur somsalar qatorini davom ettiring: *olot somsa, mador somsa, …*

1. Milliy taomlar haqida yaqinlaringizdan intervyu oling.
2. Oilangiz uchun haftalik taomnoma tuzing.

SPORT. G‘ALABA. VATAN SHA’NI

1. Tinglang.



5

isbotlamoq
nihoyatda
qo‘lga kiritmoq
xabar bermoq
hujumchi

2. Raqamlarni izohlang.

Matndagi raqam	Qaysi voqea yoki shaxsga aloqador?
206	Parij olimpiadasida qatnashgan mamlakatlar soni.
13	…
92	
...	

3. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. 2024-yilgi yozgi olimpiadada O‘zbekiston nechanchi o‘rinni egalladi?
2. Qaysi sportchilar olimpiada o‘yinlarining faxriga aylandi?
3. Qaysi bokschi +92 kg vazn toifasida g‘olib bo‘ldi?

4. Yozing.

Namuna: *1. Kuchli jamoa turnirda har doim g‘olib bo‘ladigan va **eng yuqori** natijaga erishadigan jamoadir.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *bir qancha, juda ko‘p, uchinchi, eng yuqori.*

1. Kuchli jamoa turnirda har doim g‘olib bo‘ladigan va ... natijaga erishadigan jamoadir.
2. Sportchilar har kuni ... mashq qiladilar va natijada yuqori o‘rinlarga erishadilar.
3. Musobaqada ikkinchi yoki ... marta chempionlikni qo‘lga kiritish barcha sportchilarga ham nasib etavermaydi.
4. ... medallarga erishsa ham, sportchi harakatdan to‘xtab qolmasligi kerak.

5. O‘qing.



Eldor Shomurodov – mashhur o‘zbek futbolchisi. U Italiyaning “Roma” klubida faoliyat olib borgan. Eldor O‘zbekiston milliy terma jamoasining asosiy hujumchisi hisoblanadi. U 2026-yilgi Jahon chempionati saralash o‘yinlarida 5 ta muhim golni urdi. O‘zbekistonning ilk bor Jahon chempionatiga chiqishida uning hissasi katta. Eldor yoshlarga o‘rnak bo‘ladigan, mehnatsevar va vatanparvar futbolchi. Xalqimiz uni doimo qo‘llab-quvvatlaydi va biz u bilan faxrlanamiz.



O‘zbekistonlik shaxmatchi Nodirbek Abdusattorov 2024-yilgi musobaqalarda 132 981 dollar mukofot puliga ega bo‘ldi. Bu haqda “Chess.com” nashri xabar bergan. Mamlakatimizning birinchi raqamli shaxmatchisi Nodirbek Abdusattorov 2023-yili 12 ta yirik musobaqada ishtirok etgan.

Nodirbek Abdusattorov 2025-yil fevral oyi holatiga ko‘ra 2766 ochko to‘plab, FIDE reytingida 6-o‘rinni egallab turgan.

6. Yozing.

Namuna: *Sport O‘zbekistonni dunyoga mashhur qilyapti.*

1.	Sport O‘zbekistonni dunyoga...	a) mashhur qilmoq
2.	E. Shomurodov “Roma” klubida	b) faoliyat olib bormoq
3.	N. Abdusattorov FIDE reytingida 6-o‘rinni	d) egallab turmoq
4.	Mahoratli futbolchi 2026-yilgi saralash o‘yinlarida 5 ta	e) gol urmoq

7. Guruhda ishlash.

Ism	Sport turi	2024-yildagi natija	2025-yildagi natija
Eldor Shomurodov	***	***	***
Nodirbek Abdusattorov	***	***	***

“Men yoqtirgan sport turi” mavzusida 8–10 gapdan iborat esse yozing. Esseda quyidagi savollarga javob bering.

1. Qaysi sport turiga qiziqasiz?
2. Sizga bu sport nima uchun yoqadi?
3. Ushbu sport turiga nima maqsadda qatnashmoqchisiz?

RANGLAR JILOSI – ATLAS VA ADRAS

1. O‘qing.





O‘zbek milliy matolari deganda ko‘z o‘ngimizda ko‘p ranglarda tovlanib turuvchi atlas va adras namoyon bo‘ladi. Ular usta hunarmandlarning mehnati va mahorati bilan yaratiladi. Ushbu matolar xalqimizning qadimiy an’analari va estetik didini ifodalaydi.

Atlas so‘zi arab tilida “tekis, silliq” degan ma’noni anglatadi. Atlas – ipakdan to‘qiladigan silliq va yaltiroq mato. Atlas to‘qishda iplar bir nechta usulda bo‘yab o‘riladi va chiroyli bezaklar hosil qiladi. Eng mashhur navi xonatlas bo‘lib, uning tuzilishi va to‘qilishi juda murakkab. Marg‘ilon shahri atlasning eng mashhur markazlaridan biri hisoblanadi.

2017-yilda o‘zbek ipak matolarini to‘qish texnologiyasi UNESCOning jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

Atlasdan asosan ayollar kiyimlari tikiladi. Adras esa ipak va paxta aralashmasidan to‘qiladi. Undan ayollar va erkaklar kiyimlari, choponlar, ko‘rpa va ko‘rpachalar tayyorlanadi.

2. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Atlas so‘zi qaysi tildan olingan va nimani anglatadi?
2. Atlasdan nimalar tikiladi?
3. Adrasdan nimalar tayyorlanadi?
4. O‘zbek ipak matolarini to‘qish texnologiyasi qachon UNESCO jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan?

mato
did
to‘qimoq (mato)
bezak
meros

3. Yozing.

Namuna: *1. Atlas – **silliq** va **yaltiroq** mato.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *ipak, paxta, Marg‘ilon, silliq, yaltiroq, UNESCO, bir nechta, arab.*

1. Atlas – ... va ... mato.
2. Adras – ... va ... aralashmasidan to‘qiladi.
3. ... shahri atlas to‘qish markazi hisoblanadi.
4. 2017-yilda ... ro‘yxatiga kiritilgan.
5. Atlas so‘zi ... tilidan olingan.
6. Atlas to‘qishda iplar ... usulda bo‘yab o‘riladi.

4. Rolli o‘yin.

Juft bo‘lib ishlang, dialogni davom ettiring.
Biringiz xorijlik xaridor, biringiz atlas-adras sotuvchisi bo‘ling.
Xaridor: – Salom, bu qanday mato?
Sotuvchi: – Salom! Bu atlas. Ipakdan to‘qilgan, silliq va yaltiroq.
Xaridor: – Adras-chi?
Sotuvchi: – …
…

Miqdor ravishlari		
ko‘p	***Qancha?***	– Ta’tilda **qancha** kitob o‘qiding? – Men **bir nechta** kitob o‘qidim.
juda kam		
oz		
biroz		
bir nechta		

5. Yozing.

Namuna: *1. **Oz** so‘zla, soz so‘zla. (maqol)*

Foydalanish uchun so‘zlar: *ko‘p, kam, oz, biroz, bir nechta (bir necha).*

1. ... so‘zla, soz so‘zla. (maqol)
2. Dars ... daqiqalardan so‘ng boshlanadi.
3. ... gap – eshakka yuk. (maqol)
4. Mana shu yerda ... dam oling.
5. Kecha ... uxlaganim uchun hozir uyqum kelyapti.

6. Anagramma.

Namuna: *1. Marg‘ilonda **ko‘p** atlas ustalari ishlaydi.*

1. ko‘p/atlas/ishlaydi/ustalari/Marg‘ilonda
2. matosida/bir nechta/adras/aralashadi/ranglar
3. kiyadilar/ayollar/ko‘p/atlasdan/ko‘ylak
4. odamlar/oz/yaxshi/bu/biladi/hunarni
5. bo‘yaladi/iplari/atlas/bir nechta/usulda

Savollarga yozma javob bering.

1. Atlas qanday mato?
2. Atlas va adras qanday ranglarda bo‘ladi?
3. Kimlar atlas va adrasdan kiyimlar tikadi?
4. Bu matolar qayerda mashhur?
5. Siz atlas yoki adrasdan nima kiyishni xohlaysiz?

Adabiy o‘qish.



ERKIN VOHIDOV

O‘ZBEGIM

(*qasida*)

Tarixingdir ming asrlar
Ichra pinhon, o‘zbegim,
Senga tengdosh Pomir-u
Oqsoch Tiyonshon, o‘zbegim.

So‘ylasin Afrosiyob-u,
So‘ylasin O‘rxun xati,
Ko‘hna tarix shodasida
Bitta marjon, o‘zbegim.

Al-Beruniy, Al-Xorazmiy,
Al-Forob avlodidan,
Asli nasli, balki, O‘zluq,
Balki, Tarxon, o‘zbegim.

O‘tdilar sho‘rlik boshingdan
O‘ynatib shamshirlarin
Necha qoon, necha sulton,
Necha ming xon, o‘zbegim.

Tog‘laring tegrangda go‘yo
Bo‘g‘ma ajdar bo‘ldi-yu,
Ikki daryo – ikki chashming,
Chashmi giryon, o‘zbegim.

Qaysari Rum nayzasidan
Bag‘rida dog‘ uzra dog‘,
Chingiz-u Botu tig‘iga
Ko‘ksi qalqon, o‘zbegim.

Yog‘di to‘rt yondin asrlar
Boshingga tiyri kamon,
Umri qurbon, mulki toroj,
Yurti vayron, o‘zbegim.

Davr zulmiga va lekin
Bir umr bosh egmading,
Sen – Muqanna, sarbador – sen,
Erksevar qon, o‘zbegim.

Sen na zardusht, sen na buddiy,
Senga na otash, sanam,
Odamiylik dini birla
Toza iymon, o‘zbegim.

Ma’rifatning shu’lasiga
Talpinib zulmat aro,
Ko‘zlaringda oqdi tunlar
Kavkabiston, o‘zbegim.

Tuzdi-yu Mirzo Ulug‘bek
Ko‘ragoniy jadvalin,
Sirli osmon toqiga ilk
Qo‘ydi narvon, o‘zbegim.

Mir Alisher na’rasiga
Aks sado berdi jahon,
She’riyat mulkida bo‘ldi
Shoh-u sulton, o‘zbegim.

Ilm-u she’rda shoh-u sulton,
Lek taqdiriga qul,
O‘z elida chekdi g‘urbat,
Zor-u nolon, o‘zbegim.

Mirzo Bobur – sen, fig‘oning
Soldi olam uzra o‘t,
Shoh Mashrab qoni senda
Urdi tug‘yon, o‘zbegim.

She’riyatning gulshanida
So‘ldi mahzun Nodira,
Siym tanni yuvdi ko‘z yosh,
Ko‘mdi armon, o‘zbegim.

Yig‘ladi furqatda Furqat
Ham muqimliqda Muqiym,
Nolishingdan Hind-u Afg‘on
Qildi afg‘on, o‘zbegim.

Tarixing bitmakka, xalqim,
Mingta Firdavsiy kerak,
Chunki bir bor chekkan ohing
Mingta doston, o‘zbegim.

Ortda qoldi ko‘hna tarix,
Ortda qoldi dard, sitam,
Ketdi vahming, bitdi zaxming,
Topdi darmon, o‘zbegim.

Bo‘ldi osmoning charog‘on
Tole xurshidi bilan,
Bo‘ldi asriy tiyra shoming
Shu’la afshon, o‘zbegim.

Men Vatanni bog‘ deb aytsam,
Sensan unda bitta gul,
Men Vatanni ko‘z deb aytsam,
Bitta mujgon, o‘zbegim.

Faxr etarman, ona xalqim,
Ko‘kragimni tog‘ qilib,
Ko‘kragida tog‘ ko‘targan
Tanti dehqon, o‘zbegim.

O‘zbegim deb keng jahonga
Ne uchun madh etmayin!
O‘zligim bilmoqqa davrim
Berdi imkon, o‘zbegim.

Men buyuk yurt o‘g‘lidurman,
Men bashar farzandiman,
Lekin avval senga bo‘lsam
Sodiq o‘g‘lon, o‘zbegim.

Menga Pushkin bir jahon-u
Menga Bayron bir jahon,
Lek Navoiydek bobom bor,
Ko‘ksim osmon, o‘zbegim.

Qayga bormay, boshda do‘ppim,
G‘oz yurarman gerdayib,
Olam uzra nomi ketgan
O‘zbekiston, o‘zbegim.


Bu qasidam senga, xalqim,
Oq sut-u tuz hurmati,
Erkin o‘g‘lingman, qabul et,
O‘zbegim, jon o‘zbegim.

Guruhda ishlash.

O‘qigan she’ringizda berilgan biror voqea tasvirini chizing.

OILA – INSONNING BIRINCHI MAKTABI

1. Tinglang.



6

2. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Matnda bosh qahramon kim?
2. U qanday ishlar bilan shug‘ullanadi?
3. Jasurning oilasi unga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
4. Agar siz uning o‘rnida bo‘lsangiz, nima qilgan bo‘lardingiz?

hayajon
ta’sir
jilmaymoq
savodli
muqaddas

3. Audiomatn asosida so‘zlarni guruhlarga ajratib yozing.

Foydalanish uchun so‘zlar: *oila, maktab, kitob, Jasur, ona, mehnat, do‘st, baxt, bilim, do‘kon, qalam, uy vazifasi, mehr, sport, uy, o‘qituvchi, hayajon, ota, tarbiya.*

Matndagi so‘zlar	Matnda uchramagan so‘zlar
oila	do‘st
***	***

4. Guruhda ishlash. Yozing.

“Oila bolaga bilim berishda maktabdan ham muhimroq bo‘lishi mumkinmi?”

1. 3 ta dalil keltiring.
2. 1 ta xulosa bering.

Hozirgi zamon davom fe'li					
birlik			***ko'plik***		
men	bor~~moq~~+*yap*	***-man***	*biz*	bor~~moq~~+*yap*	***-miz***
sen		***-san***	*siz*		***-siz***
u		***-ti***	*ular*		***-tilar***

5. Yozing.

olmoshlar	tayyorlamoq	ko'rsatmoq
men	***	***
sen	tayyorlayapsan	***
u	***	***
biz	***	***
siz	***	***
ular	***	ko'rsatyaptilar

6. Gaplarni davom ettiring.

1. Menimcha, oila birinchi maktab deyilishiga sabab...
2. Menimcha, bolalar kitob o'qishga odatlanishi kerak, chunki...
3. Menimcha, bilimli bo'lish uchun oilada...

Mosini toping. Davom ettiring.

Otamga	Sizning hikoyalaringizni tinglash juda yoqimli!
Onamga	Siz bizning tayanchimizsiz! Ishlaringizga omad!
Bobomga	Mehribonligingiz uchun rahmat! Sizni juda yaxshi ko'raman!
Buvimga	Yaxshi o'qi, men senga yordam beraman!
Ukamga	Siz pishirgan shirinliklarni juda sog'indim!
Singlimga	…
Akamga	…
Opamga	…

BILIM – MUVAFFAQIYAT KALITI

1. O‘qing.

Hozirgi zamonda inson muvaffaqiyatga erishishi uchun bilim eng muhim qurol hisoblanadi. Bilimli inson jamiyatda o‘z o‘rnini topadi, yuqori maoshli kasblarni egallaydi va hayotini mustaqil boshqara oladi. Texnologiyalar tez rivojlanayotgan bir vaqtda har qanday kasbda ilg‘or bo‘lish uchun doim yangi bilimlar olish zarur.

Bilimli insonlar jamiyatda bir qadam oldinda yuradi.

Bilimli odam o‘z fikrlarini aniq bayon etadi va ishonchli qarorlar qabul qiladi.

U muammolarga noodatiy yondashadi va doimiy o‘sishda davom etadi.

Bilimli insonlar boshqalarga ham foyda keltirib, jamiyat rivojiga hissa qo‘shadi. Ular bilim orqali ma’lumotlarni to‘g‘ri saralaydi.

Bilimni qayerdan olish mumkin?

1. Kitob o‘qish – yangi bilim va tajriba orttirishning eng yaxshi yo‘li.

2. Onlayn kurslar – Ibrat academy, Ustoz AI, Qizlar akademiyasi kabi platformalar orqali yangi ko‘nikmalarni o‘rganish mumkin.

3. Ilmiy maqola va yangiliklar – eng yangi ma’lumotlarni o‘rganish va so‘nggi yangiliklarni kuzatish uchun.

4. Amaliy tajriba – o‘rganilgan bilimlarni hayotda qo‘llab, yangi ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun.

Bilim bu – muvaffaqiyatga eltuvchi eng asosiy yo‘l. Kimki muntazam o‘qisa, yangi ma’lumotlarni o‘rgansa va o‘z ustida ishlasa, hayotda yuqori cho‘qqilarga erisha oladi. Bugundan boshlab oldingizga maqsad qo‘ying: har kuni yangi bilim oling va kelajagingizni o‘zingiz quring!

2. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun bilim muhimmi? Nima uchun?
2. Qaysi bilim olish usulini eng samarali deb hisoblaysiz?
3. Bugungi kunda insonlar bilim olishda qanday muammolarga duch kelishyapti?

muvaffaqiyat
ilg‘or
cho‘qqi
muntazam

3. Yozing.

Bilim manbayi	Matnda berilgan misollar
Kitoblar	*Yangi bilim va tajriba orttirishning eng yaxshi yo‘li.*
Onlayn kurslar	...
Ilmiy maqola	...
Amaliy tajriba	...

Hozirgi-kelasi zamon					
birlik			***ko‘plik***		
men	yugurmoq+*a*	***-man***	*biz*	yugurmoq+*a*	***-miz***
sen		***-san***	*siz*		***-siz***
u		***-di***	*ular*		***-dilar***

4. Yozing.

Namuna: *1. Siz endi 105-xonada ~~o‘tirgan/o‘tirdik/~~***o‘tirasiz.**

1. Biz yakshanba kunlari kinoga ... bormayman/boradi/boramiz.
2. Karima sog‘lom bo‘lish uchun piyoda ... yuramiz/yuradilar/yuradi.
3. Ularning bog‘ida atirgullar ... o‘syapman/o‘stirgan/o‘sadi.
4. Men ba’zida she’r ham ... yozdilar/yozyapmiz/yozaman.

5. Fikrlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini ayting.

№	FIKR	to‘g‘ri	noto‘g‘ri
		✓	✗
1.	Bilimli inson yuqori maoshli kasblarni egallay olmaydi.	***	***
2.	Yangi bilim olish zamonaviy texnologiyalar tufayli yanada muhim bo‘lib bormoqda.	***	***
3.	Kitob o‘qish – bilim olishning eng yomon usullaridan biri.	***	***
4.	Bilimli odamlar hech qachon boshqalarga foyda keltirmaydi.	***	***
5.	Bilim insonni muvaffaqiyatga olib boradi.	***	***

6. Guruhda ishlash. Yozing.

“Bilim nimaga o‘xshaydi?”

1. “Bilim bu – ...” jumlasini davom ettiring. (masalan: bilim – kalit, bilim – nur, bilim – zinapoya)
2. Nima uchun aynan shunday deb o‘ylaganingizni 3 ta gap bilan asoslab bering.

Savollarga og‘zaki javobingizni telefonga audio shaklida yozib keling.

1. Bilimli kishining jamiyatdagi o‘rni qanday?
2. Sizningcha, bilim olishda qaysi usul samarali?

YAXSHI USTOZ – HAYOTDAGI YO‘LBOSHCHI

1. O‘qing.





Ustozlik qadim zamonlardan buyon inson faoliyatining alohida turi sanaladi. Chunki inson faqat ta’lim-tarbiya tufayligina rivojlanadi. Yunonistonda faqat ozod kishilargina o‘qituvchilik qila olgan. Ular mamlakat yoshlaridan tashkil topgan va “didaskallar” deb nomlangan. Didaskallar shaxsiy maktablarga ega bo‘lgan. Boy oilalarda esa ta’lim-tarbiya ishi bilimli va savodli pedagoglarga topshirilgan. Rim imperiyasida o‘qituvchilar imperator tomonidan tayinlangan. Ular davlat amaldori kabi hurmat qilingan. Sharq sivilizatsiyasida, ayniqsa, Markaziy Osiyo madaniyatida o‘qituvchilik “ustozlik” maqomi bilan ajralib turgan. Ustoz nafaqat bilim berish, balki axloqiy tarbiya bilan ham shug‘ullangan. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino kabi allomalar ilm-fan taraqqiyotining ustuvor kuchi sifatida ustoz-shogird an’anasini alohida qadrlaganlar.

2. Yozing.

№	So‘z	Izoh
1.	Didaskallar	Yunonistondagi ozod, yosh ustozlar. Ular shaxsiy maktablarga ega bo‘lgan.
2.	Ustoz	
3.	Alloma	

hurmat qilmoq
alohida qadrlamoq
ta’lim jarayoni
maqom
ustuvor

Hozirgi-kelasi zamon					
birlik			***ko‘plik***		
men	bor~~moq~~+*a* so‘ra~~moq~~+*y*	***-man***	*biz*	bor~~moq~~+*a* so‘ra~~moq~~+*y*	***-miz***
sen		***-san***	*siz*		***-siz***
u		***-di***	*ular*		***-dilar***

3. Guruhda ishlash. “Mening orzumdagi ustoz”.

Vazifa: Tasavvur qiling, sizning orzungizdagi ustoz qanday bo‘lishi kerak? Uning qanday fazilatlari bor?

Shartlar:

1. Fikringizni 5-6 ta gap bilan yozing.
2. Hozirgi va kelasi zamon fe’llaridan foydalaning.

4. Yozing.

Namuna: *1. O‘qituvchilik qadim zamonlardan inson faoliyatining alohida turi sanaladi.*

1. O‘qituvchilik qadim zamonlardan inson faoliyatining alohida turi *sanaldi/sanaladi/sanalganmiz.*
2. Insonning hayoti faqat ta’lim-tarbiya tufayli *rivojlantiradi/rivojlanmoqda/rivojlanadi.*
3. Yangi texnologiyalar yordamida ta’lim jarayoni *tezlashadi/tezlashgan/tezlashgandi.*
4. Kelajakda ta’lim tizimi yanada interfaol bo‘lib, o‘quvchilar ko‘proq mustaqil ta’lim olishga *harakat qiladilar/harakat qiladi/harakat qilmoqda.*
5. Ustozlar nafaqat bilim *bergan/bermoqda/beradi,* balki o‘quvchilarni *tarbiyalamoqda/tarbiyalagan/tarbiyalaydi.*

5. Tinglang.





6. Fikrlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini ayting.

№	FIKR	to‘g‘ri ✓	noto‘g‘ri ✗
1.	Flora Ramazonova – Ravshan Ermatovning birinchi o‘qituvchisi.	***	***
2.	Ravshan Ermatov faqat sport maktabida o‘qigan.	***	***
3.	Temur Olimxo‘jayev uning sport murabbiyi bo‘lgan.	***	***
4.	San’at oliy o‘quv yurtida Munavvara Abdullayeva aktrisaga ustozlik qilgan.	***	***
5.	Dilnoza Kubayeva O‘zbek milliy akademik drama teatrida ishlaydi.	***	***

7. Yozing.

Fe’l	Hozirgi zamon	Hozirgi-kelasi zamon
sanamoq	sanayapti	sanaydi
topshirmoq		
intilmoq		
istamoq		

1. O‘qituvchi yoki murabbiylardan kasblar haqida intervyu oling.
2. Ularga uchta savol bilan murojaat qiling.
3. Intervyuni telefonga yozib oling.

DO‘STING – SENING AKSING

1. O‘qing.

Azizbek bolaligidan yaxshi o‘qishga, har bir darsdan yangi bilim o‘rganishga harakat qilardi. Biroq uning atrofidagi odamlar har xil edi. Ba’zilari uni rag‘batlantirib, oldinga intilishga undasa, boshqalari uning harakatlarini mazax qilardi.

Bir kuni Azizbek maktabdan qaytayotib, mahallasidagi katta yoshlilar bilan suhbatlashib qoldi. Ularning so‘zlari ta’sirli edi: “Hayotda eng muhim narsa – kimlar bilan muloqotda ekaning. Agar atrofingda dono va muvaffaqiyatga erishgan insonlar bo‘lsa, sen ham o‘shanday insonga aylanasan. Agar dangasa va befarq odamlar orasida bo‘lsang, vaqt o‘tib, o‘zing ham shunday bo‘lib qolasan”.

Bu so‘zlar Azizbekni o‘ylantirib qo‘ydi. U o‘zini kuzata boshladi: bilimdon do‘stlari bilan bo‘lganda, tirishqoqlik bilan o‘qirdi. Ammo vaqtini bekorga o‘tkazadigan dangasa do‘stlari davrasida bo‘lsa, darslariga befarq qaray boshlardi. Shu sababdan u o‘z kelajagi uchun yaxshi odamlardan o‘rnak olishga qaror qildi.

Oradan yillar o‘tdi. Azizbek ilm olishni davom ettirdi, atrofida esa unga ilhom beradigan insonlar to‘plandi. U katta yutuqlarga erishdi va orzu qilgan kasbini egalladi. Bir kuni unga o‘xshagan yosh bola kelib, “Aka, siz bu yutuqlarga qanday erishdingiz?” deb so‘radi. Azizbek esa jilmayib javob berdi: “Men shunchaki atrofimdagi insonlarni to‘g‘ri tanladim”.

2. Yozing.

Namuna: *1. Azizbek bolaligidan **o‘qishga** intilar edi.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *o‘qishga, rag‘batlantirsa, mazax, tushuna, kattalarning, ilmli.*

1. Azizbek bolaligidan ... intilar edi.
2. Atrofidagi odamlar ikki xil edi: ba’zilari uni ... , boshqalari esa ... qilardi.
3. Azizbek hayotida qanday odamlar bilan muloqot qilish muhimligini ... boshladi.
4. U kelajagini ... insonlar bilan qurishga qaror qildi.
5. Azizbek ... dono so‘zlarini eshitgach, o‘zini kuzata boshladi.

3. Mosini tanlang.

I	II
Azizbekni kimlar rag‘batlantirdi?	Sog‘lom muhit insonning kelajagini belgilaydi.
Azizbek nima sababdan o‘z atrofidagi odamlarni tanlay boshladi?	Chunki atrofidagi odamlar unga ta’sir qilayotganini tushundi.
Hikoyaning asosiy g‘oyasi nima?	Atrofidagi insonlar.

Majhul nisbat

Harakatning noma'lum bajaruvchi tomonidan bajarilganini anglatadi. Fe'l asosiga ***-l***, ***-il*** yoki ***-n***, ***-in*** qo'shimchalaridan birini qo'shish orqali hosil qilinadi.
Bolalar olma teryapti – aniq nisbatda.
*Olmalar ter**il**di – bajaruvchi noma'lum.*

4. Yozing.

Namuna: *O'quvchilar kitoblarni o'qidilar. → Kitoblar o'qildi.*

Foydalanish uchun so'zlar:
o'qimoq, yozmoq, yuvmoq, yopmoq, ekmoq, topmoq.

5. Tinglang.



Muvaffaqiyatli va bilimga chanqoq insonlar bilan do'st bo'ling.
O'zingiz ham yaxshi do'st bo'lishga harakat qiling.
Yomon odatli do'stlardan uzoq bo'ling.

6. Guruhda ishlash. Yozing.

Tadqiqot o'tkazgan universitet	Oksford universiteti
Tadqiqot mavzusi	***
Tadqiqotchilar nimani o'rgandi?	***
Inson hayotiga eng katta ta'sir qiluvchi shaxslar	***
Salbiy odatlarning paydo bo'lish sababi	***

rag'batlantirmoq
mazax qilmoq
tirishqoqlik
ilhom bermoq

O'z atrofingizdagi 3 nafar yaqin do'stingiz yoki oila a'zolaringizni tahlil qiling.

Sizning eng yaqin 3 do'stingiz kim?	Ismi:	Ismi:	Ismi:
Ularning qiziqishlari va maqsadlari qanday?	qiziqishi: ... maqsadi: ...	qiziqishi: ... maqsadi: ...	qiziqishi: ... maqsadi: ...
Ularning qanday fazilatlari bor?	1. ... 2. ... 3. ...	1. ... 2. ... 3. ...	1. ... 2. ... 3. ...

VAQT – QIMMATLI BOYLIK

1. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Agar bir kecha-kunduz 24 soat emas,18 soat bo‘lsa, bu odamlarning hayotiga qanday ta’sir qiladi?
2. Vaqtni boshqarish imkoniyatingiz bo‘lsa, uni qanday ishlatgan bo‘lar edingiz?
3. Vaqt tezlashyapti degan fikrga qanday qaraysiz?

boshqarmoq
allaqachon
taqsimlamoq

2. Tinglang.



9

3. Yozing.

Namuna: *1. Uy **tozalandimi**? Ha, xona allaqachon **tozalandi**.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *tozalamoq, artilmoq, yangramoq, ekilmoq.*

1. Uy tozalandimi? Ha, xona allaqachon ... .
2. Kecha bog‘da ko‘p gul ...? ...
3. Sinf derazalari tezda ...? ... .
4. Kecha radioda yangi qo‘shiq ...? ... .

4. Guruhda ishlash.

Juftlikda ishlang va quyidagi vaziyat bo‘yicha **dialog tuzing hamda uni rollarga bo‘linib ijro eting. Vaziyat:** Javohir ikki sinfdosh do‘sti bilan gaplashmoqda. U sinfdoshlariga vaqtni to‘g‘ri taqsimlash bo‘yicha maslahat beryapti.

5. Testlarni yeching.

1. Javohirning asosiy muammosi nimada edi?
A) Maktabga kech qolardi.
B) Telefonni uzoq vaqt ishlatardi.
D) Do‘stlari bilan urishardi.
E) Uxlamasdi.

2. Onasining ogohlantirishi nimaga qaratilgan edi?
A) uxlash tartibi
B) testga tayyorgarlik
D) ko‘proq kitob o‘qish
E) sport bilan shug‘ullanish

3. Hikoyaning asosiy g‘oyasi nima?
A) texnologiyadan foydalanish kerak
B) telefon zararli
D) vaqtni to‘g‘ri boshqarish muhim
E) kitob o‘qish zerikarli

4. Javohir past baho olganining sababi nima edi?
A) Darslikni yo‘qotgan edi.
B) Kasal bo‘lgan edi.
D) Testga tayyorlanmagan edi.
E) Do‘sti bilan janjallashgan edi.

5. Qachon Javohir o‘z xatosini anglab yetdi?
A) onasi urishganidan so‘ng
B) o‘qituvchisi unga baqirganidan so‘ng
D) past baho olganidan keyin
E) telefoni singan kuni

6. Javohir keyinchalik qanday ijobiy o‘zgarish qildi?
A) Telefonidan qutuldi.
B) Reja asosida harakat qila boshladi.
D) Do‘stlaridan yordam oldi.
E) Internetdan foydalanishni butunlay to‘xtatdi.

6. Guruhda ishlash. Jadvalni to‘ldiring.

Vaqt	Javohirning bir kuni	Sizning bir kuningiz
06:30–07:30	Uyg‘onish, yuvinish, nonushta	***
07:30–13:00	Maktab darslari	***
13:00–14:00	Tushlik va qisqa dam	***
14:00–15:00	Uy vazifasi/kitob o‘qish	***
15:00–16:00	Uy ishlariga yordam	***
16:00–17:00	Sport yoki yurish	***
17:00–18:00	Sevimli mashg‘ulot	***
18:00–19:00	Kechki ovqat	***
19:00–20:00	Oila a’zolari bilan suhbatlashish	***
21:00–22:00	Uyquga ketish	***

Vaqtni to‘g‘ri boshqarish uchun 5 ta tavsiya bering. 1-2 daqiqalik video yoki audio yozib oling.

OQILONA TANLOVLAR – KELAJAK POYDEVORI

1. O‘qing.



Kembrij universiteti olimlari o‘tkazgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inson miyasi uzoq muddatli natijalarni oldindan taxmin qilish qobiliyatiga ega bo‘lsa-da, ko‘p hollarda qisqa muddatli natijalar bilan cheklanishga o‘rganib qolyapmiz.

Oqilona tanlovlar uchun muhim tavsiyalar:

1. Katta natijalarga erishishni kichik qadamlardan boshlang.

Katta muvaffaqiyatlarning ortida muntazam ravishda bajariladigan oddiy, lekin samarali odatlar turadi. Masalan, har kunni rejalashtirish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash va 30 daqiqa ilm o‘rganishga odatlanish kelajakdagi natijalarga sezilarli ta’sir qiladi.

2. Vaqtingizni to‘g‘ri sarflang.

Ijtimoiy tarmoqlarda ortiqcha vaqt sarflash, foydasiz o‘yinlarga berilib ketish yoki befoyda suhbatlar bilan band bo‘lish kelajakda qimmatga tushishi mumkin.

3. Atrofingizda sog‘lom muhit yarating.

Shaxsiy rivojlanishingizga ta’sir ko‘rsatadigan eng muhim omillardan biri atrofingizdagi insonlardir. Agar sizni rag‘batlantiradigan, rivojlanishga undaydigan odamlar o‘rab tursa, kelajagingiz ancha yorqin bo‘ladi.

4. Sabrli bo‘ling, uzoqni o‘ylab ish qiling.

Ba’zan to‘g‘ri tanlov qisqa muddatli zavqlardan voz kechishni talab qiladi. Ammo shuni unutmangki, bugungi intizom va mehnat ertangi muvaffaqiyatning kalitidir.

2. Fikrlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini ayting.

№	FIKR	to‘g‘ri	noto‘g‘ri
		✓	✗
1.	Katta natijalarga erishish uchun doimo yirik loyihalarni boshlash kerak.	***	***
2.	Kembrij olimlarining tadqiqotlari inson miyasi uzoq muddatli natijalarni oldindan seza olishini ko‘rsatdi.	***	***
3.	Ijtimoiy tarmoqlarda ko‘p vaqt sarflash kelajak uchun yaxshi natijalar beradi.	***	***
4.	Matnda muvaffaqiyatga erishish uchun yaxshi odatlarni shakllantirish kerakligi aytilgan.	***	***
5.	Atrofingizdagi odamlar kelajakdagi muvaffaqiyatlaringizga ta’sir qilmaydi.	***	***

3. Yozing.

Namuna: *1. “Katta natijalarga erishishni kichik qadamlardan boshlang”. Kichik odatlar katta natijalarga yetaklaydi.*

1. “Katta natijalarga erishishni kichik qadamlardan boshlang”. …
2. “Shaxsiy rivojlanishda atrofdagi odamlarning ta’siri juda katta”. …
3. “Ba’zan qisqa muddatli zavqlardan voz kechish kelajakda muvaffaqiyat olib keladi”. …

4. Tinglang.



10

Oqilona qarorlar qabul qilishda yordam beradigan kitoblar:

1. “Atom odatlar”, Jeyms Klir

2. “Boy ota, kambag‘al ota”, Robert Kiyosaki

5. Testlarni yeching.

1. Jasur nechanchi sinfda o‘qirdi?

A) 7-sinf
B) 8-sinf
D) 9-sinf

2. Jasur qanday mashg‘ulotlarga qiziqardi?

A) sport, rasm chizish, texnika
B) kitob o‘qish, dasturlash, qo‘shiq aytish
D) faqat futbol va texnika

3. Jasur o‘z qobiliyatlarini qanday aniqladi?

A) ota-onasidan so‘rab
B) o‘qituvchisining maslahatiga amal qilib
D) daftariga qiziqishlari va qobiliyatlarini yozib

4. Jasurga ustozi qanday maslahat berdi?

A) orzularidan hech qachon voz kechmaslik
B) futbolga e’tibor berish
D) doimiy ravishda yangi kasb izlash

6. Savollarga og‘zaki javob bering.


1. Alisher Navoiyning qanday asarlari bor?
2. “Shum bola” asari kimning qalamiga mansub?
3. Siz sevgan asar haqida ma’lumot bering.

O‘zingiz yoqtirgan kasb haqida sinfdoshlaringizga taqdimot qiling.

1. Qaysi kasb sizni qiziqtiradi va nega?
2. Ushbu kasbda muvaffaqiyatga erishish uchun qanday ko‘nikmalar kerak?
3. Bu kasbni o‘rganish uchun nima qilish kerak?

qobiliyat
atrof
tadqiqot
intizom

Adabiy o‘qish.



MUHAMMAD YUSUF

VATANIM

Men dunyoni nima qildim,
O‘zing yorug‘ jahonim,
O‘zim xoqon,
O‘zim sulton,
Sen taxti Sulaymonim,
Yolg‘izim,
Yagonam deymi,
Topingan koshonam deymi,
O‘zing mening ulug‘lardan
Ulug‘imsan, Vatanim…

Shodon kunim gul otgan sen,
Chechak otgan izimga,
Nolon kunim yupatgan sen,
Yuzing bosib yuzimga.
Singlim deymi,
Onam deymi,
Hamdard-u hamxonam deymi,
Oftobdan ham o‘zing mehri
Ilig‘imsan, Vatanim.

Sen Mashrabsan,
Xalqda tumor,
Balxda dorga osilgan.
Navoiysan, shoh yonida
Faqirni duo qilgan.
Yassaviysan, meniki deb,
Ko‘ringan, da’vo qilgan,
Ming bir yog‘i ochilmagan
Qo‘rig‘imsan, Vatanim.

Sen Xo‘jandsan,
Chingizlarga
Darvozasin ochmagan,
Temur Malik orqasidan
Sirdaryoga sakragan,
Muqannasan qorachig‘i
Olovlarga sachragan,
Shiroqlarni ko‘rgan cho‘pon,
Cho‘lig‘imsan, Vatanim.

Kim Qashqarni qildi makon,
Kim Enasoy tomonda,
Jaloliddin – Kurdistonda,
Boburing – Hindistonda,
Bu qanday yuz qarolig‘, deb
Yotarlar zimistonda,
Tarqab ketgan to‘qson olti
Urug‘imsan, Vatanim…

O‘g‘lim desang, osmonlarga
G‘irot bo‘lib uchgayman,
Chambil yurtda Alpomishga
Navkar bo‘lib tushgayman,
Padarkushdan pana qilib
Ulug‘beging quchgayman,
G‘ichir-g‘ichir tishimdagi
So‘lig‘imsan, Vatanim…

O‘tgan kuning – o‘tgan kundir,
O‘z boshingga yetgan kun,
Qodiriyni bergan zamin,
Qodiriyni sotgan kun.
Qo‘lin bog‘lab,
Dilin dog‘lab,
Yetaklashib ketgan kun,
Voh bolam, deb aytolmagan
Dudug‘imsan, Vatanim.

Yoningda qon yig‘lagan bir
Shoiringga qarab qo‘y,
Gar Qo‘qonga yo‘ling tushsa,
Detdomlarni so‘rab qo‘y.
Hech bo‘lmasa Usmon xokin
Keltirmoqqa yarab qo‘y,
Olislarda qurib qolgan
Qudug‘imsan, Vatanim…

Sen – shoxlari osmonlarga
Tegib turgan chinorim,
Ota desam,
O‘g‘lim deb,
Bosh egib turgan chinorim,
Qo‘ynimdagi iftixorim,
Bo‘ynimdagi tumorim,
O‘zing mening ulug‘lardan
Ulug‘imsan, Vatanim!

IQROR

O, ota makonim.
Onajon o‘lkam,
O‘zbekiston, jonim to‘shay soyangga.
Senday mehribon yo‘q,
Seningdek ko‘rkam.
Rimni alishmasman bedapoyangga.

Bir go‘sha suv bo‘lsa, bir go‘sha qirlar,
Qancha yurtni ko‘rdim, qancha taqdirlar.
Qayga borsam suyab, boshni tik tut deb,
Tog‘laring ortimdan ergashib yurar.

Ko‘rdim suluvlarning eng faranglarin.
Yo xudbinman men, yo bir sodda kasman men –
Parijning eng go‘zal restoranlarin
Bitta tandiringga alishmasman men.

Na gapga ko‘nayin,
Na til bilayin,
Ko‘zdan uyqu qochdi, dildan halovat –
Uch kunda sog‘insam, nima qilayin,
Chala qolar bo‘ldi hamma sayohat.

Bildimki, baridan ulug‘im o‘zing,
Bildimki, yaqini shu tuproq menga.
Bahorda Baxmalda tug‘ilgan qo‘zing
Arab ohusidan azizroq menga.

Sen bilan o‘tgan har kun bayram-bazm,
Sensiz bir on qolsam, vahmim keladi.
Seni bilganlarga qilaman ta’zim,
Seni bilmaslarga rahmim keladi.

Guruhda ishlash.

Guruhlarga bo‘linib, she’rlarni tahlil qiling.

KELAJAKDAGI SEN: 20 YILDAN KEYIN KIM BO‘LASAN?

1. Tinglang.

11



2. Yozing.

Namuna: *1. Kibershifokorlar inson organizmini tahlil qiladi va kasalliklarni oldindan aniqlaydi.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *hayot sharoitlarini, yomg‘ir, kelajak texnologiyalari, sun’iy olamlar, almashtirishi, tahlil.*

1. Kibershifokorlar inson organizmini ... qiladi va kasalliklarni oldindan aniqlaydi.
2. Kosmik muhandislar yangi sayyorada ... yaratish ustida ishlaydi.
3. Iqlim muhandislari ob-havoni boshqarib, ... hosil qilishga yordam beradi.
4. Virtual dunyo arxitektorlari odamlar uchun ... yaratish bilan shug‘ullanadi.
5. Kelajak muzeyi insonlarga ... haqida tasavvur beradi.
6. Sun’iy idrok kelajakda ko‘plab kasblarni ... mumkin.

3. Mosini tanlang.

I	II
1. Kosmik muhandis	a) yomg‘ir yog‘dirish, ob-havoni boshqarish
2. Kibershifokor	b) sun’iy olamlar qurish
3. Virtual dunyo arxitektori	d) Marsda yashash uchun sharoit yaratish
4. Iqlim muhandisi	e) kasalliklarni oldindan aniqlash

himoyalagan
bashorat qilmoq
hayratlanarli
shakllantirmoq

4. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. 20 yildan keyin qaysi kasb eng talabgir bo‘lishi mumkin? Nima uchun?
2. Agar virtual dunyo arxitektori bo‘lsangiz, qanday sun’iy olam yaratardingiz?
3. Kosmosda yashash imkoniyatiga ega bo‘lsangiz, undan foydalanarmidingiz?
4. Kelajakda sun’iy idrok ko‘plab mutaxassislarni almashtirishi mumkin. Sizningcha, qaysi kasblar sun’iy idrok ta’siridan himoyalangan bo‘ladi?
5. 2025-yilda qanday yangi texnologiyalar yaratildi?

Chizmoq + ***ish*** + ***di*** = chizishdi

Sanamoq + ***sh*** + ***di*** = sanashdi

O‘qimoq + ***sh*** + ***gan*** = o‘qishgan

Biznikiga mehmonlar kel***ish***di.

Ular qo‘shiq tingla***sh***di.

5. Yozing. Berilgan fe’llarga -(i)sh qo‘shimchasini qo‘shib gaplar tuzing.

Namuna: *Kosmik muhandislar Marsda yashash uchun maxsus sharoit yaratish yo‘lini o‘ylab top**ish**di.*

1) o‘ylab topmoq
2) ixtiro qilmoq
3) tadqiq etmoq
4) loyiha qilmoq

6. Guruhda ishlash. Jadvalni to‘ldiring.

Kasblar					
Jismoniy mehnat			Aqliy mehnat		
Kasb nomi	Ijobiy tomoni	Salbiy tomoni	Kasb nomi	Ijobiy tomoni	Salbiy tomoni
1. Quruvchi	***	***	1. O‘qituvchi	***	***
2. ***	***	***	2. ***	***	***
3. ***	***	***	3. ***	***	***
4. ***	***	***	4. ***	***	***
5. ***	***	***	5. ***	***	***
6. ***	***	***	6. ***	***	***

Siz ilgari eshitmagan kelajak kasblaridan birini toping. U haqida qisqa tadqiqot o‘tkazing. Quyidagi ma’lumotlarni yozing:

1. Kasb nomi;
2. Uning vazifasi;
3. Jamiyatga ta’siri;
4. Bu kasbni egallash uchun kerak bo‘ladigan asosiy bilim va ko‘nikmalar.

UYG‘ONISH: SENGACHA VA SENDAN KEYINGI DUNYO

1. O‘qing.



1. Agrar soha – dehqonchilik va chorvachilik, 300 yil avval: dehqonlar yer haydashda oddiy yog‘och qurollardan foydalangan, ekinni sug‘orish uchun ariq qazigan. Chorvachilik tabiiy sharoitga bog‘liq bo‘lib, chorvani boqish qiyin bo‘lgan. Hosildorlik past, ocharchilik xavfi doim mavjud edi. Yaqin kelajakda esa sun’iy idrok va robot texnologiyalari dehqonchilikni avtomatlashtirishi bashorat qilinmoqda. Genetik modifikatsiya qilingan o‘simliklar qurg‘oqchilikka chidamli bo‘ladi. Dronlar tuproq sifatini tahlil qilib, kerakli o‘g‘itni belgilaydi. Go‘sht esa laboratoriyada sun’iy hujayralardan yetishtiriladi.



2. Tibbiyot, 300 yil avval: kasalliklarni davolashda xalq tabobatiga tayanilgan. Malhamlar o‘simlik damlamalaridan iborat edi. Jarrohlik amaliyotlari og‘riqli bo‘lgan. Kelajakda sun’iy idrok kasalliklarni erta aniqlaydi, DNK tahlili orqali insonning butun hayoti davomida qanday kasalliklarga chalinishini oldindan bilish mumkin bo‘ladi. Robot jarrohlar operatsiyalarni xatosiz bajaradi, nanorobotlar esa kasalliklarni qon tomirlari ichida yurib davolaydi.

3. Qurilish sohasi, 300 yil avval: uylar yog‘och, loy va toshlardan qurilgan. Qadimgi ustalar binolarni qo‘l mehnati bilan barpo etgan. Muhandislik tajribaga asoslangan bo‘lib, zilzilalar katta talafot keltirgan. Yaqin kelajakda 3D printerlar butun binolarni bir necha kunda qurib bitiradi. Bunda o‘zini o‘zi tozalovchi materiallardan foydalaniladi. Sun’iy idrokka asoslangan loyihalar tabiiy ofatlarga chidamli bo‘lib, energiyani o‘zi ishlab chiqaradi.



2. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Kelajakdagi bu o‘zgarishlar inson hayotiga qanday ta’sir qiladi?
2. Kelajakda qaysi sohadagi texnologiyalar eng muhimi bo‘ladi deb o‘ylaysiz? Nega?
3. Texnologik taraqqiyotning salbiy tomonlari qanday bo‘lishi mumkin?
4. O‘tmishning qaysi jihatlarini saqlab qolish kerak deb hisoblaysiz? Nega?

3. Yozing.

Soha	300 yil avval	Yaqin kelajakda
dehqonchilik	Yog‘och qurollar ishlatilgan.	***
tibbiyot	***	Nanorobotlar kasalliklarni davolaydi.

4. Tinglang.

12



dehqonchilik
chorvachilik
hosildorlik
qurg‘oqchilik

5. Guruhda ishlash. Dialog tuzing.

Ali kelajakka borganida sun’iy idrokli o‘qituvchi bilan uchrashdi. U sun’iy idrokli o‘qituvchidan hozirgi jamiyat va texnologiyalar haqida so‘radi. Ularning suhbatini yozing.

Ali: – Bu yerda hamma soha texnologiyaga to‘la! Odamlar qayerda?

Sun’iy idrokli o‘qituvchi: – Odamlar ko‘pincha virtual dunyoda yashaydi. Ular kamdan kam tashqariga chiqishadi.

Ali: – Bu juda g‘alati… Tabiat ham yo‘qolib ketganmi?

Sun’iy idrok o‘qituvchi: – …

Ali: – …

…

6. Yozing.

Vaziyat	Ali qayerda?	U nima qiladi?
o‘tmishga sayohat	*300 yil avvalgi bozor*	*Odamlarni kuzatadi, kitobni o‘qiydi*
kitobni o‘qiganda	***	***
kelajak shahriga borganda	***	***
hozirgi zamonga qaytganda	***	***

Jumlalarni o‘z fikringiz bilan davom ettiring.

1. Agar o‘tmishda odamlar kasalliklarga aniq tashxis qo‘yish imkoniga ega bo‘lishganida, ...
2. Agar kelajakda sun’iy idrok qishloq xo‘jaligini to‘liq boshqarsa, ...
3. Agar qurilishda 3D printerlar ommalashsa, ...
4. Agar o‘tmishda odamlar avtomobillarni ixtiro qilishganida, ...

ILM-FAN AFSONALARNI YO‘Q QILADIMI?

1. O‘qing.



Ilm-fan va afsonalar o‘rtasidagi kurash uzoq yillar davom etib kelgan. Odamlar qadimda quyosh va oy tutilishini yovuz kuchlar yoki osmon ma’budlarining g‘azabi deb o‘ylaganlar. Lekin astronomlar bu hodisalar osmon jismlarining harakati natijasida sodir bo‘lishini tushuntirib berganlar.

Zamonaviy tibbiyot ham afsonalarni rad etadi. Ilgari odamlar kasalliklarni jin va ruhlar keltiradi deb hisoblagan. Biroq olimlar mikroblarni kashf etishdi va vaksinalar yaratib, ko‘plab kasalliklarning oldini olishdi. Natijada o‘lim ko‘rsatkichi sezilarli darajada pasaydi.

Shunga qaramay, ba’zi afsonalar hanuzgacha saqlanib qolgan. Masalan, ayrim odamlar folbinlarga, telepatiyaga yoki NUJ (noma’lum uchar jismlar) borligiga ishonadi.

Masalan, ayrim kishilar “Koronavirus laboratoriyada yaratilgan” deb o‘ylagandi, ammo olimlar bu virus tabiiy holatda paydo bo‘lganini isbotlab berdi. Shuningdek, ba’zi odamlar “Inson Yerga ta’sir qilmaydi, iqlim tabiiy o‘zgaradi” deb hisoblaydi. Lekin tadqiqotlar sanoat chiqindilari va atmosferaga chiqarilayotgan gazlar global isishning asosiy sababi ekanini ko‘rsatdi.

Demak, ilm-fan afsonalarni butunlay yo‘q qilmaydi, balki haqiqatni ochib beradi va odamlarni ilmiy fikrlashga undaydi. Afsonalar tarix va rivojlanishning ajralmas qismidir.

2. Mosini tanlang.

1	Inson Yerga ta’sir qilmaydi, iqlim tabiiy ravishda o‘zgaradi	A	kasalliklarni mikroblar keltirib chiqaradi
2	Kasalliklarni jin va ruhlar keltiradi	B	ilmiy tadqiqotlar virus tabiiy kelib chiqqanini ko‘rsatdi
3	Yulduz uchganda tilak aytish orzularni ro‘yobga chiqaradi	D	hozircha NUJlarning mavjudligi ilmiy isbotlanmagan
4	Noma’lum uchar jismlar (NUJ) yerga kelib, odamlarni olib ketadi	E	yulduz uchishi tabiiy meteor hodisasi bo‘lib, insonning hayotiga ta’sir qilmaydi
5	Koronavirus laboratoriyada yaratilgan	F	olimlar global isish inson faoliyati bilan bog‘liq ekanini isbotladi

Yaqin o‘tgan zamon					
birlik			***ko‘plik***		
men	bor~~moq~~+*di*	***-m***	*biz*	bor~~moq~~+*di*	***-k***
sen		***-ng***	*siz*		***-ngiz***
u		***-***	*ular*		***-lar***

3. Yozing.

Namuna: *1. **Biz** bajardik.*

… bajardik. … aytding. … oldim. … bordi. … so‘radingiz. … keldilar. … aytdingiz. … ishondik. … qaytdim. … yordam berdi. … qo‘ng‘iroq qilding.

4. Tinglang.



5. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Zafar fizikadan nimani o‘rgandi?
2. Zafar g‘orga kim bilan bordi?
3. G‘orda qanday hodisa sodir bo‘ldi?
4. Bobosi unga nima dedi?

6. Yozing.

Namuna: *1. Zafar g‘or haqidagi afsonalarni **bobosidan** eshitib ulg‘aydi.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *aks sado, bobosidan, olim, baqirdi.*

1. Zafar g‘or haqidagi afsonalarni ... eshitib ulg‘aydi.
2. O‘qituvchisi unga ... hodisasini tushuntirdi.
3. G‘orga borgach, Zafar ... va o‘z ovozini eshitdi.
4. Zafar kelajakda ... bo‘lishga qaror qildi.

oy tutilishi
ilgari
sezilarli
undamoq
ajralmas qismi

7. Fikrlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini ayting.

№	FIKR	to‘g‘ri ✓	noto‘g‘ri ✗
1.	Zafar bolalikdan aks sado haqida bilgan.	***	***
2.	G‘or ichidagi ovozlar aslida yovuz ruhning ovozi edi.	***	***
3.	Zafar g‘orda o‘z ovozini eshitdi.	***	***
4.	Bobosi Zafar bilan birga g‘orga borgan.	***	***
5.	Zafar kelajakda olim bo‘lishni istadi.	***	***

Hikoyaning yakunini yozing (3-4 gap).
Zafar afsonalarga ishonish o‘rniga haqiqatni o‘zi tekshirishni boshladi. U qishloqdagilarga g‘ordagi tovushning sirini tushuntirdi. Endi qishloq bolalari ham u kabi qo‘rqmasdan ilm o‘rganishga qiziqish bildirishdi…

1. O‘qing.



“Apollon 13”

Missiya: “Apollon 13”

Sana: 11–17-aprel, 1970-yil.

Astronavtlar: Jim Lovell, Jek Svigert, Fred Hays.

Natija: missiya muvaffaqiyatsiz yakunlangan, lekin astronavtlar qutqarilgan.

Hodisa va halokat sababi

“Apollon 13” dastlab Oyga uchib, uchinchi qo‘nishni amalga oshirishi kerak edi. Biroq uchishning ikkinchi kunida xizmat moduli ichidagi kislorod baklaridan biri portlab ketdi. Bu hodisa kuchli zarba va shikastlanishlarga sabab bo‘lib, kemaning elektr ta’minoti va hayotiy muhim tizimlarini ishdan chiqardi.

Portlashning sababi oddiy – qurilma ichidagi sim izolyatsiyasi shikastlangan va kislorod aralashmasi portlashiga olib kelgan. Bu nafaqat astronavtlarning nafas olish imkoniyatini cheklab qo‘ydi, balki elektr energiya manbasini ham o‘chirdi. Natijada asosiy modul ishlamay qoldi va astronavtlar Oyga qo‘nish rejasidan voz kechib, Yerga qaytishga majbur bo‘ldi.

2. Testlarni yeching.

1. “Apollon 13” missiyasining asl maqsadi nima edi?

A) Marsga uchish
B) Oyga qo‘nish
D) Yer orbitasini aylanib uchish
E) Quyosh tizimini tadqiq qilish

2. Portlash natijasida nima sodir bo‘ldi?

A) Astronavtlar Oyga qo‘nishdi.
B) Kema Yerga qaytolmadi.
D) Elektr ta’minoti va hayotiy tizimlar ishdan chiqdi.
E) Astronavtlar favqulodda holatda Yerga qo‘ndi.

3. Portlash qayerda sodir bo‘ldi?

A) Oy yuzasida
B) xizmat modulida
D) astronavtlarning yashash modulida
E) bort kompyuter tizimida

4. Portlash sababi nima edi?

A) kislorodning yo‘qligi
B) sim izolyatsiyasining shikastlanishi
D) kema devorining yorilishi
E) quyosh energiyasi uzilishi


3. Yozing.

Namuna: *1. “Apollon 13” missiyasi 1970-yil 11-aprelda boshlangan.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *xizmat, elektr ta’minoti, hayotiy muhim, 1970-yil 11-aprelda Yerga qaytishga, nazorat markazi yordamida.*

1. “Apollon 13” missiyasi ... boshlangan.
2. ... moduli ichida portlash sodir bo‘ldi.
3. Portlashdan keyin kemaning ... va ... tizimlari ishdan chiqdi.
4. Missiya Oyga qo‘nish o‘rniga ... qaror qildi.
5. Astronavtlar ... qutqarilgan.

4. Tinglang.



5. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Agar NASA muhandislari energiya tejash strategiyasini ishlab chiqmaganida, nima sodir bo‘lardi?
2. Agar astronavtlar Oy moduli ichiga o‘tkazilmaganida, ularning hayoti xavf ostida bo‘larmidi? Javobingizni izohlang.
3. Agar karbonat angidrid filtri mos kelmaganida, qanday oqibatlar bo‘lishi mumkin edi?
4. Ushbu missiya keyingi kosmik tadqiqotlarga qanday ta’sir ko‘rsatgan deb o‘ylaysiz?

6. Audiomatn asosida gaplarni tartib bilan yozing.


qutqarmoq
portlamoq
zarba
shikastlamoq

__1__ a) Astronavtlar Oy moduli ichiga o‘tkazildi.
____ b) NASA muhandislari energiya tejash strategiyasini ishlab chiqishdi.
____ d) Astronavtlar to‘g‘ridan to‘g‘ri Yerga qaytish yo‘nalishiga burildi.
____ e) Kislorod va karbonat angidrid filtrlari mos kelmadi, muhandislar improvizatsiya qilingan filtr yaratishdi.
____ f) “Apollon 13” ekipaji 17-aprel kuni Tinch okeaniga muvaffaqiyatli qo‘ndi.

Sizning hayotingizda shunday holat bo‘lganmi? Quyidagi savollar asosida 6–8 ta gapdan iborat matn tuzing.

1. Rejalashtirgan ishingiz muvaffaqiyatsiz chiqqan, lekin siz undan katta saboq olgan holatni eslang.
2. Ushbu tajribadan nimani o‘rgandingiz?
3. Keyingi safar bunday xatoning oldini olish uchun nimalar qildingiz?

1. O‘qing.



Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidan parcha

“Murodimni tomosha qilish uchun suv ostiga tushmoqchiman”. Rivoyatning shu o‘rni haqida ziddiyat, qarama-qarshilik bor. Emishki, bir sandiqvash usta Iskandarga gavhardan bir sandiq yasab bergan va shoh uning ichiga kirgan, mulozimlar esa bosh tomoniga arqon bog‘lab, ehtiyotlik bilan u shishani suv ichra solibdilar. Shoh shisha ichida bir necha oy qolib, bahr holini, ming xil baliqlarning ko‘rinishlari va yashash sharoitlarini tomosha qilganmish. Yuz kun o‘tgach, shishani yuqoriga tortib olishibdi. Bu hikoyat bo‘lsa, shunday voqealarning yuz berishiga aql bovar qilmaydi.

ALISHER NAVOIY VA SUV OSTIDAGI SARGUZASHT

Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonida Iskandar Zulqarnaynning dengiz tubidagi sirlarni o‘rganishga qiziqishi haqida hikoya qiladi. O‘sha paytda suv ostiga tushish imkoni bo‘lmagani uchun usta maxsus shaffof sandiq yasaydi. Iskandar shu sandiq ichida suvga tushiriladi va u yerda turli baliqlar hamda suvosti hayotini kuzatadi. Yuz kundan so‘ng uni yana suv yuzasiga olib chiqishadi.

Bu qurilma zamonaviy suvosti kemalariga juda o‘xshaydi. Ular ham mustahkam materiallardan yasalgan bo‘lib, maxsus oynalar orqali dengiz hayotini kuzatish mumkin. Navoiy bu g‘oyani bir necha asr oldin tasvirlagan bo‘lsa-da, hozirgi texnologiyalar bilan o‘xshashligi uning tafakkuri naqadar ilg‘or ekanini ko‘rsatadi. Balki, kelajakda uning boshqa g‘oyalari ham ilmiy jihatdan isbotlanar!

2. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Nega Iskandar Zulqarnayn suv ostini o‘rganishni xohladi?
2. Usta shoh Iskandar uchun qanday sandiq yasadi?
3. Iskandar Zulqarnayn shaffof sandiq ichida nimalarni kuzatdi?
4. Shisha sandiq zamonaviy suvosti kemalariga qanchalik o‘xshaydi?
5. Sizningcha, Alisher Navoiy kelajak texnologiyalarini oldindan tasavvur qilganmi? Qanday qilib?

dengiz tubi
imkon
kuzatmoq
qurilma

O‘tgan zamon davom fe’li					
birlik			***ko‘plik***		
Men	bor~~moq~~+*ar edi*	**-m**	*Biz*	bor~~moq~~+*ar edi*	**-k**
Sen		**-ng**	*Siz*		**-ngiz**
U		**-**	*Ular*		**-lar**

3. Yozing. Matndan foydalanib jadvalni to‘ldiring.

Savol	Javob
Asar nomi	*Saddi Iskandariy*
Muallif	***
Asosiy qahramon	***
Voqea joyi	***
Asosiy g‘oya	***

4. Yozing.

Namuna: *1. Sen topshiriqlarni o‘z vaqtida* ***bajarar eding.***

Foydalanish uchun so‘zlar: *bajarmoq, gullamoq, dam olmoq, tugatmoq, o‘qimoq.*


1. Sen topshiriqlarni o‘z vaqtida … … .
2. Bu yerda o‘riklar barvaqt … … .
3. Men vazifalarimni eng avval … ... .
4. Siz sarguzasht qissalarni sevib … … .
5. Ular yozda qishloqda … … .

5. Anagramma.

Namuna: *1.* ***rgushztaas*** *→ sarguzasht*

ffshoaf→
viyazmona→
oyg‘a→
lakekja →
ngdezi→

6. Tinglang.



7. Audiomatn asosida gaplarni tartib bilan yozing.

___ a) Leonardo da Vinchi “Havo parragi” (vinti) deb nomlangan qurilma chizmasini chizdi.
___ b) Leonardo qushlarning qanday uchishini o‘rganishga qiziqdi.
1 d) U samolyot va vertolyot kabi texnologiyalar uchun g‘oyalar yaratdi.
___ e) Leonardo “Ornitopter” deb nomlangan uchar qurilmani loyihaladi.
___ f) Inson mushak kuchi yetarli bo‘lmagani uchun bu qurilmalar uchmadi.

Yo‘nalishlar	Alisher Navoiy	Leonardo da Vinchi
Asarlari va izlanishlari	…	…
Texnologiyalar bilan bog‘liq g‘oyalari	…	…
Kelajak avlodlarga ta’siri	…	…
O‘z davrida qanday yangiliklar yaratgan?	…	…

Adabiy o‘qish.



SA’DULLO QURONOV

UCHISH REJASI

(“Galaktikada bir kun” asaridan parcha)

“Ko‘kkezar”ning fazoga ko‘tarilishiga atigi bir necha soat qolgan. Ikkala fazogir ham kuchli hayajonda. Chunki ularni oldinda judayam g‘aroyib sarguzashtlar kutib turgani aniq. Qahramonlarimiz qanday bo‘lmasin, kristallni topib, Salmir sayyorasini halokatdan qutqarib qolishlari shart. Aks holda haqiqiy falokat yuz beradi.

Ahmadning fazoga sayohati uchun judayam qulay vaqt tanlangan edi. Chunki bugun Ahmad ota-onasi bilan xayrlashib, yozgi oromgohga ketishi kerak. U oromgohga emas, to‘g‘ri Abdukarim amakining hovlisiga yo‘l oldi. O‘zi bilan barcha kerakli narsalarini ham olgandi. Kichkina do‘stini kutib o‘tirgan Margolning chehrasi yorishib ketdi.

– To‘g‘risini aytsam, shu daqiqagacha kelmay qolasanmi deb qo‘rqib o‘tirgandim, – dedi Margol bolalarday quvonib.

– Mana, keldim, chunki yerliklar bir so‘zli bo‘ladi, – dedi Ahmad mag‘rur turib.

– Bunga yana bir bor amin bo‘ldim, – tasdiqlab qo‘ydi Margol.

Shundan so‘ng Margol qog‘oz va qalam olib Ahmadga yuzlandi:

– Kel, endi vaqtni o‘tkazmay, sayohatimiz rejasini tuzib olaylik.

Avvaliga Margol Quyosh tizimiga uyushtiriladigan ekspeditsiyaning maqsadini batafsilroq tushuntirib o‘tdi.

– Salmir olimlari N2G kristalli Quyosh tizimidagi aynan qaysi sayyorada ekanini aniqlay olishmagan. Vaqtimiz kamligini hisobga olib, 9 ta sayyoraning hammasiga emas, balki eng zarurlariga borish kerak deb o‘ylayman.

– Kechirasiz, Margol, sayyoralar 9 ta emas, balki 8 ta. Aniqrog‘i, Pluton 2006-yilda sayyoralar safidan chiqarilib, jajji sayyoralar qatoriga kiritilgan. Shunday qilib, ular 8 ta qolgan.

– Bundan xabarim bor. Ammo Quyosh tizimida yerliklar bilmaydigan yana bir ulkan sayyora ham mavjud.

– Yo‘g‘-e! – Ahmad uchun bu kutilmagan yangilik bo‘ldi.

– Ha, ba’zi yerlik olimlar matematik hisob-kitoblarga ko‘ra bu sayyoraning borligini aytishadi. Ammo haligacha uni biror teleskop aniqlagani yo‘q. Chunki u Quyoshdan eng olisda joylashgan sayyoradir. Biz unga PN-1437 raqamini berganmiz.

– Demak, biz o‘sha noma’lum sayyoraga ham uchamiz, shundaymi? – so‘radi Ahmad.

– Yo‘q, shart emas. Issiq bo‘lgani uchun Merkuriyga keyinroq uchamiz. Yana Yupiter, Saturn, Neptun kabi sayyoralarga ham borishning hojati yo‘q. Chunki bu sayyoralarning sathi quyuq gazdan iborat. Ularda Yerdagi kabi qattiq yuza emas, balki suyuq yadro va gazlar bor xolos.

– To‘g‘ri, bu sayyoralarning sathiga qo‘nishning imkoni yo‘q, – tasdiqladi Ahmad. – Ammo Yupiterning Yer sayyorasiday keladigan ulkan yo‘ldoshlari Io, Yevropa, Ganimed va Kallisto ham bor-ku!

– To‘g‘ri aytasan, unda Yupiterning yo‘ldoshlariga borishni ham rejaga kiritib qo‘yaman, – Margol shunday deb qog‘ozga yo‘ldoshlar nomini yozib qo‘ydi va dedi: – Ahmad, kel, oldin Marsga uchamiz. Agar kristallni topa olmasak, keyin boshqa sayyoralarga safar qilamiz.

– Menimcha, bu eng to‘g‘ri qaror, kelishdik.

Rejani tuzib olgan qahramonlarimiz endi tunni intiqlik bilan kuta boshlashdi.



Yozing.

Asardan berilgan parchadagi 10 ta notanish so‘zni yozing. Ularni ona tilingizga tarjima qiling.


UZBEKISTA





II CHORAK


Google
LinkedIn
Pinterest
Instagram
Facebook
Twitter
Telegram
Tik Tok

OQIL ELCHI

1. O‘qing.



Bir podshoh katta davlatga hukmronlik qilardi. Uning yurti tinch bo‘lsa-da, qo‘shni davlatlar bilan doim urush chiqardi. Podshoh bu urushlardan charchadi. Bir kuni u majlis qildi:

– Urush bizga faqat zarar keltiradi. Endi men urush qilmasdan, muammoni tinch yo‘l bilan hal qilmoqchiman. Qo‘shni davlatlar bilan tinchlik muzokaralarini o‘tkazish uchun kim elchi bo‘lib boradi?

Shunda Jalol ismli bir yosh yigit o‘rnidan turdi:

– Podshohim, men elchi bo‘laman. Qo‘shni podshoh bilan gaplashib, tinchlik sulhini tuzib kelaman. Urush o‘rniga do‘stlik taklifini beraman.

Podshoh Jalolning jasoratidan quvondi. U Jalolga qadimgi Misr va Xitoy elchilari haqida so‘zlab berdi. Ular urush qilmasdan, savdo va do‘stlik yo‘lini tanlagan edi.

Jalol yo‘lga chiqdi. Qo‘shni davlatga borib, podshoh bilan uchrashdi:

– Agar biz urush qilsak, ikkala davlat ham zarar ko‘radi. Lekin do‘st bo‘lsak, birgalikda rivojlanamiz.

Avvaliga qo‘shni podshoh bu gaplarga ishonmadi. Lekin Jalol unga Rim va Fors davlatlari tinchlik orqali qanday rivojlanganini aytib berdi. Ular bir-birini tushunib, urush o‘rniga hamkorlik qilgandilar.

Bu so‘zlar qo‘shni mamlakat shohiga ta’sir qildi. U Jalolga ishondi. Ikki davlat o‘rtasida tinchlik sulhi tuzildi.

Jalol vatanga qaytib keldi. Uni odamlar qahramon kabi kutib oldi. U elchi bo‘lish faqat gapirish emas, balki tinglash, tushunish san’ati ham ekanini isbotladi.

Shu kundan boshlab Jalol yoshlarga elchilik haqida saboq bera boshladi. U zukko, aqlli, gapga usta elchilarni tarbiyaladi.

Elchilik – urushlarning oldini oladigan kuchli vosita. Agar insonlar bir-birini eshitib, tushunsa, har qanday muammo tinch yo‘l bilan hal qilinadi.

2. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Jalol tinchlik haqida qanday taklif berdi?
2. Qo‘shni mamlakat podshohi dastlab unga qanday munosabatda bo‘ldi?
3. Jalol qaysi tarixiy davlatlar haqida gapirdi?
4. Suhbat yakunida qanday natijaga erishildi?

hukmronlik qilmoq
tinchlik sulhi
zarar keltirmoq
elchi

3. Fikrlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini ayting.

№	FIKR	to‘g‘ri ✓	noto‘g‘ri ✗
1.	Podshoh tinchlikka urush orqali erishmoqchi bo‘ldi.	***	***
2.	Jalol qo‘shni davlatga urush e’lon qilgani bordi.	***	***
3.	Jalol Rim va Fors davlatlari haqida misollar keltirdi.	***	***
4.	Ikki davlat o‘rtasida do‘stlik sulhi tuzildi.	***	***
5.	Jalol elchi bo‘lish uchun xorijda o‘qidi.	***	***

O‘zlik nisbati ish-harakatni bajaruvchi o‘z ustida amalga oshirganini bildiradi. Fe’llarga ***-n***, ***-in*** yoki ***-l***, ***-il*** qo‘shimchalaridan birining qo‘shilishi bilan hosil bo‘ladi.
Misollar: kiyinmoq, yuvinmoq, ochilmoq, yopilmoq, osilmoq, sochilmoq.

4. Yozing.

Namuna: *Eng avval atirgullar och**il**adi.*

1. Eng avval atirgullar och...adi.
2. Daraxtlarning barglari sarg‘ayib, yerga to‘k...gan.
3. Hammamiz maktab hovlisida to‘pla... moqchimiz.
4. Avvalgi voqealar yana takrorla...di.
5. To‘nimga yop...ib, biroz uxlagan edim.

5. Rolli o‘yin. “Elchi va Podshoh”

Vazifa: Juftliklarda ishlang. Bir o‘quvchi Jalol, biringiz esa qo‘shni davlat podshohi rolidasiz. Quyidagi mavzuda dialog tuzing:

“Tinchlik shartnomasi uchun qanday takliflar berasiz? Izohlang”.

Tayyorlanish uchun: 1 daqiqa

Ijro uchun: 2-3 daqiqa

6. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Oilada tinchlikni saqlash uchun nima qilish kerak?
2. Maktabda tinchlik qanday ta’minlanadi?
3. Mahallada totuvlikni saqlash yo‘llari qanday?

7. Lug‘at bilan ishlash.

So‘z	Sinonimi	Gap tuzing
jasorat	***	***
tinchlik	***	***
elchi	***	***

1. 5 ta “Do‘stlik qoidasi”ni yozing. *(Masalan: “Bir-birini tinglash”, “Hurmat bilan gaplashish”)*
2. Har bir qoidaga mos 1 ta kichik rasm yoki belgi (simvol) chizing. *(Masalan: quloq rasmi – tinglash uchun)*

DO‘STLIK KO‘PRIGI

1. O‘qing.

“Yosh yetakchilar” va “Kelajak umidlari” nomli ikkita qo‘shni maktab doim bir-biri bilan raqobatlashardi. Ular sport o‘yinlarida, fan olimpiadalarida, hatto san’at tanlovlarida ham raqib bo‘lishardi. Bir kuni futbol musobaqasi bo‘lib o‘tdi. Final o‘yinida “Kelajak umidlari” jamoasi g‘olib bo‘ldi. “Yosh yetakchilar” jamoasi bundan norozi bo‘ldi. Ular hakam xato qildi deb o‘ylashdi. Shundan keyin ikki maktab o‘quvchilari o‘rtasida janjal boshlandi. Hatto o‘quvchilar ijtimoiy tarmoqlarda bir-birlarini masxara qila boshlashdi. Endi o‘quvchilar raqib maktabni dushman deb bilishardi. Ba’zi o‘qituvchilar ham o‘z o‘quvchilarini qo‘llab, muammoni hal qilish o‘rniga yanada kuchaytirishdi. Bu holat ta’limga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi, maktab rahbarlarini ham tashvishga soldi. Har ikki maktab direktori, o‘qituvchilari va yetakchi o‘quvchilari uchrashib, vaziyatni muhokama qilishdi. Vakillar bir-birining fikrini tushunishga harakat qilishdi. Ular bu yog‘iga birga ishlashga kelishishdi:

1. Keyingi yili sport o‘yinlarida bitta jamoa bo‘lib ishtirok etishadi.
2. Fan tanlovlarida bir-birlariga yordam berishadi.
3. Har yili madaniy festival o‘tkazishadi va o‘z iqtidorlarini ko‘rsatishadi.

Maktab direktorlarining tashabbusi bilan “Do‘stlik dasturi” tuzildi. Har yili birga “Do‘stlik festivali”ni o‘tkazishga kelishildi.



2. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Qaysi maktablar bir-biriga raqib edi?
2. Qanday voqea mojaroga sabab bo‘ldi?
3. O‘quvchilar o‘zlarini qanday tutishdi?
4. Maktab rahbarlari qanday choralar ko‘rdi?
5. “Do‘stlik dasturi”da qanday kelishuvlar bor?

raqobatlashmoq
bellashuv
vaziyat
ziddiyat

3. Matn asosida gaplarni tartib bilan yozing.

___ a) Rahbarlar yig‘ilish o‘tkazdi.
___ b) O‘quvchilar ijtimoiy tarmoqda bir-birlarini masxara qilishdi.
___ d) Maktablar bir-biriga yordam berishga kelishdi.
_1_ e) Final o‘yini bo‘lib o‘tdi.
___ f) “Do‘stlik dasturi” tuzildi.

4. Nisbatlarni belgilang.

№	Misollar	O‘zlik	Majhul
1.	Lag‘mon ingichka qilib cho‘zildi.		
2.	U cho‘zilib olmani oldi.	+	
3.	Mushuk bolalarining ko‘zi to‘qqiz-o‘n kunda ochiladi.		
4.	Eshik asta ochildi.		
5.	Xalq og‘zaki ijodi namunalari yig‘ildi.		+
6.	O‘n yildan keyin yana yig‘ilamiz.		

5. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘yib yozing.

Namuna: *1. Final o‘yinidan so‘ng **“Yosh yetakchilar”** maktabi norozilik bildirdi.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *janjal, ta’limga, birga, “Yosh yetakchilar”, har yili.*

1. Final o‘yinidan so‘ng ... maktabi norozilik bildirdi.
2. Ijtimoiy tarmoqlarda ... boshlanib ketdi.
3. Vaziyat ... ta’sir ko‘rsatdi.
4. Rahbarlar ... yig‘ilish o‘tkazishdi.
5. “Do‘stlik festivali” ... o‘tkaziladigan bo‘ldi.

6. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Siz shu maktab o‘quvchisi bo‘lganingizda, vaziyatni qanday hal qilar edingiz?
2. Sizningcha, raqobat do‘stlikni buzadimi yoki kuchaytiradi? Nega?

7. Berilgan ma’lumotlar asosida kichik matn tuzing. Matnga sarlavha qo‘ying.

- Futbol o‘yinida adolat bo‘lishi kerak.
- Maktablar bir-biridan ustun bo‘lishi kerak.
- Raqobat do‘stlik orqali ijobiy tomonga yo‘naltirilishi mumkin.
- O‘quvchilar ijtimoiy tarmoqlardan foydalanmasligi kerak.

Tinchlik va hamkorlik haqida 6–8 ta gapdan iborat dialog yozing.

AVVAL O‘YLA, KEYIN SO‘YLA

1. O‘qing.



Bolalar maktab hovlisida futbol o‘ynayotgan edi. O‘yinda Jamshid tepgan to‘p Anvarning yuziga tegib ketdi. Anvar og‘riqdan baqirib yubordi:

– Nima qilyapsan, ko‘rmayapsanmi?!

Jamshid ham jahl bilan javob qaytardi:

– O‘zing chetroqda tur, men aybdor emasman!

Ularning janjali avval so‘z bilan, keyin esa musht bilan davom etdi. Atrofdagi bolalar ularga qarab kulishdi, bu esa vaziyatni yanada chigallashtirdi.

Shu payt ustoz Islom aka ularni ko‘rib:

– Bolalar, o‘yinda ba’zida xatolar bo‘ladi. Muhimi – to‘g‘ri so‘zlarni tanlash.

U misol keltirdi:

– “Kechirasan, bilmay qoldim. Uzr, og‘riyaptimi?” desangiz, hammasi joyida bo‘ladi. Agar shu holatda bir-biringiz bilan urishishda davom etsangiz, sinfdoshlik munosabatlaringiz buzilishi va bu o‘qishingizga ham salbiy ta’sir qilishi mumkin. Shunday bo‘lishini xohlaysizmi?

Jamshid xatosini tushundi va Anvardan kechirim so‘radi. Anvar ham uzr so‘radi. Ular yana do‘stona munosabatlarni mustahkamlovchi o‘yinni davom ettirishdi.

Ammo ustozning maslahatlari bolalarning yodida qoldi:

“Iltimos, fikringni tushuntirib ber”.

“Bu holat meni biroz xafa qildi, lekin yechimini topamiz”.

“Men o‘zimni noqulay his qildim, sen-chi?”

Shu kuni hamma bir narsani tushundi: muammoni muloyimlik bilan hal qilish do‘stlikni saqlab qoladi, yuraklarni yaqinlashtiradi va hammaga yaxshi ta’sir qiladi.

2. O‘ylab ko‘ring. Gapiring.

Matnning asosiy g‘oyasi qaysi?

1. Futbol o‘ynaganda ehtiyot bo‘lish kerak.
2. Har qanday muammoni kuch bilan hal qilish kerak.
3. Do‘stlikni saqlab qolish uchun muloyimlik va hurmat bilan muloqot qilish kerak.
4. Sportda har doim g‘alaba qozonish kerak.

og‘riq
aybdor
muloyimlik
chigallashtirmoq

3. Guruhda ishlash. Matndan iqtibos toping.

1. Islom aka aytgan eng yaxshi uchta gapni yozing.
2. O‘quvchilar tushungan asosiy saboq nima?

4. Yozing.

Namuna: *1. Ahmad tezda yuv**in**di./Idish-tovoqlar yuv**il**di.*

1. Ahmad tezda yuv...di./Idish-tovoqlar yuv...di.
2. Doim ozoda kiy...aman./Navro‘zda milliy kiyimlar kiy...adi.
3. Uzoqdan avtobus ko‘r...di./“Vatan” filmi ko‘r...di.
4. Oynaning yonida uzoq tara...dim./Qizaloqning sochlari tara...di.
5. Raqqosa qiz beza...ibdi./Xonamiz tabiiy gullar bilan beza...ibdi.

5. Berilgan gaplarga “Ha” yoki “Yo‘q” deb javob bering.

1. Jamshid uzr so‘radi.
2. Anvar g‘azabini do‘stidan yashirdi.
3. Islom aka bolalarni tanqid qildi.
4. Boshqa bolalar ham muloyim gaplardan foydalandilar.
5. Muammoni gaplashmasdan hal qilish mumkin.

6. Yozing.

Namuna: *1. Jamshid tepgan to‘p **Anvarning** yuziga tegdi.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *so‘z, Anvarning, bir nechta, janjallashdi, uzr, qanday.*

1. Jamshid tepgan to‘p ... yuziga tegdi.
2. Ular avval ... bilan, so‘ng musht bilan ...
3. Islom aka ularga ... gapirishni o‘rgatdi.
4. Jamshid va Anvar ... so‘rashdi.
5. Islom aka do‘stona muloqot uchun ... misollar keltirdi.

7. Do‘stona gaplarni davom ettiring. Gapiring.

1. Kechirasan, men...
2. Mening dilim og‘ridi, lekin...
3. Agar seni ranjitgan bo‘lsam, ...

Do‘stingiz biror-bir sport mashg‘ulotida sizga qo‘pol gap aytdi. Siz nima qilasiz? Shu vaziyat aks etgan 6–8 ta gapdan iborat matn tuzing.

OSMONDAGI OCHIQ YO‘L

1. O‘qing.



“O‘zbekiston havo yo‘llari” O‘zbekiston Respublikasining milliy aviakompaniyasi bo‘lib, u 1992-yil 28-yanvarda tashkil etilgan. Uning asosiy aviatsiya markazi esa Islom Karimov nomidagi xalqaro aeroportdir. Aviakompaniya mahalliy va xalqaro yo‘nalishlarda muntazam aviaqatnovlarni amalga oshiradi. Bugungi kunda “O‘zbekiston havo yo‘llari” dunyoning turli nuqtalariga to‘g‘ridan to‘g‘ri reyslarni amalga oshiradi. Xususan, Moskva, Istanbul, London, Frankfurt, Dubay, Dehli, Pekin, Seul kabi shaharlar bilan aviareyslar mavjud. “O‘zbekiston havo yo‘llari” nafaqat yo‘lovchi tashish bilan, balki yuk tashish, charter reyslar, aviatexnika ta’miri, aviatsiya o‘quv markazlari orqali malaka oshirish kabi xizmatlarni ham ko‘rsatadi. Aviakompaniya o‘zining ishonchliligi, parvoz xavfsizligi, sifatli xizmat ko‘rsatishi va xalqaro standartlarga mos faoliyati bilan tanilgan. Har yili millionlab xorijiy va mahalliy yo‘lovchilar “O‘zbekiston havo yo‘llari” xizmatlaridan foydalanadilar. “O‘zbekiston havo yo‘llari” dunyodagi eng xavfsiz aviakompaniyalardan biri hisoblanadi.

2. Savollarga yozma javob bering.

1. “O‘zbekiston havo yo‘llari” aviakompaniyasi qachon tashkil etilgan?
2. Aviakompaniya qayerlarga aviaqatnovlarni yo‘lga qo‘ygan?
3. “O‘zbekiston havo yo‘llari” qaysi xizmat turlarini ko‘rsatadi?
4. Aviakompaniya qaysi shaharlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri reyslarni amalga oshiradi?
5. “O‘zbekiston havo yo‘llari” qanday jihatlari bilan e’tirof etilgan?

3. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Nima sababdan “O‘zbekiston havo yo‘llari” dunyodagi eng xavfsiz aviakompaniyalardan hisoblanadi?
2. “O‘zbekiston havo yo‘llari” nafaqat yo‘lovchi tashish, balki boshqa xizmat turlarini ham ko‘rsatadi. Sizningcha, bu xizmatlarning aviakompaniya imijiga qanday ta’siri bor?

amalga oshirmoq
yo‘nalish
to‘g‘ridan to‘g‘ri
malaka oshirish
parvoz

4. Fikrlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini ayting.

№	FIKR	to‘g‘ri ✓	noto‘g‘ri ✗
1.	“O‘zbekiston havo yo‘llari” aviakompaniyasi 27 yil oldin tashkil etilgan.	***	***
2.	Aviakompaniyaning bir nechta asosiy markazlari bor.	***	***
3.	Kompaniya dunyoning yirik shaharlariga qatnovlarni amalga oshiradi.	***	***
4.	Aviakompaniya yuk tashish va charter reys xizmatlarini ham ko‘rsatadi.	***	***
5.	“O‘zbekiston havo yo‘llari” faqat mahalliy yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatadi.	***	***

Belgining ortiq yoki kamligini ifodalash uchun sifat nutqda darajalangan holda qo‘llanadi: ***katta – kattaroq – eng katta.***

Sifatlarning oddiy, qiyosiy va orttirma darajalari mavjud.

5. Yozing.

Namuna: *1. **Keng, yorug‘** va **shinam** xonalarda darslar boshlandi.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *mard, keng, tinch, yap-yangi, yorug‘, jasur, osuda, shinam, katta.*

1. ..., ... va .... xonalarda darslar boshlandi.
2. U ... va ... lashkarboshi.
3. Bugundan barchangiz ... hayotga qadam qo‘yasiz.
4. ... va ... shaharda yana shovqin boshlandi.
5. Komila ... ko‘ylagini kiyib chiqdi.

6. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Sizningcha, xalqaro aviareyslarni ko‘paytirish O‘zbekiston uchun qanday foyda keltiradi?
2. Bugungi kunda aviareyslarning ekologiyaga qanday zarari bor?
3. Sun’iy idrokdan aeroportlarda qanday maqsadda foydalaniladi?
4. Bugungi kunda aviatsiya faqat yo‘lovchi tashish vositasimi?

Charter reys – muntazam aviaqatnov jadvalidan tashqari, sayyohlik agentliklari yoki boshqa tashkilotlar tomonidan buyurtma qilingan havo reysi.

7. Guruhda ishlash.

Samolyotni eng yaxshi ixtirolardan deyish mumkinmi?

1. Ha, chunki...
2. Yo‘q, chunki...

Havo transporti	
Ijobiy jihatlari	**Salbiy jihatlari**
Tez harakatlanish	CO_2 chiqindilari
***	***

TEMUR KO‘RAGONIY SIRLARI

1. Tinglang.



16

2. Audiomatn asosida “Ha” yoki “Yo‘q” deb javob bering.

1. Laylo tayoqni ushlaganda devordagi suratlar jonlandi.
2. Jasur kutubxonani ko‘rib qo‘rqib ketdi.
3. Klavixo Temurga sovg‘a olib kelgan edi.
4. Hikoya oxirida Jasur tarix kitobini yaxshi ko‘rib qoladi.

yetakchi
ta’sirlantirmoq
o‘tmish
jonlanmoq

3. Audiomatn asosida gaplarni to‘ldiring.

1. Jasur va Laylo ... sayohatga bordilar.
2. Sirli xona ichida ... va ... bor edi.
3. Temur dedi: “Men she’r yozmayman, lekin uni ... bilan his qilaman”.
4. Klavixo yozdi: “Men bunday ... boshqa joyda ko‘rmaganman”.
5. Otaturk dedi: “Temur – mening ... yetakchim”.

4. Guruhda ishlash. Savollarga javob yozing.

1. Amir Temur haqida qanday yangi ma’lumotni bilib oldingiz?
2. Tarixiy shaxslar haqida qaysi ma’lumotlar sizni eng ko‘p ta’sirlantirdi?
3. Sizningcha, tarixni o‘rganish uchun bunday sayohatlar foydalimi?

Belgining me’yordan ortiq ekanini ifodalash uchun sifatning orttirma darajasi qo‘llanadi. ***Butun, katta, to‘g‘ri, chiroyli, sariq, oq, toza, bo‘sh, tiniq, yashil, ko‘k, qizil*** kabi oddiy darajadagi sifatlar ***bus-butun, kap-katta, to‘ppa-to‘g‘ri, chip-chiroyli, sap-sariq, oppoq, top-toza, bo‘m-bo‘sh, tip-tiniq, yam-yashil, ko‘m-ko‘k, qip-qizil*** shaklida orttirma darajani ifodalaydi.

5. Yozing.

Namuna: *1. Buloqning suvi **tip-tiniq**!*

1. Buloqning suvi tiniq!
2. Tovuq sariq jo‘jalarni sayrga olib chiqdi.
3. O‘g‘lingiz katta yigit bo‘lib qolibdi.
4. Atrof oq qor bilan qoplangan.
5. Men qizil anorni shartta uzib oldim.

6. Blits savollarga qisqa javob bering.

1. Kimlar Go‘ri Amir maqbarasiga sayohat qildi?
2. Tayoqni kim ushladi?
3. Navoiy kim edi?
4. Klavixo kim haqida yozgan?
5. Jasur va Laylo nimani anglab yetdi?

7. Audiomatn asosida gaplarni tartib bilan yozing.

___ a) Sirli xonaga kirishdi va tayoqni ushlashdi.
_1_ b) Jasur va Laylo Go‘ri Amirga borishdi.
___ d) Klavixo kelib, mehmondo‘stlik haqida yozdi.
___ e) Amir Temur donishmandlar bilan gaplashdi.
___ f) Otaturk Temur haqida fikr bildirdi.

“Agar men o‘tmishga tushib qolsam…” mavzusida 6–8 gapdan iborat matn tuzing.

1. Qaysi davrni tanlardingiz? (Masalan: Amir Temur, Ibn Sino, Navoiy yashagan yoki boshqa davr)
2. Kim bilan uchrashardingiz?
3. O‘sha davrga oid qanday ma’lumotlarni bilib olgan bo‘lardingiz?

TANQID EMAS, TAKLIF

1. O‘qing.



Bir kuni Lola yangi yozgan she’rlarini sinfdoshlariga o‘qib berdi. U sayohatdan ilhomlanib, tabiat manzaralari haqida she’r yozgandi. Ba’zi do‘stlari uni maqtashdi. Ammo dugonasi Nargiza uni tanqid qildi:

– Bu she’r juda oddiy chiqibdi. Boshqacharoq yozsang bo‘lardi, – deb izoh berdi. Bu gap Lolaning kayfiyatiga yomon ta’sir qildi. U o‘zicha o‘yladi: “Nima uchun dugonam shunchaki tanqid qildi? Qanday yaxshilash mumkinligini aytsa bo‘lardi-ku”. So‘ngra Nargizaga shunday dedi:

– Nargiza, bilaman, she’rim senga uncha yoqmadi. Lekin uni yaxshiroq qilish uchun menga maslahat ber. Nargiza javob berdi:

– Masalan, she’ringda tasvirlardan, metaforalardan ko‘proq foydalan, misralarni biroz qisqartir, shunda she’ring juda mazmunli chiqib, o‘qish ham oson bo‘ladi.

Lola bu maslahatlarni qabul qildi. Keyingi she’rlarida Nargiza aytgan takliflarni hisobga oldi, o‘z ustida ko‘proq ishladi. She’rlari yanada mazmunli va ifodali chiqdi.

Biror kishining ishini tanqid qilish o‘rniga, qanday yaxshilash mumkinligini taklif qilish do‘stlikni mustahkamlaydi va muloqotni yanada foydali qiladi.

2. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Lola nima uchun she’rlarini sinfdoshlariga o‘qib berdi?
2. Nargizaning she’rga munosabati qanday bo‘ldi?
3. Nargiza she’rni qanday yaxshilashni taklif qildi?
4. Siz Lolaga qanday maslahat berasiz?

tanqid
izoh
muloqot

3. Yozing.

Namuna: *1.* Lola yangi yozgan *she’rlarini* sinfdoshlariga o‘qib berdi. *hikoyalarini/she’rlarini/ertaklarini*

1. Lola yangi yozgan … sinfdoshlariga o‘qib berdi. *hikoyalarini/she’rlarini/ertaklarini*
2. Nargiza uni tanqid qildi, ammo … bermadi. *taklif/tanqid/misol*
3. Lola dugonasining maslahatlarni … . *rad etdi/qabul qildi/e’tiborga olmadi.*
4. Nargiza she’rni yaxshilash uchun ... foydalanishni maslahat berdi. *metaforalardan/tashxislardan/maqollardan*
5. Biror kishining ishini tanqid qilish o‘rniga, qanday yaxshilash mumkinligini taklif qilish do‘stlikni … . *uzadi/barbod qiladi/mustahkamlaydi*

Belgining me’yordan kam ekanini bildiruvchi shakl sifatning ozaytirma darajasi hisoblanadi. Ozaytirma daraja sifatning oddiy darajasi oldiga ***sal, biroz*** kabi so‘zlarni qo‘shish orqali hosil qilinadi: *sal katta, biroz sovuq.*
Qizil, sariq, oq, ko‘k, qora kabi rang sifatlari ***qizg‘ish, sarg‘ish, oqish, ko‘kish yoki ko‘kimtir, qoramtir*** shaklida ozaytirma darajani ifodalaydi.

4. Guruhda ishlash. Yozing.

So‘z	Ma’nosi yaqin	Gap tuzing
tanqid	tavsiya	***
xafa bo‘lish	e’tiroz	***
taklif	fikr	***
ranjish	yaxshilash	***
maslahat	takomillashtirish	***

5. Yozing.

Namuna: *shirin – sal shirin, biroz shirin; ko‘k – ko‘kish, ko‘kimtir.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *shirin, ko‘k, issiq, katta, qora, keng, qizil, sariq, sho‘x, murakkab, qimmat.*

6. Fikrlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini ayting.

№	FIKR	to‘g‘ri ✓	noto‘g‘ri ✗
1.	Lola she’rni barcha sinfdoshlariga o‘qib berdi.	***	***
2.	Nargiza she’rni maqtadi.	***	***
3.	Lola Nargizadan taklif olishni xohladi.	***	***
4.	Nargiza she’rni yaxshilash bo‘yicha maslahat berdi.	***	***
5.	Ular she’rni yaxshilash ustida birga ishlashmadi.	***	***

7. Matn asosida gaplarni tartib bilan yozing.

___ a) Nargiza Lolaning she’rini tanqid qildi.
___ b) Lola yangi she’rlar yozishni boshladi.
_1_ d) Lola sinfdoshlariga she’rlarini o‘qib berdi.
___ e) Nargiza she’rni yaxshilash bo‘yicha taklif berdi.
___ f) Lola Nargizadan she’rini yaxshilash bo‘yicha taklif so‘radi.

Quyidagi mavzuda 1 daqiqalik og‘zaki nutq tayyorlang:
“Do‘stlarimizni qanday qilib hurmat doirasidan chiqmagan holda tanqid qilishimiz mumkin? Tanqid foydali bo‘lishi uchun nimalarga e’tibor berish kerak?”
3 ta misol, 2 ta taklif, 1 ta yakuniy xulosa keltiring.

MULOQOTNING 10 TA OLTIN QOIDASI

1. Tinglang.



17

2. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Ijtimoiy tarmoqlarda biron fikr bildirishdan oldin nima qilish kerak?
2. Kimlarga hurmat bilan muomala qilish lozim?
3. Nima uchun shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish muhim?

3. Guruhda ishlash.

Savollar	Javoblaringiz
Hurmat so‘zining ma’nosi?	
Anonim nima degani?	
Bahslashish qanday jarayon?	
Madaniyatli bo‘lish nima degani?	

bahslashmoq
oshkor qilmoq
ishonch
muomala

4. Mosini tanlang.

1. Hurmat bilan muomala qil.	A. Fikrlar turlicha bo‘lishi mumkin. Ammo bu dushmanlik degani emas. “Men boshqacha o‘ylayman” deb fikrini aytish bahs odobidandir.
2. Bahslashish – urishish emas.	B. Kim bilan (sinfdosh, o‘qituvchi yoki notanish kishi) gaplashayotganingdan qat’i nazar, har doim odobli, muloyim va madaniyatli bo‘l.
3. Shaxsiy ma’lumotlarni ruxsatsiz oshkor qilma.	D. Yolg‘on yoki noto‘g‘ri ma’lumot tarqatma. Iltimos, avval tekshirib ko‘r, ayniqsa, post yoki izoh yozayotgan bo‘lsang.
4. Ishonchli manbalardan foydalan.	E. Do‘stlaring yoki boshqalarning ruxsatisiz ularning suratini, videolari, shaxsiy hayoti haqidagi ma’lumotlarni tarqatma.

5. Yozing.

Namuna: *1. Kirish yo‘lagiga **qip-qizil** gilamlar to‘shalgan.*

1. Kirish yo‘lagiga ... gilamlar to‘shalgan.	a) aqlli
2. ... o‘g‘lim ukalarini himoya qiladi.	b) ko‘m-ko‘k
3. ... odamlar kamroq xato qiladilar.	d) qip-qizil
4. Tumshug‘i bilan ikki ko‘zi	e) eng katta
5. Bu qishloqda ... ariq ham yo‘q.	f) qop-qora
6. ... osmonda turnalar ucha boshladi.	g) kattaroq

6. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Sizningcha, o‘zaro hurmat nima uchun muhim?
2. Ijtimoiy tarmoqlarda anonim bo‘lish foydalimi yoki zararli? Nima uchun?
3. Tanqid qanday hollarda foydali bo‘lishi mumkin?
4. Haqorat qilish haqida qanday fikrdasiz?
5. Onlayn muloqotda o‘zingizni qanday tutasiz?

10 ta gapdan iborat matn tuzing. Unda ijtimoiy tarmoqdagi muloqotning 5 ta ijobiy va 5 ta salbiy jihatini yozing.

Adabiy o‘qish.



G‘AFUR G‘ULOM

SHUM BOLA

(qissadan parcha)

...Bu qishloqda Sariboy bo‘lis degan katta yer egasi bor ekan. Uning ming tanoblab hisoblangan olmazoriga epchil qo‘lli xizmatkor doim zarur bo‘lib turar ekan. Ayniqsa, hozir olmalar pishgan vaqti bo‘lgani uchun menga o‘xshash oshtomog‘iga yuradigan arzonqo‘l kishilarni eshigidan quvlamas ekan. Bu kecha uning xizmatkorlari yotadigan qo‘shxonada yotishga qaror berdim. Uzumchi menga yo‘lboshlovchi bo‘lib ko‘rsatib qo‘ydi. Boyning qari-qartang aralash yigirma choq xizmatkorlari kechki juvari go‘ja ustida edilar.

– Assalomu alaykum, – deb kirib bordim. Juda mehribonlik bilan o‘z o‘rtalariga qabul qildilar. Arz-dodimni ularga aytdim. Ulardan bitta keksarog‘i:

– Asil umring Sariboyda bekorga o‘tib ketadi, uka, yosh ekansan. Bironta boshqa kasbning payidan bo‘lganingda yaxshi bo‘lar edi. Ha, mayli, sal o‘zingni tutib olguningcha o‘n-o‘n besh kun ishlab tur. Keyin yo‘lingni topib olarsan... – degan dudmal maslahat berdi. Bitta bo‘sh sopol tovoqqa bir cho‘mich go‘ja quyib berdilar. Ikki burda jaydari non bilan shu oshni maza qilib ichib oldim.

Yotishda ham shular o‘rtasida qoldim. Yaxshi olmalarni joylab uzoq shaharlarga yuboradigan yashiklardan ikkitasini yonma-yon karavot qildim. Boshimga olma o‘raydigan yog‘och qirindisidan yostiq qilib rohat-rohat uyquga ketdim.

Bu uyqu eshon xonaqosiga qaraganda juda shohona edi. Hech bo‘lmasa, bu yerda tong azonda avrodchi so‘filarning qichqirib g‘o‘ldiraydigan har xil duolari kishini uyqudan bezovta qilmas edi. Erta bilan bo‘lisning oldiga bordim. Bir qancha silkillashishlardan keyin boy menga xizmat haqi uchun oyiga xom-pishiq aralash, ona sutidan halol ikki pud o‘n yetti qadoqdan olma beradigan bo‘ldi. Shu paytda boyning avzoyini ko‘rib mening ham haromzoda tomirim urib qoldi. “Mendan nima ketdi, bir shart qo‘yib qo‘yay, bir kun boshimga

biror ish tushib qolsa, shu bahona qutulib ketarman” degan xayol bilan: “Boybuva, – dedim, – endi-ku, savdoyimiz pishdi. Shariat yuzasidan mol sotganda, hamma aybini aytib sotsa halol bo‘lar ekan. Mening ham bir aybim bor, shuni boshdan aytib qo‘yganim yaxshi”.

– Xo‘sh, nima aybing bor? Siyg‘oqmisan, tutqanoqmisan?

– Yo‘q, aybim bu emas, aybim shuki, yoshligimdan odat bo‘lib qolgan, har zamon-har zamonda beixtiyor yolg‘on gapirib qo‘yaman, shunda koyimasangiz bas. Xizmat haqi, mayli, siz aytgancha bo‘lsin.

– Obbo bachchag‘ar-ey, quv ko‘rinasan-a, ha, mayli-mayli. Lekin ko‘p yolg‘onlamagin!

Qiladigan ishlarim uncha ham qiyin emas. Olmalarga tirgovich qo‘yaman, to‘kilgan olmalarni terib, qoqi qilaman. Bog‘ qo‘riyman. Ba’zida xo‘jayinga pul zarur bo‘lib qolsa, xom-xatala olmalarni aravaga ortib Darvoza, Sariog‘och atroflardagi bug‘doykor qishloqlarga olib borib, sotib kelaman. Molga to‘g‘rab bersa, mol yemaydigan olmalarni cho‘lda bug‘doy o‘rib turgan dehqonlarga bir qadog‘ini ikki qadoqdan bug‘doyga alishaman.

Sariboy bo‘lis haligacha xo‘jayinlarimning ichida eng xudo urgan badbaxti, ziqnasi edi.

Uning oldiga bir ish bilan borsangiz, bo‘lar-bo‘lmas yerda “innaykeyin” deb so‘raydigan odati bor edi. Ana shu “innaykeyin”ga javob topib bera olmasangiz, onangizni Uchqo‘rg‘onda ko‘rasiz. Qamchi bilan yelkaga tushirib qolguvchi edi. Chunonchi, borsangiz-da, “qandil olma pishibdi” deb aytsangiz, u sizga “innaykeyin” deb savol beradi. Siz albatta “Shu pishgan olmani terish kerak”, deysiz. Yana xudo qarg‘agan “innaykeyin” deydi. Xayr, “sotish kerak”, deysiz. Yana “innaykeyin” deb so‘rab qoladi. Vaholanki, shu yerda gapning o‘zi tamom. “Innaykeyin” degan savolga hech hojat yo‘q. Ana shunaqa o‘rinda javob topib bera olmaysiz-da, boydan kaltak yeysiz.

Sariboy Chuvalachidagi Yusuf kontor bilan qimor o‘ynab, uning mevazorlari, ichki-tashqi qo‘rg‘onchasi, butun dov-dastgohining hammasini yutib olibdi. Yusuf kontorning bog‘i, ayniqsa, uning bahavo shiyponi bizning xo‘jayinga ma’qul tushib qolib, darrov o‘sha yerdan bitta do‘ndiqqina qirg‘iz xotinni olib, bir borgancha o‘n-o‘n besh kunlab Kalasga qaytmaydigan bo‘lib qoldi. Olmalar pishib to‘kilib ketayotibdi, xo‘jayindan ruxsatsiz terishga hech kim botina olmaydi. Otlarga yem-xashak yo‘q. Xizmatkorlar och, lekin boyning oldiga borishga hech kimning yuragi dov bermaydi. Har gapdan keyin beriladigan “innaykeyin” savolidan hamma qo‘rqadi.

Bir kun kechqurun xizmatkorlar bilan o‘tirib qanday qilib boyni o‘z joyiga chaqirib kelish to‘g‘risida maslahatlashdik, ham kim borishini o‘ylashdik, nima deb chaqirib kelishni fikrlashdik. Toinki “innaykeyin” dardidan keyin boyning o‘zining tinkasi quriydigan bo‘lsin.

Guruhda ishlash.

Asardan berilgan parchani tahlil qiling. Uyingizda ushbu asar asosida suratga olingan filmni tomosha qiling.

HAR BIR ODAM – KASHF ETILMAGAN SIR

1. O‘qing.

Men Diyorbekman. 8-sinfda o‘qiyman. Bir kuni sinfimizga yangi o‘quvchi keldi. Ismi Jasur. U boshqa viloyatdan ko‘chib kelgan ekan. Gapirish ohangi biroz boshqacha edi, kiyinishi ham o‘zgacha. Ba’zi sinfdoshlarim: “Qanaqa gapiryapsan? Qaranglar, gapini tushunish qiyin!”, deb uni mazax qila boshladi.

Menga esa Jasur biz kabi oddiy bola bo‘lib tuyuldi. Oradan bir kun o‘tdi. Men darsdan chiqayotib, daftarimni unutib qoldiribman. Orqaga qaytsam, Jasur darsliklarini yig‘ishtirib turgan ekan. “Daftaringni olib qo‘ydim”, dedi. Men rahmat aytdim va shu kundan boshlab do‘stlashib qoldik.

Keyin bilsam, Jasur juda aqlli bola ekan. Fizikani zo‘r tushunar, robot yasashni ham bilar ekan. Avval masxara qilgan sinfdoshlarim ham endi undan yordam so‘rardi. O‘shanda tushundimki, odamni tashqi ko‘rinishi yoki gapirishiga qarab baholamaslik kerak. Har bir insonning qandaydir ustun tomoni bo‘ladi.



2. Testlarni yeching.

1. Jasur sinfda darsliklarini ... edi.
A) yig‘ishtirayotgan
B) yig‘ishtirilgan
D) yig‘ishtirmoq

2. O‘quvchilar uni ... qilishdi, bu noto‘g‘ri edi.
A) yordam
B) masxara
D) do‘st

3. Diyorbek Jasurni taniganidan keyin uning ... ekanini bildi.
A) qo‘rqoq
B) aqlli
D) tartibli

4. Diyorbek daftarini unutganini ... bilib qoldi.
A) sinfdan chiqqach
B) dars boshlanganida
D) ikki kundan so‘ng

3. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Diyorbek daftarini qayerda unutib qoldirdi?
2. Siz Jasurning boshqa bolalardan ajralib turishiga qanday qaraysiz?
3. Nima uchun odamlarni tashqi ko‘rinishiga qarab baholamaslik kerak?
4. Do‘stlik nima?
5. Siz sinfdoshingizga yordam berganmisiz? Qanday?

ko‘chib kelmoq
gapirish ohangi
tashqi ko‘rinish
xislat
farq qilmoq

Fe’llarning buyruq mayli

birlik					***ko‘plik***				
Shaxs	bormoq+	**+**	**–**	**?**	**Shaxs**	bormoq+	**+**	**–**	**?**
~~*Men*~~		-	-	-	~~*Biz*~~		-	-	-
Sen		*-/ -gin*	*-ma/ -magin*	-	*Siz*		*-(i)ng*	*-mang*	-
U		*-sin*	*-masin*	*-sinmi?*	*Ular*		*-sinlar*	*-masinlar*	*-sinlarmi?*

4. Yozing. Quyidagi fe’llarni buyruq mayli shaklida qo‘llab, 5 ta gap tuzing.

Foydalanish uchun so‘zlar: *tinglamoq, o‘qimoq, takrorlamoq, yozmoq, gapirmoq, o‘ylamoq.*

5. Guruhda ishlash. Yozing.

1. Mazax qilish nima degani?
2. Sheva nima?
3. Aqlli deganda nimani tushunasiz?
4. Xislat so‘zining ma’nosi qanday?

6. Yozing.

1. “Uni sinfga qo‘shmaslik kerak edi”.
2. “Jasurning fikrlashi boshqacha, bu meni ilhomlantiradi”.
3. “Bizdan boshqacha gapirsa, demak, u bizga mos emas”.
4. “U boshqacha ohangda gapirsa ham, yaxshi inson bo‘lib qolaveradi”.
5. “Men uni tushunmayapman, u bilan do‘stlasha olmayman”.
6. “Men har xil insonlar bilan tanishishni yoqtiraman”.
7. “Turli odamlardan turli narsalarni bilib olish qiziqarli”.
8. “Uning fikrlashi biznikidan farq qiladi, shu sababli u bilan gaplashish qiziq emas”.

✓ **Ijobiy munosabat**	✗ **Salbiy munosabat**
“Jasurning fikrlashi boshqacha, bu meni ilhomlantiradi”.	*“Uni sinfga* qo‘shmaslik *kerak edi”.*
***	***

Do‘stlashmoq, aqlli, yordam, mazax, takrorlash deganda xayolingizga kelgan 5 ta so‘zni yozing va izohlang.

1. Do‘stlashmoq – birga o‘ynash, ..., ..., ..., ...

DO‘STLIK SINOVI

1. Tinglang.

18



2. Fikrlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini ayting.

№	FIKR	to‘g‘ri ✓	noto‘g‘ri ✗
1.	Diyor va Azizbek bir jamoada ishtirok etdi.	***	***
2.	Diyor adabiyot faniga qiziqadi.	***	***
3.	Final bahsidagi savollar faqat tarixga oid edi.	***	***
4.	Azizbekning jamoasi finalda g‘olib bo‘ldi.	***	***
5.	Diyor oxirgi savolga birinchi javob berdi.	***	***

3. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Musobaqada kimlar qatnashdi?
2. Diyor qaysi fanlardan yaxshi o‘qir edi?
3. Azizbek qaysi savollar javobini yaxshi bilar edi?
4. Final bosqichida nima sodir bo‘ldi?
5. Do‘stlar finaldan keyin qanday munosabatda bo‘ldilar?

4. Guruhda ishlash.

So‘zlarning ma’nosini tushuntiring.

- Intellektual musobaqa
- Mantiqiy savollar
- Raqib
- Faxr va hurmat
- Durang

faxr
bosqich
murakkab
suyanmoq

5. Yozing.

Namuna: *1. bormoq (siz). Siz boring.*

1) bormoq (siz); 2) o‘qimoq (sen); 3) aytmoq (ular); 4) kelmoq (u); 5) gapirmaslik (sen); 6) yozmoq (ular); 7) so‘ramoq (u); 8) tinglamaslik (siz); 9) suyanmaslik (siz); 10) chekmaslik (siz).

6. Yozing.

G‘irromlik, yutuq, do‘stlik, g‘alaba qozondi, apellyatsiya so‘zlarini izohlang.

Namuna: *Yutuq – ish, tanlov, olimpiada kabi faoliyatlarda erishiladigan muvaffaqiyat.*

7. Quyidagi so‘zlarning sinonim yoki antonimini ayting.

- g‘alaba
- do‘stlik
- murakkab
- raqib

Ota-onangiz yoki do‘stingizdan intervyu oling.

Savol: “Sizning do‘stlikda uchragan eng katta sinovingiz nima bo‘lgan?”

Intervyuni yozib (audio yoki video shaklida) oling va sinfda qisqacha taqdimot qiling.

INKLYUZIV TA’LIM

1. O‘qing.

O‘zbekistonda “Inklyuziv ta’lim” konsepsiyasi qabul qilingan. Jismoniy imkoniyati cheklangan va sog‘lom bolalar bir xil ta’lim olish huquqiga ega. Hozir maktablarda ko‘plab imkoniyati cheklangan bolalar sog‘lom tengdoshlari bilan birga o‘qiydi. Inklyuziv ta’lim nafaqat ularning rivojlanishiga, balki bizning ham bunday do‘stlarimizga nisbatan bag‘ri keng, sabr-toqatli bo‘lib ulg‘ayishimizga yordam beradi. Agar sinfimizda inklyuziv muhit yaratsak, ya’ni har bir o‘quvchi o‘zini muhim his qilsa, biz kuchliroq jamiyat quramiz. Chunki inson jamiyatda qabul qilinishini his etsa yanada kuchliroq bo‘ladi. Shuning uchun sinfdoshingiz sizdan farq qilsa ham, uni ajratmang. U bilan birga bo‘lishga harakat qiling. Balki, u sizga boshqa hech kim bera olmaydigan do‘stlikni hadya qilar. Chunki do‘stlik ko‘z bilan emas, qalb bilan ko‘rish va quloq bilan emas, ko‘ngil bilan eshitishdir.



2. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Inklyuziv ta’limning jamiyatdagi o‘rni qanday?
2. Nega sinfdoshlarni ajratmaslik kerak?
3. Matnda sabr-toqatning o‘rni qanday ta’riflangan?
4. Sizningcha, “qalb bilan eshitish” qanday bo‘ladi?

3. Guruhda ishlash. Tushunchalarni izohlang.

Tushunchalar	Ma’nosi
inklyuziv ta’lim	***
imkoniyati cheklangan bolalar	***
qalb bilan ko‘rish	***
sabr-toqat	***

4. Lug‘at bilan ishlash.

So‘z	Sinonim	Antonim
imkoniyat	***	***
do‘stlik	***	***
sabr-toqat	***	***
muhim	***	***
farq	***	***

5. Anagramma. Yozing.

Namuna: *1. Sog‘ligingiz juda yomon. Ishga bormang.*

1. yomon/Sog‘ligingiz/Ishga/bormang/juda
2. yoping/sekinroq/Eshikni
3. xafa qilmang/Ota-onangizni/hech qachon
4. mehribon/Jonivorlarga/bo‘ling
5. bo‘lsin/Bayramingiz/muborak
6. sen/Yaxshisi,/o‘rgangin/tilini/o‘zbek

ulg‘aymoq
his etmoq
imkoniyati cheklangan
qabul qilmoq

6. Quyidagi so‘zlar qaysi so‘z turkumiga tegishli ekanini yozing.

inklyuziv	sabr-toqat	yurak	qabul qilmoq	kengayish
***	***	ot	***	***

“Men sinfimda inklyuziv muhit yaratish uchun nima qilaman?” mavzusida 80–90 ta so‘zli insho yozing.

IJTIMOIY HAQIQAT

1. O‘qing.



Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Ular nafaqat odamlar bilan muloqotni osonlashtiradi, balki ta’lim va kundalik ishlarimizda ham qo‘l keladi.

Ijtimoiy tarmoqlarda biz rasm va videolarni boshqalarga ulashamiz, o‘z fikrlarimizni ifodalaymiz va yangi do‘stlar orttiramiz. Tarmoqlar yordamida yangiliklarni tezda bilib olamiz hamda dunyo ahli bilan bir-birimizni tushunishga yordam beradigan g‘oyalarni almashamiz.

Lekin ijtimoiy tarmoqlar har doim ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmaydi. Ba’zida ijtimoiy tarmoqlarda yolg‘on ma’lumotlar tarqatilishi mumkin, bu esa odamlarda noaniq fikrlar paydo bo‘lishiga olib keladi.

Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarni ezgu maqsadlar uchun ham ishlatish mumkin. Masalan, odamlar ijtimoiy tarmoqlar orqali xayriya ishlarini qo‘llab-quvvatlashadi, kerakli yordamni olishadi yoki ekologik muammolar haqida xabar berishadi.

Umuman olganda, ijtimoiy tarmoqlar bizga katta imkoniyatlar yaratadi. Agar ijtimoiy tarmoqlardan ehtiyotkorlik bilan foydalanib, o‘zimizni va boshqalarni hurmat qilsak hamda vaqtni to‘g‘ri taqsimlasak, ular bizga ijobiy xizmat qiladi.

2. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning qaysi sohalarida yordam beradi?
2. Ijtimoiy tarmoqlarda nimalarni ulashish mumkin?
3. Ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta’sirlarini sanang.
4. Nima uchun yolg‘on ma’lumotlar tarqatilishi zararli?

qo‘l kelmoq
ulashmoq
ijtimoiy tarmoq
xayriya
qo‘llab-quvvatlamoq

3. Tushunchalarni izohlang.

ijtimoiy tarmoqlar	*Telegram, Instagram, Facebook…*
yolg‘on ma’lumotlar	***
xayriya ishlari	***
ehtiyotkorlik bilan ishlatish	***
imkoniyatlar yaratadi	***

4. Guruhda ishlash.

Ijtimoiy tarmoqlar	
Ijobiy tomonlari	**Salbiy tomonlari**
***	***

5. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘yib yozing.

Namuna: *1. Akangga ayt, uyga barvaqt kelsin.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *tegmaslik, aytmoq, osilmaslik, keltirmoq, qaytmoq.*

1. Akangga ... , uyga barvaqt kelsin.
2. Daraxtga ... , shoxlari sinadi.
3. Kitoblarimga ... .
4. Xonangni tartibga ... .
5. Ortingga ... . Senda zarur ishim bor.

Buyruq mayli shakllari orqali sof buyruq, buyruq-iltimos, undash kabi ma’nolar ifodalanishi mumkin. Bular orasidan buyruq ma’nosi eng faol hisoblanadi.
1. Bugun kechgacha ish yakunlansin!
2. Kompyuterimga tegma!

6. Berilgan gaplarga “Ha” yoki “Yo‘q” deb javob bering.

1. Ijtimoiy tarmoqlar faqat odamlar bilan suhbatlashish uchun kerak.
2. Ijtimoiy tarmoqlarda yolg‘on ma’lumotlar ham tarqatilishi mumkin.
3. Ijtimoiy tarmoqlar orqali ekologik muammolar haqida xabar berish mumkin.
4. Ijtimoiy tarmoqlarga ko‘p vaqt sarflash foydalidir.
5. Ijtimoiy tarmoqlarda o‘z fikrlaringizni ifodalash imkoni yo‘q.

7. Yozing.

Matndan 4 ta yangi so‘zni daftaringizga yozing, gaplar tuzing.

Matndagi yangi so‘zlarni lug‘atingizga yozing, ularning ma’nosi va qaysi so‘z turkumiga oidligini belgilang. Har bir so‘z ishtirokida 1 tadan gap tuzing.

So‘z	Ma’nosi	So‘z turkumi	Yangi gap
ajralmas	bir-biridan ajralmaydigan, doim birga bo‘lgan	sifat (sifatdosh)	Biz ajralmas do‘stlarmiz.
ijtimoiy	***	***	***
ehtiyotkorlik	***	***	***

TABIAT BILAN DO‘STLASHISH

1. Tinglang.



19

2. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Nega bolalar chiqindilarni yig‘ishtirdi?
2. Sanjar qanday fikr bildirdi?
3. Atrof-muhitni ifloslantirmaslik uchun nimalar qilish kerak?
4. Odatda sayohatlar sizda qanday taassurot qoldiradi?
5. Siz tabiatni himoya qilishni qanday tushunasiz?

sayohatga bormoq
o‘ynamoq
saboq bo‘lmoq

3. Yozing.

Namuna: *1. Bolalar tog‘ga **sayohatga** borishdi.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *ifloslantirmaslikka, chiqindilar, xaltalarga, sayohatga, yordam.*

1. Bolalar tog‘ga ... borishdi.
2. Atrofda ko‘p ... yotar edi.
3. Sanjar: “Bu yaxshi emas, biz tabiatga ... berishimiz kerak”, dedi.
4. Bolalar qo‘lqop kiyib, chiqindilarni ... solishdi.
5. Ular odamlarni atrof-muhitni ... o‘rgatmoqchi.

4. Dialog tuzing.

Masalan:
Aziz: – Bugun tog‘ga sayohatga bordik.
Barno: – Juda yaxshi! Taassurotlar qanday?
Aziz: – Odamlar atrof-muhitni chiqindilar bilan ifloslantiryapti.
Barno: – …
Aziz: – …
…

Buyruq mayli shakllari orqali sof buyruq, buyruq-iltimos, undash kabi ma’nolar ifodalanishi mumkin. Quyidagi gaplarda buyruq-iltimos, undash ma’nolari aks etgan:

1. Iltimos, shovqin qilmang!

2. Hamma hasharda qatnashsin.

5. Yozing.

Namuna: *1.O‘ng tomondagi tutqichlarni **ushlab turing**.*

1. O‘ng tomondagi tutqichlarni	a) yordam bergin
2. Muhim ishlarimga ulgurmayapman, menga	b) aralashib ketmasin
3. Tozalikka	d) ichgin
4. Mana bu qog‘ozlarga tegmang, ...	e) ***ushlab turing***
5. Platformaning chetida	f) rioya qiling
6. Sog‘lig‘ing uchun shu dorini	g) bosing
7. O‘zbek tilini tanlash uchun “1” ni	h) turmang

6. Yozing.

So‘z	Ma’nosi	Yangi gap
sayohat	Bir joydan boshqa joyga safar qilish	Biz yozda tog‘ga sayohatga boramiz.
chiqindi	***	***
qo‘lqop	***	***

So‘z	Sinonim	Antonim
toza	sof, pok	iflos, kir
yordam	***	***
xursand	***	***

Matnda tasvirlangan voqealar asosida rasm chizing.

1. Tog‘da bolalar o‘ynayotgan holat.
2. Chiqindilarni yig‘ayotgan bolalar.
3. Bolalarning sayohatdan keyingi kayfiyati.
4. Tabiatni asrash haqida taqdimot tayyorlash.

TELEFONSIZ BIR KUN

1. Tinglang.

20



2. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Kimlar sayr qilishga chiqdi?
2. Bolalar telefonsiz kun o‘tkazishga qanday qaror qilishdi?
3. Jamshid daraxt tepasida nimani ko‘rdi?
4. Aziza qanday gulni topdi?
5. Kun oxirida telefonsiz bir kun taklifini kim berdi?

istamoq
hayot
o‘chirmoq
ushalmoq

3. Lug‘at bilan ishlash.

So‘z	Sinonim
musaffo	***
odat	***
tasvirlash	***
go‘zallik	***

4. Yozing.

Namuna: *1. Jamshid, Aziza va Nargiza maktabdan keyin **bog‘ga** chiqdi.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *o‘chirib, bog‘ga, qush uyasini, zavqlanishga, do‘stlik.*

1. Jamshid, Aziza va Nargiza maktabdan keyin ... chiqdi.
2. Ular telefonlarini ..., bog‘ga yo‘l olishdi.
3. Jamshid daraxtda ... ko‘rdi.
4. Ular suratga olish o‘rniga tabiatning go‘zalligidan... harakat qilishdi.
5. Nargiza dedi: “Bu kun bizga haqiqiy ... nima ekanligini ko‘rsatdi”.

5. Yozing.

Noaniq fe’lli gap	Buyruq maylidagi gap	Ma’nosi
1. Yaxshi kunlaringizga buyurmoq	Yaxshi kunlaringizga buyursin.	***
2. Tug‘ilgan kuning muborak bo‘lmoq	***	***
3. Qo‘lingiz dard ko‘rmaslik	***	***
4. Barcha orzularing ushalmoq	***	***
5. Eson-omon yetib olmoq	***	***
6. Omad yor bo‘lmoq	***	***

6. Guruhda ishlash.

1. Telefonsiz kunning foydasi haqida 3 ta dalil yozing.
2. Telefonsiz kun uchun 3 ta qoida tuzing.

Masalan, dars paytida telefonlar o‘chiriladi va hokazo.

7. Savollarga javob yozing.

1. Siz uchun telefonsiz kun qanday o‘tadi?
2. Nega kunni telefonsiz o‘tkazish qiyin?
3. Telefonsiz vaqt o‘tkazishning qanday foydasi bor?
4. Siz do‘stlaringiz bilan telefonsiz vaqtni qanday o‘tkazishni istaysiz?
5. Telefon hayotimizda qanday o‘rin tutadi deb o‘ylaysiz?

1. Telefoningizdan bir kun foydalanmaslikka harakat qiling.
2. O‘zingizda yuz bergan o‘zgarishlar haqida 4-5 ta gapdan iborat yozma hisobot tayyorlang.

MENING SEVIMLI USTOZIM

1. Tinglang.

21



2. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Ustozning ismi nima?
2. Ustoz qaysi fandan dars beradi?
3. Har dushanba kuni ustoz bolalarga qanday savol beradi?
4. Sardor uy vazifasini bajarishni unutganda ustozi unga nima dedi?
5. Ularning ustozi mavzularni qanday usulda o‘rgatadi?

usul
tarix
g‘amxo‘rlik
unutmoq

3. Fikrlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini ayting.

№	FIKR	to‘g‘ri ✓	noto‘g‘ri ✗
1.	Murod aka tarix fanidan dars beradi.	***	***
2.	Ustoz har doim darsni yaxshi kayfiyat bilan boshlaydi.	***	***
3.	Sardor uy vazifasini bajarishni unutganida Murod aka uni jazoladi.	***	***
4.	Ustoz fanni o‘yinlar yordamida o‘rgatadi.	***	***
5.	Murod aka faqat dars bermaydi, balki yaxshi inson bo‘lishni ham o‘rgatadi.	***	***

4. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Siz Murod akaga o‘xshagan ustoz bo‘lishni xohlaysizmi? Nega?
2. Darsda metodik o‘yinlar qanday yordam beradi deb o‘ylaysiz?
3. Sizning eng sevimli ustozingiz kim?

5. Guruhda ishlash. Yozing.

So‘z	Mazmuni
mehribon	boshqalarga g‘amxo‘rlik qiladigan inson
quvnoq	***
usul	***
uy vazifasi	***
jamoaviy mashq	***

6. Audiomatn asosida gaplarni tartib bilan yozing.

___ a) Sardor uy vazifasini unutadi.
___ b) Murod aka mavzularni o‘yin yordamida o‘rgatadi.
_1_ d) Har dushanba ustoz: “Kim yaxshilik qildi?” deb so‘raydi.
___ e) Sardor uy vazifasini keyingi safar birinchilardan bo‘lib topshiradi.
___ f) Ustoz har birimizni maqtaydi.

Maktabdagi 3 nafar sevimli ustozingiz haqida yozib keling.

Ustozning ismi	Qaysi fandan dars beradi?	Uning fazilatlari	Nima uchun u yaxshi ustoz?
***	***	***	***
***	***	***	***
***	***	***	***

Adabiy o‘qish.



SAIDA ZUNNUNOVA

MENING VATANIM

Yuz yil umr ko‘rsam, yuz yil she’r yozsam,
Yuz yil ta’rifingni aytsam muttasil.
Baribir sevgili yorin rasmini
Chizmoqqa munosib rang topolmayin
Chamanda tentirab yurgan rassomday,
Sening tasviringga so‘z axtararman,
So‘zlar sarasidan shu bugungiday.
Yuz yilgi she’rimni yig‘salar hamki,
Bo‘lmaydi dildagi sevgimday asil,
Ey mening Vatanim, mening Vatanim!
Dunyoda ne yaxshi xislatlarki bor,
Hammasi, hammasi senda mujassam.
Aziz tuprog‘ingni ko‘zimga surtib,
Bahorda barglarga yuzimni surtib,
Insonlik hurmati ichaman qasam:
Senga qurbon bo‘lsa, mayli, jon-tanim.
Sening shoirangman, shu ulug‘ elning
Baxtini ko‘zlovchi bir jigarbandi.
Adolat, erklikni kuylaganim-chun
Quvg‘undi bo‘lmayman keng quchog‘ingdan –

Biz doim birgamiz, mening Vatanim.
To tirik ekanman, mehring, g‘ururing
Mehnatda, rohatda jonim payvandi,
Sen mening sevganim, sen maqtaganim!

QIZIMGA

Jahon mening bag‘rimdami yo men jahon bag‘rida,
Yuz bahorning yellarimi sochlarimni silagan?!
Ming gulshanning gullaridan rohatbaxsh bu qo‘lchalar
Baxtga ko‘mib yuragimni, yuzlarim erkalagan.



Guruhda ishlash.

She’rlarda berilgan so‘zlardan birini tanlang. Raqib guruh ushbu so‘zni topishi uchun 3 bosqichdan iborat topshiriq tuzing.

1-qadamda ikkita izohlovchi so‘z, 2-qadamda so‘z birikmalari, 3-qadamda shu so‘zni ifodalovchi hikoya tuzing.

Namuna: *“ko‘z” – (o‘ylangan so‘z)*

1-qadam: *moviy, aldamaydi*

2-qadam: *inson tana a’zosi*

3-qadam: *Muhammad buvisining ko‘zlariga tikildi. Sochlari oqarib ketgan, ovozi past bo‘lsa-da, ko‘zlari haligacha charaqlab turardi.*

– Nega qarayapsan, bolam?– dedi buvisi.

– Ko‘zlaringiz ko‘p narsalarni so‘zlaydi, buvi, – dedi Muhammad. – Har safar menga qarasangiz, mehrni, sabrni, hatto yoshligingizni ham ko‘raman.

Buvisi jilmaydi.

– To‘g‘ri aytding, bolam. Ko‘zlar hech qachon aldamaydi.







III CHORAK



1. Tinglang.



jim yurmoq
sezmoq
mehribonlik

2. Yozing.

Namuna: *1. Sardor har doim **jim** va **kamtarona** yurardi.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *matematika ustozining, kamtarona, Iroda, jim, mehribonlik.*

1. Sardor har doim ... va ... yurardi.
2. Faqat ... opa unga har kuni jilmayib salom berardi.
3. Tanlov mavzusi ... edi.
4. Sardor daftariga ... ... rasmini chizdi.

3. Yozing.

Kamtar, sezmoq, jilmaymoq, kulmoq, tabassum, go‘zallik, rasm tanlovi, tabiat, hayrat, mehribonlik, Iroda ustoz, ta’sir qildi, qalbdan, uyatchan, pessimist, samimiylik, yordam beradi, o‘zgacha, yurak, sayohat, universitet, nazar, fotoalbom, hayvonot olami.

Matnda mavjud so‘zlar	Matnda uchramagan so‘zlar
kamtar	uyatchan

4. Guruhda ishlash. Muhokama qiling. Yozing.

Go‘zallik dunyoni qutqarishi mumkinmi?

1. 3 ta misol keltiring.
2. 1 ta xulosa bering.

So‘zlovchining o‘zi bayon qilayotgan fikriga munosabatini anglatgan birliklarga **kiritmalar** deyiladi. Kiritmalar miqdor jihatidan cheklangan bo‘lib, bu vazifada maxsus so‘z va birikmalar qo‘llanadi. Kiritmalar gapning boshida, o‘rtasida va oxirida kela oladi. Kiritmalar turli xil ma’nolarni anglatadi:

1. Ishonch mazmunli kiritma: ***albatta.***
2. Gumon mazmunli kiritmalar: ***shekilli, balki.***
3. Tasdiq mazmunli kiritma: ***haqiqatan.***

*Bugun yomg‘ir yog‘adi, **shekilli**;*
*Biz, **albatta**, g‘olib bo‘lamiz.*

5. Yozing.

Namuna: *1. **Balki**, go‘zallik dunyoni qutqarar.*

1. … , go‘zallik dunyoni qutqarar.
2. Sardor, … , iqtidorli o‘quvchi edi.
3. U, … , keladi, chunki menga va’da bergan.
4. Tomog‘im qattiq og‘riyapti, shamolladim, … .
5. …, insonning qo‘li gul ekan.

1) albatta, balki
2) shekilli, haqiqatan
3) albatta, balki
4) albatta, shekilli
5) balki, haqiqatan

6. O‘qing.



Go‘zallik faqat tashqi ko‘rinishda emas, balki odamlarning fe’l-atvori, niyatlari va ishlarida ham namoyon bo‘ladi. Go‘zallik har bir narsada mavjud. Misol uchun, bahorda ochilgan lolaning chiroyi, kuzda ohista to‘kilayotgan barglar, qor ustidagi oyoq izlari – bularning barchasi tabiatdagi go‘zallikdir. Insonlar orasidagi go‘zallik esa do‘stlik, hurmat va mehrda namoyon bo‘ladi. Agar bir bola yoshi kattalarga og‘ir sumkasini ko‘tarishga yordam bersa, bu ham go‘zallikdir. Yana bir muhim narsa – o‘zimizga qarash, toza va ozoda yurish. Kiyinishdagi go‘zallik hashamat emas, balki diddir. Maktabga toza kiyimda borish, sochni tartib bilan tarash, oyoq kiyimini artish – bular ham o‘ziga xos go‘zallik. Go‘zallik haqida gapirganda atrof-muhitni asrashni ham unutmaslik kerak. Chiqindini duch kelgan joyga tashlamaslik, daraxt shoxlarini sindirmaslik, hayvonlarga mehribon bo‘lish bizning tabiatdagi go‘zallikka hurmatimizdir. Shunday ekan, bolalar, go‘zallikni ko‘ra biling va asrang.

7. Yozing.

Namuna: *1. Bolalar tog‘ga **sayohatga** borishdi.*

1. Bolalar tog‘ga ... *(sayohatni/sayohat/sayohatga)* borishdi.
2. Agar bir bola yoshi kattalarga og‘ir sumkasini ko‘tarishda ... (*yordam bermoq/yordam berdi/yordam bersa)*, bu ham go‘zallikdir.
3. Go‘zallik haqida ... (*gapirish/gapirganda/gapirsa)* atrof-muhitni asrashni ham ... (*unutmoq zarur/unutmaslik kerak/unutmaydi)*.
4. Go‘zallikni ko‘rish uchun yuragingiz ... (*ochilgan/ochiq/ochmoq)*, ko‘nglingiz pok bo‘lsin!

Atrofingizdagi go‘zalliklardan 5 tasini yozib keling.

TABIATDA RANGLAR JILOSI

1. Yozing.

Namuna: *1. T – tog‘, tabiat, tut.*

T – tog‘, …, … .
A – atirgul, …, … .
B – behi, …, … .
I – isiriq, …, … .
A – arslon, …, … .
T – to‘tiqush, …, … .



2. O‘qing.

Mening fikrimcha, tabiat – eng buyuk rassom. U hech qachon bir xil rasm chizmaydi. Har fasl, har kun, hattoki, har soat o‘z rangini o‘zgartiradi. Tabiatda ranglarning soni cheksiz. Biz ko‘radigan asosiy ranglar: yashil, moviy, sariq, qizil, jigarrang va oq ranglardir. Ehtimol, siz bilmasligingiz mumkin, biroq bu ranglarning o‘zida ham yuzlab tuslar bor! Bir daraxtning bargi yozda to‘q yashil bo‘lsa, kuzda sariq yoki to‘q qizg‘ishga aylanishi mumkin. Bu ranglar – tabiatdagi hayotiy o‘zgarishlarning belgisi. Balki, siz har kuni bir ko‘chadan yurarsiz, lekin daraxtlar o‘sayotganini yoki quriyotganini sezmayotgandirsiz. Afsus, biz, odamlar ko‘pincha shoshilib yuramiz, atrofga e’tibor qaratmaymiz. Aslida esa daraxtning novdasidagi bir dona barg ham bizga xabar aytayotgandek bo‘ladi.

Buyuk ijodkorlar, rassomlar va shoirlar aynan shu ranglardan ilhom olishgan. Misol uchun, Alisher Navoiy tabiatdagi ranglarni she’rlarida mehr, muhabbat va hayot ramzi sifatida ishlatgan. Ehtimol, siz ham kelajakda yetuk shoir yoki rassom bo‘larsiz va tabiatdagi ranglar sizga ilhom baxsh etar! Shunday ekan, har kuni atrofga nazar soling. Tabiatning tili yo‘q, lekin o‘z tilida ranglar orqali biz bilan gaplashadi.

3. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Matnda tabiat qanday tasvirlangan?
2. Tabiatda qancha rang bor?
3. Nima uchun odamlar tabiatdagi o‘zgarishlarga ko‘p e’tibor bermaydi?
4. Alisher Navoiy tabiat ranglarini qanday ifodalagan?

4. Guruhda ishlash. Yozing.

“Mening tasavvurimdagi tabiat”

Tasavvur qiling, siz rassomsiz. Iqlim o‘zgarishlari natijasidagi 50 yildan keyingi tabiatni tasvirlang. Rasmga 3–5 ta gap bilan izoh bering.

Kiritmalarning ma’nolari

1. Quvonchni ifodalovchi kiritma: ***xayriyat***.
2. Achinish mazmunli kiritmalar: ***attang***, ***afsus***.
3. Fikrning so‘zlovchiga nisbatlanishi: ***menimcha***.

cheksiz
hayotiy
ko‘pincha
aylanmoq

5. Yozing.

Namuna: *1. Xayriyat, bugun darsga kech qolmadim.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *xayriyat (2), attang, afsus, menimcha (2)*

1. …, bugun darsga kech qolmadim.
2. …, biz yana gol urolmadik.
3. Majlisda, …, yana bu masala ko‘tariladi.
4. …, chorakni a’lo baholar bilan tugatdim.
5. …, tezroq harakat qilganimda g‘olib bo‘lardim.
6. Dunyoni qalbi go‘zal insonlar saqlab turibdi, … .

6. Gapiring.

Xayriyat, attang, afsus, seningcha so‘zlaridan foydalanib gaplar tuzing.

Quyidagi savollarga javob yozing.

1. Tabiatdagi ranglarning o‘zgarishi haqida nima deb o‘ylaysiz?
2. Agar siz rassom yoki shoir bo‘lganingizda, tabiat ranglaridan qanday foydalanardingiz?
3. Tabiatning tasvirini chizing.

TABOBAT

1. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Tabib kim?
2. Shifokor bilan tabibning farqi nimada?
3. Shifobaxsh o‘simliklarni bilasizmi?
4. Shifobaxsh giyohlardan damlama tayyorlash usullarini ayting.

qon bosimi
rayhon
shifo
o‘simlik

2. Tinglang.

23



3. Anagramma. Yozing.

Namuna: *1. Balki, bir kun siz ham shifokor bo‘lishni istarsiz, unda tabiat bilan do‘stlashing!*

1. istarsiz,/Balki,/bo‘lishni/bir/shifokor/siz/ham/kun/bilan/tabiat/do‘stlashing/unda.
2. tushadi/solib ichsang,/rayhonni/choyga/qon bosiming/Agar.
3. kuch beradi/Shotutni/yozda/yesang,/yuragingga/ko‘p.
4. bo‘lsin/uxlashni/moychechak/do‘sting/Agar/xohlasang,/tinch.
5. xohlasang,/tabiatni/Agar/eshitasan/sen.

Kiritmalarning ma’nolari

1. Fikrni xulosalovchi kiritmalar: ***xullas***, ***demak***.
2. Fikrni tartiblovchi kiritma: ***avvalo***.
3. Fikrni dalillovchi kiritma: ***masalan***.

4. Yozing.

Namuna: *1. Xullas, shotut yurakni baquvvat qilar ekan.*

1. *(xullas/shekilli)*, shotut yurakni baquvvat qilar ekan.
2. *(balki/demak)*, siz o‘simliklarning davolovchi kuchiga ishonasiz, shundaymi?
3. *(shekilli/masalan)*, rayhonni choyga solib ichish ham foydali ekan.
4. Inson, *(masalan/avvalo)*, tabiatni asrashi kerak.
5. *(balki/xullas)*, men giyohlardan davo topdim.
6. Mana, *(masalan/xullas)*, sen necha marta giyohlar sababli tuzalgansan?

5. Fikrlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini ayting.

№	FIKR	to‘g‘ri	noto‘g‘ri
		✓	✗
1.	Matn muallifi bolaligida bog‘da yashagan.	***	***
2.	Buvining aytishicha, shotut yurakka kuch beradi.	***	***
3.	Muallif sovqotganida buvisi unga limon choy bergan.	***	***
4.	Moychechak choyi muallifga tinch uxlashga yordam bergan.	***	***
5.	Matnda faqat birgina o‘simlik haqida so‘z boradi.	***	***
6.	Buvining fikricha, tabiat ham insonni eshita oladi.	***	***
7.	Matnda muallif shifokor bo‘lish istagi haqida yozgan.	***	***
8.	Buvi o‘simliklarning nomini va xususiyatlarini yaxshi bilgan.	***	***

Siz tabiatdan qanday shifo topgansiz yoki qanday foydali o‘simlik haqida eshitgansiz? Shu haqda matn yozing.

1. O‘zingiz yoki yaqinlaringiz boshidan o‘tkazgan voqeani yozishingiz mumkin.
2. O‘simlikning qanday foydasi borligini tushuntiring.
3. Yakunda o‘z fikr va xulosangizni yozing.

SHIFOKOR TABIAT

1. O‘qing.

Tabiatning o‘zi shifokor. Har bir o‘simlikning o‘z vazifasi bor. Ularning ko‘pchiligi inson sog‘lig‘i uchun foydali. Zanjabil qizdiruvchi, ozgina achchiq ta’mga ega ildiz bo‘lib, uni ko‘pincha choyga solishadi yoki ovqatlarga qo‘shishadi. Zanjabil, ayniqsa, sovuq kunlarda juda foydali. Agar siz tez-tez shamollasangiz, burningiz bitadigan yoki tomog‘ingiz tez og‘riydigan bo‘lsa, zanjabilli ichimliklar sizning sog‘lig‘ingizni mustahkamlaydi.

Ismaloq yashil bargli o‘simlik bo‘lib, ko‘pincha sho‘rva, salatlarga qo‘shiladi. Ismaloq bolalar uchun foydali. Chunki u qonda temir moddasi ko‘payishiga yordam beradi. Temir moddasi esa bizga quvvat, kuch va yaxshi kayfiyat beradi.

Qalampir achchiq yoki shirin ta’mli sabzavot. Ayniqsa, qizil qalampirda foydali vitaminlar ko‘p bo‘ladi. U A va C vitaminlariga boy, bu esa ko‘zlar, teri va tomoq uchun foydali.

Agar tomog‘ingiz tez og‘risa yoki tez charchab qolsangiz, ehtimol, sizning ovqatingiz tarkibida foydali vitaminlar kamdir. Agar istasangiz, har hafta bitta o‘simlikni tanlab, uning foydasi haqida o‘rganib borishingiz mumkin. Balki, kelajakdagi kasbingiz tabiat bilan bog‘liq bo‘lar.



2. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Zanjabil qanday ta’mga ega?
2. Ismaloqning qanday foydasi bor?
3. Qalampirda qanday vitaminlar bor?
4. Matn oxirida qanday taklif berilgan?

zanjabil
ildiz
ismaloq
quvvat

3. Gapiring.

Namuna: *1. Zanjabil nima uchun foydali? Avvalo, zanjabil tanani qizdiradi.*

1. Zanjabil nima uchun foydali? Avvalo, zanjabil … .
2. Qaysi o‘simliklar inson uchun foydali? Ko‘p o‘simliklar foydali, masalan, … .
3. Ismaloqda qanday modda ko‘p bo‘ladi? Ismaloqda temir moddasi ko‘p bo‘ladi. Demak, u … .
4. Inson sog‘lom bo‘lishi uchun, avvalo, … .
5. Xullas, … .

4. Yozing.

Namuna: *1. Zanjabil – qizdiruvchi, ozgina **achchiq** ta’mga ega ildiz.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *temir, achchiq, A, C, davo.*

1. Zanjabil – qizdiruvchi, ozgina ... ta’mga ega ildiz.
2. Ismaloq tanada ... moddasi ko‘payishiga yordam beradi.
3. Qalampirda, ayniqsa, ... va ... vitaminlari ko‘p bo‘ladi.
4. Tabiat – ..., tinchlik va go‘zallik manbayi.

5. Yozing. Quyidagi so‘zlardan foydalanib gaplar tuzing.

Namuna: *1. Zanjabil – juda foydali o‘simlik.*

zanjabil	ismaloq
qalampir	vitamin
tabiat	shifo


6. Guruhda ishlash. Yozing.

O‘simlik nomi	Foydasi	Qanday ishlatiladi
Moychechak	Asabni tinchlantiradi, uyquni yaxshilaydi, terini namlantiradi	Choy kabi damlab ichiladi, badanga surtiladi

1. 2 ta foydali damlamaning retseptini yozib keling.
2. Damlamaning tayyorlanishini videoga oling.
3. Oila a’zolaringizning choy haqida fikrlarini so‘rang.

ARXITEKTURADAGI GO‘ZALLIK

1. O‘qing.



Bir vaqtlar Fransiyaning Parij shahrida eski va qarovsiz bir hudud bor edi. O‘sha joyda ko‘p yillar hech narsa qurilmadi, chunki odamlar bu joyni zerikarli va fayzsiz deb bilishardi.

Ammo ikki arxitektor – Renso Piano va Richard Rojers bu joyga boshqacha nigoh bilan qarashdi. Ular “Agar biz bu joyda barchaga ochiq kutubxona, san’at markazi va galereya qursak, odamlar bu yerga ilhom olish uchun kelishadi”, deb orzu qilishdi.

Odamlar boshida bu rejani tushunmadilar. “Bunday noodatiy bino nega kerak?” deyishdi. Ammo arxitektorlar to‘xtamadilar. Ular yangi texnologiyalarni qo‘llab, Pompidu markazini qurishdi – u rangli konstruksiyalar, shaffof oynalar va ochiq zinapoyalari bilan juda go‘zal edi.

Dunyoning eng mashhur san’at markazlaridan biri Pompiduga minglab odamlar kelib, kitob o‘qiydi, rasm tomosha qiladi va ilhom oladi. Bugun esa Jorj Pompidu nomidagi milliy san’at va madaniyat markazi tashrif buyuruvchilar uchun bilim, go‘zallik va ilhom olish manbayi hisoblanadi.

2. Mosini tanlang.

Jumlaning boshi	Mantiqiy davomi
Renso Piano va Richard Rojers	zerikarli va fayzsiz joy deb hisoblangan.
Parij aholisi	san’at markazi qurish orzusida edilar.
Pompidu markazi –	odamlar uchun bilim va ilhom maskani.
Eski hudud	bu rejaga shubha bilan qaragan.

3. Matn asosida gaplarni tartib bilan yozing.

___ a) Arxitektorlar bu joyda san’at markazi qurishni orzu qilishdi.
__1__ b) Odamlar eski hududni fayzsiz deb hisoblashardi.
___ d) Pompidu markazi qurildi.
___ e) Odamlar avvaliga bu rejaga shubha bilan qarashdi.
___ f) Pompidu dunyoga mashhur san’at markaziga aylandi.

qarovsiz
zinapoya
hudud
shaffof

4. Gapiring. Muhokama qiling.

1. Siz ushbu arxitektorlar o‘rnida bo‘lganingizda, qanday bino qurgan bo‘lar edingiz?
2. Sizningcha, odamlar nima uchun yangi g‘oyalarga boshida qarshi chiqishadi?
3. Pompidu markazidan qanday ilhom olish mumkin deb o‘ylaysiz?

5. Yozing.

Quyidagi so‘zlarni guruhlang va gaplar tuzing: *xullas, shekilli, menimcha, avvalo, haqiqatan, attang, masalan, albatta, balki, afsus, xayriyat, demak.*

№	Kiritmalar	So‘z	Gap
1.	Gumon mazmunli kiritmalar	shekilli	Men bugun kinoga bormayman, shekilli
2.	Ishonch mazmunli kiritma	***	***
3.	Quvonch mazmunli kiritma	***	***
4.	Achinish mazmunli kiritmalar	***	***
5.	Fikrning so‘zlovchiga nisbatlanishi	***	***
6.	Fikrni xulosalash mazmunli kiritmalar	***	***
7.	Fikrning tartibi mazmunli kiritma	***	***
8.	Fikrning dalillanishi mazmunli kiritma	***	***

6. Yozing.

Namuna: *1. Arxitektura – bino va inshootlar qurish san’ati.*

1. Arxitektura – ...
2. Dizayn – ...
3. Landshaft dizayni – ...
4. Yoritish – ...

1. Sizningcha, yashash joyining dizayni odamga qanday ta’sir qiladi?
2. O‘zingiz yashaydigan joyning arxitekturasi va dizayni sizga yoqadimi? Nima uchun?
3. Arxitektura orqali go‘zallik yaratish mumkinmi?
4. Ijodiy ish. Orzungizdagi uyning dizaynini yarating.

1. O‘qing.



“Ko‘ngil izhori”, Akmal Nur

Akmal Nur – O‘zbekistonning mashhur rassomi. U Namanganda tug‘ilgan. Tasviriy san’atga mehri tufayli yoshligidan his-tuyg‘ularini asarlar orqali ifodalay boshlagan.

Musavvir hozirgi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida o‘qigan. Akmal Nur o‘zining yorqin ranglar bilan chizilgan suratlari, qiziqarli g‘oyalari va o‘ziga xos uslubi bilan tanilgan. Uning har bir asari – xuddi bir hikoya kabi. Chunki u ishlagan tasvirlar ba’zida quvonch, ba’zida esa dardli manzaralar haqida so‘zlaydi.

Akmal Nurga “O‘zbekiston Respublikasi xalq rassomi” unvoni berilgan.

2012-yildan buyon u O‘zbekiston Badiiy akademiyasi raisi sifatida ishlab kelmoqda.

Akmal Nur chizgan asarlar Germaniya, AQSH, Hindiston, Italiya va Turkiya kabi ko‘plab davlatlardagi ko‘rgazmalarda namoyish etilgan.

Akmal Nur nafaqat katta rassom, balki iste’dodli yoshlarga ham san’atni tushuntirib, ularni tabiatni sevishga, go‘zallikni ko‘ra olishga o‘rgatadi.

2. Testlarni yeching.

1. Akmal Nur rassomchilikni qachon boshlagan?
A) talabalik davrida
B) yoshligida
D) o‘qituvchi bo‘lganidan keyin
E) 2003-yildan boshlab

2. Unga faxriy unvon nima uchun berilgan?
A) talabalarni o‘qitgani uchun
B) universitetni erta tugatgani uchun
D) o‘zbek san’ati rivojiga qo‘shgan hissasi uchun
E) ko‘plab davlatlarda bo‘lgani uchun

3. Uning ijodi qanday xususiyatga ega?
A) faqat tarixiy mavzularda
B) faqat tabiat tasvirlariga oid
D) har bir asari bir hikoya kabi
E) oq-qora uslubda chizilgan

4. Akmal Nur qayerda tug‘ilgan?
A) Toshkentda
B) Andijonda
D) Navoiyda
E) Namanganda

3. Mosini tanlang.

I	II
1. Akmal Nur	A. San’at kishilari uchun muhim maskan
2. “O‘zbekiston xalq rassomi” unvoni	B. Quvonch, dard kabi tuyg‘ulardan so‘zlaydi
3. Badiiy akademiya	D. Yosh iste’dodlarni qo‘llab-quvvatlaydigan rassom
4. Rassomning asarlari	E. San’at rivojiga katta hissa qo‘shgan shaxslarga beriladi

4. Gaplarni tartib bilan yozing.

chizma
quvonch
hissa qo‘shmoq
iste’dodli

___ a) Akmal Nur O‘zbekiston Badiiy akademiyasi raisi.

___ b) Akmal Nur Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida o‘qigan.

___ d) U “O‘zbekiston xalq rassomi” unvonini olgan.

___ e) U chizgan suratlar xalqaro ko‘rgazmalarda namoyish etilgan.

__1__ f) Akmal Nur Namangan shahrida tug‘ilgan.

Shart maylining ***-sa*** shakli gap oxirida qo‘llanganda orzu-istak ma’nolarini anglatadi.

		Shaxs-son	
Men	*yutmoq*+*sa*	***-m***	***yut+sa+m***
Sen		***-ng***	***yut+sa+ng***
U		***-***	***yut+sa***
Biz		***-k***	***yut+sa+k***
Siz		***-ngiz***	***yut+sa+ngiz***
Ular		***-lar***	***yut+sa+lar***


5. Yozing.

Namuna: *1. Ukam hamisha mening aytganimni qilsa.*

1. Ukam hamisha mening aytganimni *qilmoq*.
2. Men ham Samarqandga sayohatga sizlar bilan *bormoq*.
3. O‘zbek tili darsi har kuni *o‘tilmoq*.
4. O‘qishimizni tugatib, biz ham tezroq O‘zbekistonga *qaytmoq*.
5. Osh bo‘lsa-yu, ish *bo‘lmaslik*.

1. Tasavvur qiling, siz rassom bo‘lmoqchisiz. Qanday mavzularda rasm chizardingiz? Nima uchun?
2. Agar siz Akmal Nur haqida maqola yozishingiz kerak bo‘lsa, uni qanday so‘zlar bilan boshlardingiz?
3. O‘zingiz yashaydigan shahar yoki qishloqda ko‘rgazma tashkil qilsangiz, unda qanday rasmlar namoyish etilgan bo‘lardi?

Adabiy o‘qish.



ALISHER NAVOIY

SAXOVAT VA HIMMAT TO‘G‘RISIDA

(“Mahbub ul-qulub”dan)

Saxovat insoniyat bog‘ining hosildor daraxti, balki u daraxtning foydali mevasidir. Saxovat odamiylik mulkining mavj urib turgan dengizidir, balki u to‘lqinli dengizning bebaho gavharidir. Saxovatsiz odam yog‘insiz bahor bulutiga va hidi yo‘q mushk-anbarga o‘xshaydi. Mevasiz daraxt ham bir-u, o‘tin ham bir; yog‘insiz bulut ham bir-u, tutun ham bir. Saxovatsiz odamdan ichida gavhari bo‘lmagan sadafning farqi yo‘q; dursiz sadaf bilan qurib qolgan toshbaqa chanog‘ining farqi yo‘q... Saxiy bulutdir, xirmon-xirmon don hosili, balki xazina beradi; baxil chumolidir, don-dun, mashoq teradi. Himmat ahlining ixtisosi saxovatdir; bu ulug‘ sifat pokiza kishilarga xosdir. Odam bir badan bo‘lsa, himmat uning jonidir; himmatlilardan olam ahli uchun yuz ming sharaf va shukuh yetishadi. Himmatsiz kishi er sonida emas; jonsiz badanni hech kim tirik demas. Oliyhimmat odam balandparvoz lochindir; behimmat sichqon ovlovchi kalxatdir. Shunqorning maskani shohning bilagidir; kalxatning joyi o‘limtikning sassiq badani va so‘ngagidir.

Arslonning maqsadi – ov qilib, och yirtqichlarni to‘yg‘azmoq; sichqonning harakati – don o‘g‘irlab, tugun axtarmoq. Himmat egasi qashshoq bo‘lsa ham tubanlik qilmas; himmatsiz odam xazina topsa ham buyuklarga teng bo‘lmas. Chinor daraxti bo‘sh qo‘lli bo‘lsa-da, uning yuksakligiga nuqson yetmaydi; yer tagida yashirinib yotgan xazinaning tuproqqa foydasi tegmaydi. Himmatli kishilarning darajasi yuksakdir; ammo saxiylikning darajasi bir necha barobar yuksakdir.

Isrof qilish saxiylik emas; o‘rinsiz sovurishni aqlli odamlar saxiylik demas. Halol molni kuydirganni devona deydilar; yorug‘ joyda sham yoqqanni aqldan begona deydilar. Maqtanish uchun mol bermoq – o‘zini ko‘z-ko‘z qilmoq va shunday qilib o‘zini “saxiy” demoq – behayolik bilan nom chiqarmoq. Kimki xalqqa ko‘rsatib ehson bersa, u pastkash, saxiy emas. Tilagandan so‘ng berishlik ham saxovatdan yiroqdir, qistash natijasida bergandan

bermagan yaxshiroqdir. Bitta kulchani ikki bo‘lib, yarmini och odamga berganni – saxiy deb, o‘zi yemay hammasini muhtoj odamga berganni – axiy do‘st deb bil.

Yaxshiliklarni topmoq yedirmoqdir; ayblarni yashirmoq kiydirmoqdir. Zarur vaqtida berilgan eski chopon va bo‘z to‘n saxovat; bemahal hadya qilingan zarbof chopon yaramaslikdir. Ovqatim uvol bo‘lmasin desang yedir; libosim eskirmasin desang kiydir.

Saxovat qilish yo‘lini shu aytilgan gaplardan angla, ammo oliyjanoblik va mardlik rasmlari bundan boshqachadir.

SAFARNING FOYDALARI TO‘G‘RISIDA

Turg‘un yer qayda-yu, aylanuvchi osmon qayda? Bir joyda turgan tuproq qayda-yu, sayr etib yuruvchi yulduz qayda? Biri qimirlamay turgani uchun kishilar oyog‘i ostida poyandoz bo‘ldi; ikkinchisi esa harakatda bo‘lgani tufayli yuksaklarning yuksagi bo‘ldi.

Azob va mashaqqat tavoze va adabning negizidir. Safar esa ranj-mashaqqatga sababdir. Safar – erituvchi va kuydiruvchi ko‘radir. U erish-kuyish esa er kishining vujud oltinini toblab xom gil (loy)dan tozalovchidir.

Safar – ayriliqqa uchraganlarni maqsadiga yetkazuvchi va mahrumlarni murod uyiga olib kiruvchidir. Safar – xom odamlarni pishiruvchi va taomlarni singdiruvchidir. Safar kishilarni olam ajoyibotlaridan bahramand qiladi, g‘aroyibotlar dunyosidan xabardor qiladi.

Aziz kishilarning mozorlarini ziyorat qilish fayziga musharraf va mukarram bo‘lmoq ham safardan; fayzli, ulug‘ zotlar xizmatida izzat va hurmat topmoq ham safardan. Yo‘lovchining yurishiga quvvat beruvchi ham safar va ko‘ngliga har tomonga borish zavqini soluvchi ham safar. Musofirni turli joy va manzillar bilan tanishtiruvchi ham u; dunyoni kezish yo‘liga soluvchi ham u. Issiq-sovuqda jonga orom beruvchi ham u; achchiq-chuchukdan ko‘ngilni ogohlantiruvchi ham u.

Safar vodiysida musofirning oyog‘iga ko‘p dard-u balo tikanlari sanchiladi, lekin har qadalgan tikandan bir maqsad guli ochiladi. Yo‘l mashaqqati zarbidan kishining a’zoyi badani qaqshaydi; vujudi yo‘lovchilar oyog‘i bilan toptaladi va har a’zosi u oyoqlar ostida ushaladi. Ammo ko‘nglining vayronligi tuzaladi va ruhi ko‘zgusi ravshan tortib, jilo topadi.

Har o‘lkaning go‘zalligi, har manzilning osoyishtaligini safarda yuruvchilardan so‘ra va musofirlardan eshit. Safar qilmagan orom olish farog‘atini qaydan bilsin? Musofirlik azobini chekmagan vatandagi hayotning qadrini qaydan anglasin? Oqmaydigan dengiz suvini ichsa bo‘ladimi? Oqar daryoning zilol suvlaridan ichishni tark etsa bo‘ladimi?

Odam uchun doim harakatda bo‘lish hayotlikdan asardir; jonsiz mavjudotlar tiriklik nishonasidan bexabardir...

Guruhda ishlash. Yozing.

Matnlardan 10 ta hikmatli so‘zni toping va yozing. Ularni izohlang.

RASSOMCHILIK SAN’ATI

1. O‘qing.

Jasur darsdan keyin maktabning san’at to‘garagiga birinchi marta bordi. Sinfdoshlari rasm chizayotgan, haykal yasayotgan, hatto qo‘lda qum bilan ishlayotgan edi.

– Men rassom emasman, yaxshi rasm chiza olmayman... – dedi Jasur sekin.

O‘qituvchi unga kulib qaradi:

– San’at faqat rasm chizish emas, Jasur. Musiqa, raqs, teatr, haykaltaroshlik, raqamli dizayn – bularning bari san’at turlari hisoblanadi.

Shunda Jasur diqqat bilan atrofga qaradi. Kimdir gitara chalayotgan edi, boshqasi gilam naqshining eskizini chizayotgandi.

– Demak, men sevadigan animatsiya yaratish ham san’atga kiradimi? – dedi Jasur hayrat bilan.

– Albatta, – dedi o‘qituvchi, – sen san’at orqali o‘zingni ifoda eta olasan. Kimdir so‘z bilan, kimdir rang bilan, boshqasi esa tovush bilan. Muhimi – yuragingdagi go‘zallikni ulasha olish.

Shundan keyin Jasur rasm emas, balki raqamli san’at bilan shug‘ullanishni boshladi. U har kuni kompyuterda multfilm uchun qahramonlar yaratdi. Vaqtlar o‘tib “Men rassom emasman” degan fikrni unutib ham yubordi.



2. Fikrlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini ayting.

№	FIKR	to‘g‘ri	noto‘g‘ri
		✓	✗
1.	Jasur san’at to‘garagiga doim qatnashardi.	***	***
2.	Jasur dastlab o‘zini rassom deb hisoblamagan.	***	***
3.	San’at faqat rasm chizishdan iborat.	***	***
4.	Jasur raqamli san’atga qiziqib qoldi.	***	***
5.	Jasur oxirida o‘z fikrini o‘zgartirdi.	***	***

3. Yozing.

Namuna: *1. Jasur darsdan keyin birinchi marta **to‘garakka** bordi.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *naqsh, go‘zallikni, rasm, to‘garakka, animatsiya.*

1. Jasur darsdan keyin birinchi marta ... bordi.
2. O‘qituvchi aytdi: “San’at faqat ... chizish emas”.
3. Kimdir gitara chalmoqda, boshqasi esa ... eskizini chizmoqda.
4. Jasur multfilm uchun ... yaratishni boshladi.
5. Muhimi – yuragingdagi ... ulasha olish.

4. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Siz qaysi san’at turi bilan shug‘ullanasiz yoki shug‘ullanishni istaysiz? Nima uchun?
2. Tanishlaringiz orasida kimlar san’at sohasida ishlaydi? Ularning faoliyati bilan tanishtiring.

qum
haykaltaroshlik
naqsh
hayrat
eslay olmoq

“San’at orqali o‘zimni qanday ifoda etaman?” mavzusida 6–8 gapdan iborat kichik hikoya yozing.

- O‘zingizga yoqadigan san’at turi haqida yozing.
- Qanday asar yaratishingizni tasvirlang.

TASVIRIY SAN’AT

1. O‘qing.



Tasviriy san’at bu – rasm chizish, haykal yasash, ranglar bilan ishlash va tasvirlar yaratish san’ati. Odamlar qadim zamonlardan beri devorlarga rasm chizganlar. Masalan, g‘orlardagi suratlar orqali ular ov, hayvonlar va kundalik hayot haqida hikoya qilganlar. Bu suratlar bizga o‘tmishdagi odamlarning hayoti qanday bo‘lganini ko‘rsatadi.

Zamonaviy davrda tasviriy san’at yanada rivojlandi. Bugungi kunda rassomlar turli materiallardan foydalanadi: bo‘yoq, qalam, ko‘mir, hatto kompyuter dasturlari. Ular maxsus qog‘ozga yoki devorga chizadi. Ba’zilar akvarel bilan ishlaydi, boshqalar esa moyli bo‘yoqlardan foydalanadi.

Rassomlar tabiat, odamlar, shaharlar yoki o‘z xayollaridagi dunyoni chizishadi. Har bir asarda biror ma’no, ramz bo‘ladi. Masalan, yashil rang tabiatni, qizil rang esa kuch yoki sevgini ifodalashi mumkin.

Tasviriy san’at bizni o‘ylashga, his qilishga va go‘zallikni qadrlashga o‘rgatadi. Muzey yoki galereyaga borib, san’at asarlarini tomosha qilish juda qiziq. Har bir rasm sizga yangi dunyo ochishi mumkin.

Agar siz rasm chizishni yoqtirsangiz, bu juda yaxshi! Har bir insonning o‘ziga xos iqtidori bo‘lishi mumkin. Oddiy narsalardan boshlang: daraxt, qush yoki quyosh rasmini chizing. Vaqt o‘tgan sayin mahoratingiz oshib boradi.

Unutmang, har bir rasm – bir hikoya. Siz ham san’at orqali o‘z hikoyangizni so‘zlashingiz mumkin!

2. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Odamlar qadimda qayerga rasm chizgan?
2. Zamonaviy rassomlar qaysi materiallardan foydalanadi?
3. Tasviriy san’at bizni nimaga o‘rgatadi?
4. Rassomlar nimalarni tasvirlaydi?

3. Mosini tanlang.

I	II
1. Rassom	Rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika
2. Galereya	Rasm chizadigan inson
3. Tasviriy san’at	San’at asarlari namoyish etiladigan joy
4. Bo‘yoq	Rang beruvchi suyuqlik

tasviriy san’at
g‘or
ko‘mir
moyli bo‘yoq

Shart maylining qo‘shimchasini ***-sa+shaxs-son+edi*** shaklida qo‘llash orqali ham orzu-istak mazmunini ifodalash mumkin.

	yutmoq	Shaxs-son	
Men	*yutmoq+sa+shaxs-son+edi*	***-m edi***	***yut+sa+m edi***
Sen		***-ng edi***	***yut+sa+ng edi***
U		***-***	***yut+sa edi***
Biz		***-k edi***	***yut+sa+k edi***
Siz		***-ngiz edi***	***yut+sa+ngiz edi***
Ular		***-lar edi***	***yut+sa+lar edi***

4. Guruhda ishlash.

1. Natyurmort.
2. Portret.
3. Manzara.
4. Mifologik janr.
1. Bitta rasmni tanlang.
2. Rasmga nom bering.
3. Rasmda nimalar tasvirlangan?
4. Rasmda qanday ranglarni ko‘ryapsiz?
5. Bu rasmda qanday his-tuyg‘ular ifodalangan?



5. Yozing.

Namuna: *1. Ta’tilimiz uch oy emas, bir oy davom etsa edi.*

1. Ta’tilimiz uch oy emas, bir oy … .	a) ushalsa edi
2. Siz ham uning gol urganini … .	b) tashkil qilinsa edi
3. Hammamiz bobomlarnikiga birga … .	d) ko‘rsangiz edi
4. Orzularimiz tezroq… .	e) davom etsa edi
5. Liftimiz tezroq … .	f) kirib borsak edi
6. Maktabimizda katta kutubxona … .	g) ishga tushirilsa edi

6. Yozing.

Namuna: *1. Qadim zamonlarda odamlar **devorga** rasm chizganlar.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *san’at, davrda, devorga, moybo‘yoq, hikoya.*

1. Qadim zamonlarda odamlar ... rasm chizganlar.
2. Tasviriy ... bu – go‘zallik yaratish vositasi.
3. Zamonaviy ... rassomlar turli materiallardan foydalanadi.
4. Har bir rasmda biror ma’no yoki ... bo‘ladi.
5. Rassomlar akvarel yoki ... bilan ishlashadi.

Sevimli manzarangiz yoki kundalik hayotingizdagi biror voqea tasvirini chizing. Rasm ostiga kamida 4-5 jumladan iborat kichik matn yozing. Matnda quyidagilar bo‘lishi kerak:

1. Nima chizdingiz?
2. Qaysi ranglardan foydalandingiz?
3. Bu rasm siz uchun nimani bildiradi?

ADABIY SAN’AT

1. Tinglang.



2. Audiomatn asosida yozing.

Qahramon	Fazilatlar
Hamid	Adabiyotni yaxshi ko‘radi.
Alisher Navoiy	***
Bobur Mirzo	***

3. Fikrlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini ayting.

№	FIKR	to‘g‘ri	noto‘g‘ri
		✓	✗
1.	Hamid she’r yozishga qiziqmay qolgan.	***	***
2.	Hamid tushida Bobur bilan tanishgan.	***	***
3.	Alisher Navoiy Hamidga o‘z ruboiysining ma’nosini tushuntirib berdi.	***	***
4.	Bobur Mirzo adabiyot bilan shug‘ullangan.	***	***
5.	Hamid she’rni yurakdan chiqqan so‘z deb biladi.	***	***

*O‘zbek tilida biror oqibatning sababini anglatish uchun sodda gaplar orasida **chunki**, **negaki** kabi bog‘lovchi vositalardan foydalaniladi.*
*Men kitob o‘qishni yoqtiraman, **chunki/negaki** kitoblar menga zavq beradi.*

4. Mosini tanlang.

1. Men sayohat qilishni yoqtiraman, negaki … .	a) u bilan suhbatlashish ko‘ngildagi g‘amni quvadi.
2. Kamtar bo‘l, chunki … .	b) ertaga yangi topshiriq beriladi.
3. Oybek barcha imtihonlardan muvaffaqiyatli o‘tdi, negaki … .	d) bunda yangi narsalarni o‘rganish mumkin.
4. Odobli odam tabibga o‘xshaydi, chunki … .	e) ular salomatlik uchun xavfli bo‘lishi mumkin.
5. Biz ishni bugun tugatishimiz kerak, negaki … .	f) sinovlarga yaxshi tayyorlangan edi.
6. Tez tayyorlanadigan ovqatlarni kamroq yeng, chunki … .	g) u insonni kamolotga boshlaydi.

5. O‘qing.

Adabiy san’at insonning ichki dunyosini, his-tuyg‘ularini, fikr va qarashlarini so‘z vositasida ifodalashdir. Poeziya (she’riyat), nasr (hikoya, roman), dramalar (pyesa) adabiy san’atning asosiy turlaridir. Buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiy turkiy adabiyot asoschilaridan biri hisoblanadi. U “Xamsa” asarini yozgan. Alisher Navoiy adabiy san’atda ma’no go‘zalligini yuqori darajaga olib chiqqan.

Navoiy asarlarida “So‘zlarni ko‘p o‘rganib, haqiqatni faqat yurakdagi iztirob orqali tushundim” degan fikrni ham bildiradi. Ya’ni adabiyot inson ruhiyatiga ta’sir qilish vositasi hamdir.

Bobur nafaqat shoh va sarkarda, balki yirik adib ham bo‘lgan. U “Boburnoma” asari orqali tarixiy voqealarni, o‘z kechinmalarini nozik ifodalagan.

6. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Adabiy san’at deganda nimani tushunasiz?
2. Adabiy san’atning qanday turlari bor?
3. Sizga ko‘proq she’rlar yoqadimi yoki hikoyalar? Nima uchun?
4. Adabiy asarlarni o‘qiganingizda nimani his qilasiz?

izlanish
ma’rifatparvarlik
donolik
ruboiy

“Men adabiy san’atni yaxshi ko‘raman, chunki...”
Kamida 5 ta gap bilan o‘z fikringizni yozing.

SAHNA SAN’ATI

1. O‘qing.

Drama sahna uchun yozilgan asar bo‘lib, aktyorlar o‘zaro suhbat va harakatlar orqali voqealarni ochib beradi. Voqealar qahramonlar orasidagi ijtimoiy, shaxsiy yoki axloqiy to‘qnashuv orqali rivojlanadi. Har bir aktyor matnni yod oladi, ammo rolni qanday jonlantirish – aynan uning ijodiy yondashuviga bog‘liq.

Teatr – drama asarlari sahnalashtiriladigan joy, ya’ni aktyorlar chiqish qiladigan, tomoshabinlar esa pyesa yoki spektaklni kuzatadigan ijodiy makon. U yerda aktyorlar, rejissyor, dekoratorlar va libos ustalari birga ishlaydi. Bu san’at turi aniq belgilangan matn va sahna harakatlari asosida yaratilsa-da, har bir chiqishda u o‘zgacha tus oladi.






2. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Siz aktyor bo‘lsangiz, qaysi qahramonni ijro etgan bo‘lar edingiz? Nima uchun?
2. Nima uchun ba’zan film yoki spektakldan keyin aktyorlarni yomon ko‘rib qolamiz?
3. Salbiy va ijobiy rollar haqida fikringizni bildiring.
4. Nima uchun tarixiy obrazlarni yaratish aktyorlarning orzusi bo‘ladi?

3. Guruhda ishlash. Yozing.

Venn diagrammasiga ma’lumotlarni kiriting.



- O‘zbek milliy teatrining asoschisi Hamza Hakimzoda Niyoziydir.
- Uilyam Shekspir 37 ta pyesa yozgan, ulardan eng mashhuri “Hamlet”dir.
- Qadimgi teatrlarda ayol rolini erkaklar o‘ynagan.

4. Yozing.

Namuna: *1. O‘yinchilar qoidaga amal qilmadilar, shu sababli hakam o‘yinni to‘xtatishga qaror qildi.*

1. … , shu sababli hakam o‘yinni to‘xtatishga qaror qildi.
2. Shamollab qoldim, shu sababli … .
3. … , shuning uchun metroda yuraman.
4. Yozda tinimsiz ishladik, shu sababli … .
5. … , shuning uchun hunar o‘rganishni boshla.

sahna
tus olmoq
axloqiy to‘qnashuv
o‘zgacha

5. Tinglang.

25



Sahna:

1) nutq madaniyatini o‘rgatadi;
2) hissiy ongni rivojlantiradi;
3) ishonch, jamoa bilan ishlash, mas’uliyatni his qilish kabi muhim hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

6. Gapiring. Fikrni yakunlang.

1. Nigora aktrisalikni yoqtirib qoldi, chunki…
2. Menga bu hikoya yoqdi, chunki…
3. Agar men ham aktyor bo‘lganimda…
4. Sahna hayoti menga qiziq tuyuladi, chunki…

Teatr mavzusida 10 ta gapdan iborat matn yozing.

1. Tinglang.

26



2. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Olimjon matematikani nega yoqtirmas edi?
2. U nimani yaxshi ko‘rardi?
3. Muallima qanday mavzuni tushuntirdi?
4. Olimjon progressiyalarni nimaga o‘xshatdi?
5. Matematika unga qanday tuyula boshladi?

yoqtirmoq
chalmoq
yechim
mas’uliyat

O‘zgalarning gapini aynan keltirish uchun o‘zbek tilida quyidagi tartibdan foydalanish mumkin: “K”, M. yoki M: “K”. Izoh: K – ko‘chirma gap, M – muallif gapi,
“Men o‘zbekistonlikman”*, dedi Temur.*
Direktor baland ovozda gapirdi: ***“Barchangizni tabriklayman!”***
“Oyim keldimi?”, deb so‘radi Jasur.
“Men ham o‘zbek tilini o‘rgansam edi”, deb o‘yladi Laylo.

3. Yozing.

Foydalanish uchun so‘zlar: *deb so‘rabdi, deb o‘ylabdi, deb javob beribdi, deb o‘ylabdi, deb o‘ylabdi.*

Bir kuni qo‘zichoq podasini tashlab, o‘tlagani boshqa joyga ketibdi. Bo‘ri uni ko‘rib: “Kechki ovqat o‘z oyog‘i bilan keldi-ku”, ... Qo‘zichoq bo‘rini ko‘rib, qochmoqchi bo‘libdi, lekin bo‘ri uni ushlab olibdi.

Bo‘ri undan: “Oxirgi tilaging nima?” ... . Qo‘zichoq ham: “Menga bir musiqa chalib ber, xursand bo‘lib o‘layin”, ... Bo‘ri: “Bechoraning so‘nggi xohishi shu ekan, bir surnay topib, chalib beray”, ... Bo‘ri bir surnay topib, chala boshlabdi. Qo‘zichoq esa raqsga tushibdi.

Shu paytda uzoqdagi itlar surnayning ovozini eshitibdi. Ular chopib kelib, bo‘rini quvib ketibdi. Bo‘ri qo‘zichoqning hiylasini tushunibdi va “Qo‘zichoq meni laqqa tushirdi”, ...

4. O‘qing.



Film yaratish butun ijodiy guruhning mashaqqatli mehnatini talab qiladigan murakkab jarayondir. Har qanday film avvalo ssenariydan boshlanadi. Ssenariy – filmda nima bo‘lishi, qahramonlar nima deyishi, voqealar qanday rivojlanishi haqida yozilgan matn.

Keyin rejissyor ishga kirishadi. U ssenariyni o‘rganib, filmni tasavvur qiladi, aktyorlarga qanday harakat qilishni aytadi. Rejissyor ijodiy jarayonni boshqaradi.

Operator esa kamerada sahnalarni suratga oladi. Yorug‘lik, ranglar, rakursni to‘g‘ri tanlash – bularning barchasi operatorning mas’uliyatiga kiradi.

Aktyorlar esa film qahramonlarini jonlantiradi. Ular kuladi, yig‘laydi, o‘ylanadi va har bir holatni tomoshabinga his-tuyg‘u va harakat orqali yetkazadi.

Tasvirga olish ishlari tugagach, montaj jarayoni boshlanadi. Sahnalar tahrir qilinadi, musiqa, ovozlar, effektlar qo‘shiladi. Shundan so‘nggina tayyor film tomoshabinlarga taqdim etiladi.

5. Anagramma. Yozing.

Namuna: *1. Har qanday film avvalo ssenariydan boshlanadi.*

1. film/boshlanadi/ssenariydan/har qanday/avvalo.
2. rejissyor/keyin/kirishadi/ishga.
3. kamerada/sahnalarni/suratga/operator/esa/oladi.
4. qahramonlarini/esa/jonlantiradi/film/aktyorlar.
5. tugagach,/tasvirga olish/ishlari/boshlanadi/montaj.

Quyidagi savollarga 5 ta gapdan iborat javob yozing.

1. Film yaratish jarayoni nega murakkab?
2. Nega bu jarayon jamoaviy mehnatni talab qiladi?

XATTOTLIK SAN'ATI

1. O‘qing.



Bugungi kunda xattotlik san'atida faqat qog‘oz va siyohdan emas, balki raqamli qurilmalardan ham keng foydalanilmoqda. Grafik planshetlar va stilus ruchkalar yordamida yozilgan xatlar raqamli xattotlikka misol bo‘ladi.

Dizaynerlar logotiplar, plakatlar, reklama bannerlari yaratishda aynan xattotlik uslubidan foydalanadilar. Masalan, bir kompaniya o‘z nomini bezak berilgan xatda yozdiradi. Bu yozuv brendga xoslikni bildiradi.

Agar yozuv chiroyli, did bilan ishlansa, u insonga brendga moyillik, ishonch hissini beradi. Shuning uchun ham raqamli xattotlik san'ati zamonaviy grafik dizayn va axborot texnologiyalari sohasida muhim rol o‘ynaydi.

2. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Sizningcha, raqamli xattotlik qanday kelib chiqqan?
2. Grafik dizaynerlar xizmatidan kimlar foydalanadi?
3. Tarixda xattotlarning vazifasi nimadan iborat bo‘lgan?

siyoh
raqamli xattotlik
muhim

O‘zbek tilida avvalgi gapda ifodalangan otning mazmunini keyingi gapda izohlash uchun ***shunday … -ki, … .*** qolipidan foydalaniladi.
Shunday joylar borki, hali odamzod qadami yetmagan.
Natijada so‘zni takror ishlatishga hojat qolmaydi.

3. Savollarga yozma javob bering.

1. Sizningcha, yozuvlar inson his-tuyg‘ulariga qanday ta'sir qiladi?
2. O‘zingiz ko‘rgan yoki esingizda qolgan chiroyli xatni yozib ko‘rsating.

4. Guruhda ishlash. Yozing.

Namuna: *1. Nargiza shunday tartibli o‘quvchiki,* ***hech qachon darslarni qoldirmagan.***

1. Nargiza shunday tartibli o‘quvchiki, … .
2. Taom shunday mazali ediki, ...
3. Bu shunday g‘aroyib mashinaki, ...
4. …, insonning sirdoshi bo‘la oladi.
5. Kitob shunday beminnat do‘stki, …
6. O‘zbekiston shunday bag‘ri keng yurtki, … .

5. Tinglang.

27



6. O‘ylab ko‘ring. Gaplarni to‘g‘rilab yozing.

1. ridita’nas hsitaray vuzoy ilyorihc kiltottax.
2. nikmum iralhsinagro‘ inhsiliq sih inug‘yut ilaqro vuzoy ralalob.
3. idareb madroy adhsaladofi inug‘yut-sih adkiltottax mah ralgnar.

4. Guruhda ishlash. Yozing.

Namuna: *1. “Aytar so‘zni ayt, aytmas so‘zdan qayt”, degan edi Alisher Navoiy.*

Aforizm	Muallif	Qolip
1. Aytar so‘zni ayt, aytmas so‘zdan qayt.	Alisher Navoiy	“K”, m.
2. Tarbiya uch qismdan iborat: badan tarbiyasi, aqliy tarbiya va axloq tarbiyasi.	Abdurauf Fitrat	M: “K”.
3. Dunyoda ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmagay.	Imom Buxoriy	M: “K”.
4. Matematika fanlar ichra shoh, uning sirlaridan bo‘lingiz ogoh.	Qori Niyoziy	“K”, m.
5. Shafqatsiz kishi azobga loyiqdir.	Zahiriddin Muhammad Bobur	M: “K”.
6. Hayotning har lahzasi go‘zal, Umrning har dami g‘animat.	Anvar Obidjon	“K”, m.

Vaqt haqida 5 ta maqol toping va ularni bezakli husnixat bilan yozing.

Adabiy o‘qish.



ZULIFIYA

BAHOR KELDI SENI SO‘ROQLAB

Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida, yerlarda bahor.
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...

Qancha sevar eding, bag‘rim, bahorni,
O‘rik gullarining eding maftuni.
Har uyg‘ongan kurtak hayot bergan kabi
Ko‘zlaringga surtib o‘parding uni.

Mana, qimmatligim, yana bahor kelib,
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.
Qishning yoqasidan tutib so‘radi seni,
Ul ham yosh to‘kdi-yu, chekindi nari.

Seni izlar ekan, bo‘lib shabboda,
Sen yurgan bog‘larni qidirib chiqdi.
Yozib ko‘rsatay deb husn-ko‘rkini,
Yashil yaproqlarni qidirib chiqdi.

Topmay, sabri tugab bo‘ron bo‘ldi-yu,
Jarliklarga olib ketdi boshini.
Farhod tog‘laridan daraging izlab,
Soylarga qulatdi tog‘ning toshini.

Qirlarga ilk chiqqan qo‘ychivonlardan
Qayda shoir, deya ayladi so‘roq.
Barida sukunat, ma’yuslik ko‘rib,
Horib-charchab keldi, toqatlari toq...

So‘ngra jilo bo‘lib kirdi yotog‘imga,
Hulkar va Omonning o‘pdi yuzidan.
Singib yosh kuydirgan zafar yonog‘imga
Sekin xabar berdi menga o‘zidan.

Lekin yotog‘imda seni topolmay,
Bir nuqtaga qoldi uzoq tikilib.
Yana yel bo‘ldi-yu, kezib sarsari,
Mendan so‘ray ketdi qalbimni tilib:

“Qani men kelganda kulib qarshilab,
Qo‘shig‘i mavjlanib bir daryo oqqan?
Baxtim bormi deya, yakkash so‘roqlab
Meni she’rga o‘rab, suqlanib boqqan?

O‘rik gullariga to‘nmaydi nega,
Elda hilpiratib jingala sochin?
Nega men keltirgan sho‘x nashidaga
Peshvoz chiqmaydi u yozib qulochin?

Qanday ishqqa to‘lib boqardi tongga,
Kamol toptirardi keng xayolimni.
Uning rangdor, jozib qo‘shig‘ida
Mudom ko‘rar edim o‘z jamolimni.

Qani o‘sha kuychi, xayolchan yigit?
Nechun ko‘zingda yosh, turib qolding lol.
Nechun qora libos, sochlaringda oq,
Nechun bu ko‘klamda sen parishonhol?”

Qanday javob aytay, loldir tillarim,
Baridan tutdim-u, ketdim qoshingga.
U ham g‘aming bilan kezdi aftoda,
Boqib turolmayin qabring toshiga.

Alamdan tutaqib daraxtga ko‘chdi,
Kurtakni uyg‘otib so‘yladi g‘amnok.

Sening yoding bilan yelib beqaror,
Gullar g‘unchasini etdi chok-chok.

Gul-u rayhonlarning taraldi atri,
Samoni qopladi mayin bir qo‘shiq.
Bu qo‘shiq naqadar oshno, yaqin,
Naqadar hayotbaxsh, otashga to‘liq.

Bahorga burkangan sen sevgan elda
Ovozing yangradi jo‘shqin, zabardast.
O‘lmagan ekansan, jonim, sen hayot,
Men ham hali sensiz olmadim nafas.

Hijroning qalbimda, sozing qo’limda,
Hayotni kuylayman, chekinar alam.
Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham!

Guruhda ishlash.

She’r mazmunini 5–7 ta gap bilan izohlab yozing.

1. Tinglang.

28



2. Audiomatn asosida mosini tanlang. Gapiring.

I	II
Ochiq havodagi sayr	kayfiyatga yaxshi ta’sir etadi.
Diyorning onasining maqsadi	tanani sog‘lomlashtiradi, ruhiy holatini yaxshilaydi.
Dofamin va endorfin gormonlari	ochiq havoda biroz sayr qilish edi.
Onaning taklifi	Diyorni sevintirdi.

3. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Siz qaysi sport turi bilan shug‘ullanasiz?
2. Sportga qatnashishingizga kim sababchi bo‘lgan?
3. Sportda qanday yutuqlarga erishdingiz?
4. Sport so‘ziga ta’rif bering.
5. Sport bilan shug‘ullanganda o‘zingizni qanday his qilasiz?

charchamoq
xiyobon
birga
yengillik
sevinmoq
va’da bermoq

4. Mosini tanlang.

Namuna: *1. Bu shunday gul ekanki, suvsiz tuproqda ham o‘saverar ekan.*

1. Bu shunday gul ekanki,
2. Oyim shunday insonki,
3. Kamron shunday do‘stki,
4. “Dunyoning ishlari” shunday kitobki,
5. O‘zbek taomlari shunday mazaliki,
6. Qizilqum shunday katta cho‘lki,

a) birovga sirimni sotmagan.
b) o‘qigan odamning yana o‘qigisi keladi.
d) mendan hech ham xafa bo‘lmaganlar.
e) oxiri ko‘rinmaydi.
f) suvsiz tuproqda ham o‘saverar ekan.
g) ta’mi takrorlanmas.

5. O‘qing.



Sport – nafaqat tananing chiniqtiradi, balki salomatlikni saqlash uchun ham juda muhim. Har bir sport turi tana a’zolari uchun alohida foydalarga ega. Masalan, suzish tananing barcha mushaklarini ishlatadi, shu sababli bu sport turi jismoniy rivojlanish uchun eng samaralisi hisoblanadi. Suzish mushaklarni kuchaytiradi, yurak hamda o‘pka tizimining faoliyatini yaxshilaydi.

Yugurish esa yurak va o‘pka uchun foydalidir. Bu sport turi bilan muntazam shug‘ullanish orqali qon aylanishi yaxshilanadi, organizmning chidamliligi oshadi. Buning natijasida yurak-qon tomir tizimi sog‘lomlashadi va stress kamayadi.

Stol tennisi ko‘z va qo‘l muvofiqligini rivojlantiradi. Tennisda ko‘z va qo‘l harakatlari sinxronlashishi kerak, bu esa diqqatni jamlashga va konsentratsiyani oshirishga yordam beradi. Bu sport turi, ayniqsa, bolalar uchun foydali.

Velosiped haydash ham ko‘plab mushaklarni faollashtiradi, nafas olishni yaxshilaydi va vaznni me’yorda saqlashga yordam beradi.

Sport faqat tanaga emas, ruhiyatga ham foydalidir. Jismoniy faoliyat kayfiyatni ko‘taradi, stressni kamaytiradi va insonning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Shu sababli har bir bola o‘ziga mos sport turini tanlab, sog‘lom rivojlanishi mumkin.

6. Yozing.

Namuna: *1. Suzish tananing barcha mushaklarini ishlatadi.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *velosiped haydash, suzish, stol tennisi, yugurish.*

1. ... tananing barcha mushaklarini ishlatadi.
2. Yurak, o‘pka uchun foydali bo‘lgan sport turi bu – ... .
3. ... ko‘z va qo‘l muvofiqligini rivojlantiradi.
4. ... ko‘plab mushaklarni faollashtiradi, nafas olishni yaxshilaydi va vaznni me’yorda saqlashga yordam beradi.

Savollarga javob yozing.

1. Siz qaysi antiqa sport turini bilasiz?
2. Qaysi 5 ta sport turi sizga yoqadi? Shu sport turlariga xos so‘zlar asosida jadvalni to‘ldiring. Misol uchun, boks sportida “ring” so‘zi boks tushish maydonini anglatadi.

Tushuncha	Tahlili
Ring	boks tushish uchun maydon
***	***

SPORT VA AHILLIK

1. O‘qing.

Doston sportni juda yaxshi ko‘radi, har tong erta uyg‘onib, yugurishga chiqadi. U nafaqat sog‘lom, balki tartibli va maqsadga intiluvchan bola bo‘lib ulg‘aydi. Yugurish unga sabr, mustaqillik va kuch berdi. Doston bir necha musobaqalarda qatnashib, g‘olib bo‘lgan edi.

Bir kuni jismoniy tarbiya o‘qituvchisi uni maktab futbol jamoasiga taklif qildi. Doston avvaliga hayron qoldi: “Men yolg‘iz mashq qilishga o‘rganib qolganman. Jamoaga kirisha olarmikanman?” deb o‘yladi. Lekin qiziqish ustun keldi va buni sinab ko‘rishga qaror qildi.

Futbol mashg‘ulotlari boshida oson kechmadi. Doston boshqalarning fikrini inobatga olish, vaqtida to‘pni uzatish, o‘yin davomida birga qaror qabul qilishni o‘rgana boshladi. Vaqt o‘tgan sari u jamoada do‘stlik, birdamlik va ishonchning naqadar muhimligini sezdi.

Murabbiy ularga sport orqali bir-birlarini qo‘llash, sabrli bo‘lish va jamoadoshini qadrlashni o‘rgatdi. Jamoa bilan mashq qilarkan, Doston o‘zining yangi qirrasini kashf etdi. Endi u faqat o‘z g‘alabasi uchun emas, balki jamoaning muvaffaqiyati uchun ham kurashayotgan edi.

Maktablararo musobaqada jamoa finalga chiqdi. Doston o‘zi yaxshi imkoniyatga ega bo‘lsa-da, to‘pni jamoadoshiga uzatdi va gol aynan o‘sha bola tomonidan kiritildi. O‘yin tugagach, murabbiy uni maqtadi: “Mana bu – jamoaviy yutuq!”

Endi Doston nafaqat yugurishni, balki futbolni ham yaxshi ko‘radi. Chunki u jamoaviy sport orqali do‘stlar orttirdi, birdamlik, mas’uliyat va boshqalarni tushunishni o‘rgandi.



2. Yozing.

Qahramonlar	1-sifat	2-sifat	3-sifat
Doston	Tartibli		
Murabbiy			

3. Gapiring. Rolli o‘yin.

3 guruhga bo‘lining. 1-guruh – Doston, 2-guruh – murabbiy, 3-guruh – jamoadosh rolida o‘zingizni sinab ko‘ring. Matndan parcha keltirib, Doston va murabbiy o‘rtasidagi suhbatni sahnalashtiring.

…-dan …-roq, …-ga qaraganda …-roq qoliplari yoki ***-roq*** qo‘shimchasi orqali sifat va ravishlarning qiyosiy darajasini hosil qilish mumkin. Qiyosiy daraja ikki narsaning bir-biri bilan solishtirilganda ko‘rinadigan belgisi hisoblanadi: *Samarqand Navoiy**dan** qadimiy**roq** shahardir. Sport dorilar**ga qaraganda** foydali**roq** muolaja turidir.*

4. Yozing.

Namuna: *1. Burgutlar o‘ljasiga yaqinlashganda **pastroq** uchadi.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *past, issiq, yomon, shirin, qimmat, yangi, keng.*

5. Yozing.

Namuna: *1. Olma bananga qaraganda mazaliroq.*

1. Olma banan… … mazali… .
2. Futbol boks… qiziqarli… .
3. Kenguru kiyik… sekin… yuguradi.
4. Sport insonni kuchli… va tetik… qiladi.
5. Qo‘shiqni bugun yaxshi… aytasanmi?

maqsadga intiluvchan
sinab ko‘rmoq
oson kechmoq
jamoadosh

6. Yozing.

1. 109-betdagi matnga sarlavha tanlang.
2. Shu matn uchun 3-4 ta bandli reja tuzing.

7. Guruhda ishlash.

Futbol sport turi bo‘yicha 10 ta ma’lumot yozing.

1. O‘zingizni sport jurnalisti sifatida sinab ko‘ring.
2. Notanish odamdan biror sport turi haqida intervyu oling, telefoningizga yozib olishga harakat qiling.

1. Tinglang.

29



2. Gapiring.

1. Otasi Sardorni qanday oromgohga yubordi?
2. Siz velosiped haydashni bilasizmi?
3. Tog‘da velosiped haydashda muvozanat qanday saqlanadi?
4. Tog‘dagi oromgohlarning ijobiy tomonlarini sanang.

orzu qilmoq
yashil adirlar
o‘zlashtirmoq
hayot tarzi

3. Yozing.

Namuna: *1. Bahorgi ta’tilini sport-turistik lagerda o‘tkazishni orzu qilardi.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *saqlashni, sport-turistik lagerda, piyoda yurishlar, sport o‘yinlari, qat’iyat, tabiatda sayr qilish, tabiatni o‘rganish, kuchni to‘g‘ri taqsimlashni, sport bilan shug‘ullanish.*

1. Bahorgi ta’tilini ... o‘tkazishni orzu qilardi.
2. Lagerda har kuni ..., ... va ... mashg‘ulotlari bo‘lardi.
3. Velosiped minishda Sardor muvozanatni ... o‘rgandi.
4. Tog‘ga chiqish sabr-toqat va ... talab qilar edi.
5. Safardan qaytgach, Sardor ...ni o‘ziga odat qildi.

Narsalarning donalik miqdorini bildirib, ***qancha? nechta?*** so‘roqlariga javob bo‘luvchi so‘zlar dona sonlar hisoblanadi. Dona sonlarni ifodalashda ***quti, qop, bosh, bog‘, tup, nafar, litr, kilogramm, dasta, savat*** kabi so‘zlar ishlatiladi.

4. Dona sonlarni ifodalovchi so‘zlardan foydalanib gaplarni to‘ldiring.

Foydalanish uchun so‘zlar: *tup, bog‘, millilitr, dona, gramm, ta, millilitr, tup, dona, qop.*

1. Bobom bilan bog‘imizga 2 … olma va 2 … o‘rik daraxtini ekdik.
2. “Bahor” salatini tayyorlash uchun 2 … salat bargi, 1 … pomidor, 1 … bodring va boshqa mahsulotlar kerak.
3. Quymoq uchun 4 … tuxum, 200 … sut, 100 … suv, 200 … un va boshqa mahsulotlar kerak.
4. Qish uchun 1 … piyoz olib qo‘ydik.

5. O‘qing.

Sport turizmi faqatgina sayohat emas, balki sog‘lom turmush tarzini shakllantirish ham demakdir. Bunda inson jismoniy faollik orqali rivojlanishi mumkin. Sport turizmida piyoda yurish, tog‘ga chiqish, velosiped haydash, qayiqda suzish, chang‘ida yurish kabi sport turlari bilan shug‘ullaniladi. Bunday mashg‘ulotlar tanani chiniqtiradi, bardoshni oshiradi va jismoniy holatni yaxshilaydi.

Bu turdagi sayohatlar nafaqat sport bilan shug‘ullanish, balki tabiatni o‘rganish, yangi joylarni kashf etish va ruhiy holatni yaxshilash imkonini beradi. Ayniqsa, o‘quvchilar uchun sport turizmi bilim, sog‘liq va ijtimoiy faollikni birlashtirgan mashg‘ulotdir. Har bir bola sayohat orqali yangi tajribalar orttiradi. Shu bilan birga, tabiatga yaqinlashadi va sog‘lom hayot tarziga odatlanadi. Ko‘plab davlatlar sport turizmini rivojlantirishga katta e’tibor beryapti. Bu odamlarda ekologik madaniyatni kuchaytiradi.

6. Testlarni yeching.

1. Sport turizmidan maqsad nima?
A) sayohat qilish
B) sog‘lom turmush tarzini shakllantirish
D) raqamli o‘yinlar o‘ynash

2. Mashg‘ulotlar tanani chiniqtiradi va nimalarni yaxshilaydi?
A) qon bosimini
B) bardoshlilik va jismoniy holatni
D) kompyuter ko‘nikmalarini

3. Quyidagilardan qaysi biri sport turizmiga kirmaydi?
A) velosiped haydash
B) tramplindan sakrash
D) qayiqda suzish

4. O‘quvchilar uchun sport turizmini qanday ifodalash mumkin?
A) dam olish maskani
B) bilim va sog‘lomlik maktabi
D) faqat jismoniy mashqlar

Yashash hududingizdagi o‘zingiz yoqtirgan sport to‘garagi manzilini tavsiya qiling. Buning uchun reklama matni yarating.

TURIZM

1. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Turizm nima?
2. O‘zbekistonda turizmni yanada rivojlantirish uchun nimalar qilish kerak?
3. Virtual sayohatlar (onlayn ekskursiyalar) haqiqiy sayohatlarning o‘rnini bosa oladimi?
4. Sayohat qilishning qanday foydasi bor? Javobingizni izohlang.

2. O‘qing.

Turizm dam olish, o‘rganish yoki boshqa maqsadlarda bir joydan boshqa joyga borishdir. Sayohat inson hayotiga quvonch, bilim va yangi tajribalar olib keladi.

Ichki turizm mamlakat ichidagi sayohatdir. O‘zbekistonning tarixi, tabiati va madaniyati bilan tanishtiradi. Ichki turizm orqali:

– vatanni sevish hissi kuchayadi;
– tarixiy va madaniy joylarga hurmat oshadi;
– tarixiy obidalarga qiziqish ortadi.

Tashqi turizm – o‘z mamlakati hududidan chiqib boshqa davlatlarga sayohat qilish. Boshqa xalqlarning hayoti va madaniyatini o‘rganishga yordam beradi. Chunki:

– chet tili o‘rganiladi;
– yangi do‘stlar orttiriladi;
– o‘zini xalqaro jamiyat a’zosi sifatida his qiladi.





3. Yozing.

Namuna: *1. O‘zbekiston ichidagi sayohatni ifodalovchi so‘z: ichki turizm.*

1. O‘zbekiston ichidagi sayohatni ifodalovchi so‘z: ...
2. Chet davlatlarga borish: ...
3. Insonga quvonch va bilim olib keladigan jarayon: ...
4. Boshqa xalqlarning hayotini o‘rganish yo‘li: ...
5. Yurtni sevish hissi: ...

dam olmoq
tajriba
qiziqish ortmoq
his qilmoq
jarayon

4. Yozing.

Turizm turi	Qayerga boriladi?	Foydalari
ichki turizm	***	***
tashqi turizm	***	***

5. Yozing.

Namuna: *1. Futbol jamoasida nechta o‘yinchi ishtirok etadi? – Futbolda 11 nafar o‘yinchi ishtirok etadi.*

1. Futbol jamoasida nechta o‘yinchi ishtirok etadi?
2. Inson bir kunda qancha suv ichadi?
3. Samolyotning nechta o‘rindig‘i bo‘lishi mumkin?
4. Siz oshga qancha guruch solasiz?
5. Avtobusni qancha kutdingiz?
6. Oilangizda necha kishi bor?

6. Tinglang.





30

7. Fikrlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini ayting.

№	FIKR	to‘g‘ri ✓	noto‘g‘ri ✗
1.	Ahmad faqat chet elga sayohat qildi.	***	***
2.	Zominda Ahmad ilk bor dor yo‘lida yurdi.	***	***
3.	Min-Jun Ahmadga o‘zbek milliy kuylarini chalib berdi.	***	***
4.	Ahmad sayohatdan so‘ng boshqa joylarga ham borishni orzu qildi.	***	***
5.	Min-Jun koreys milliy kiyimi – hanbokni kiyib ko‘rsatdi.	***	***

O‘z fikringizni yozing: siz ichki turizmni ma’qul ko‘rasizmi yoki tashqi turizmni? Nima uchun?

Adabiy o‘qish.



HAMID OLIMJON

O‘RIK GULLAGANDA

Derazamning oldida bir tup
O‘rik oppoq bo‘lib gulladi…

Novdalarni bezab g‘unchalar,
Tongda aytdi hayot otini
Va shabboda qurg‘ur ilk sahar
Olib ketdi gulning totini.

Har bahorda shu bo‘lar takror,
Har bahor ham shunday o‘tadi,
Qancha tirishsam ham, u beor
Yellar meni aldab ketadi.

Mayli deyman va qilmayman g‘ash,
Xayolimni gulga o‘rayman.
Har bahorga chiqqanda yakkash,
Baxtim bormi deya so‘rayman.

Yuzlarimni silab, siypalab,
Baxting bor deb esadi yellar,
Etgan kabi go‘yo bir talab,
Baxting bor deb qushlar chiyillar.

Hamma narsa meni qarshilar,
Har bir kurtak menga so‘ylar roz.

Men yurganda bog‘larga to‘lar
Faqat baxtni maqtagan ovoz:

“Mana senga olam-olam gul,
Etagingga sig‘ganicha ol,
Bunda tole har narsadan mo‘l,
To o‘lguncha shu o‘lkada qol.

Umrida hech gul ko‘rmay yig‘lab
O‘tganlarning haqqi ham senda,
Har bahorni yig‘lab qarshilab
Ketganlarning haqqi ham senda…”

Derazamning oldida bir tup
O‘rik oppoq bo‘lib gulladi…



Guruhda ishlash.

Guruhlarga bo‘linib, she’rni tahlil qiling.

1. O‘qing.

“Alpomish” dostoni bir necha yuz yildan ortiq vaqt davomida avloddan avlodga og‘zaki tarzda yetkazilgan. Baxshilar uni yoddan 50 000 martadan ortiq aytib berishgan! “Alpomish” dostonini 1999-yilda UNESCO jahon madaniy merosi sifatida e’tirof etgan.

Alpomish 7 yil dushman qo‘lida tutqunlikda bo‘ladi. Biroq sevgisi va vatani uchun kurashdan voz kechmaydi.

Dostonda Barchinoy obrazida jasoratli, sabrli, fidoyi ayol timsoli yaratilgan. U Alpomishni yillab kutadi, unga sadoqatini saqlaydi. Bu o‘zbek ayollarining matonati va jasorati ifodasidir.

Alpomishning do‘sti Qorajon uni qutqarish uchun hayotini xavf ostiga qo‘yadi. Dostondagi bu do‘stlik misoli bolalarni ham do‘stga sodiq bo‘lishga o‘rgatadi.

Bugungi kunda “Alpomish” dostoni asosida yaratilgan animatsion filmlar, bolalar spektakllari va rasmli kitoblar bor.

Alpomish – bugungi kun yoshlari uchun ham ideal qahramon. U o‘z Vatani orzusi, sevgisi uchun kurashadi, bu esa XXI asr yoshlariga namunadir.



2. Berilgan gaplarga “Ha” yoki “Yo‘q” deb javob bering.

Namuna: *1. “Alpomish” dostoni asosida animatsion film yaratilgan.*
Ha

1. “Alpomish” dostoni asosida animatsion film yaratilgan. (___)
2. Barchinoy sabrli va jasoratli ayol sifatida tasvirlangan. (___)
3. Qorajon Alpomishni unutib yuboradi. (___)

qahramon
doston
matonatli

Biror narsa yoki shaxsning harakatga daxldorlik belgisini hozirgi zamonda ifodalash uchun fe'l asoslariga ***-yotgan/-ayotgan*** qo'shimchalari qo'shiladi. Bunday shaklga ***hozirgi zamon sifatdoshi*** deb aytiladi: *kuly**ayotgan** qo'shiqchi, javob ber**ayotgan** o'quvchi.*

3. Mosini tanlang.

I	II
Barchinoy	Do'stlik timsoli
Qorajon	Fidoyi ayol, sadoqatli yor
UNESCO	50 000 martadan ortiq aytib berilgan
Alpomish	1999-yilda dostonni madaniy meros sifatida e'tirof etgan
Doston og'zaki tarzda	7 yil dushman qo'lida bo'ldi

4. Yozing.

Namuna: *1. Bekatda avtobus kutayotgan yo'lovchilar juda ko'p edi.*

1) **kutayotgan**
2) kechikayotgan
3) ichayotgan
4) yugurayotgan
5) kiyinayotgan
6) yonayotgan

a) kishi
b) suv
d) avtobus
e) olov
f) yo'lovchi
g) bolalar

5. Tinglang.



31

6. Yozing.

Namuna: *1. Bekzod nonushtadan keyin yoki kechqurun **kitob o'qib** o'tirardi.*

Foydalanish uchun so'zlar: *toy, Boychibor, kamondan o'q otish, kitob o'qib, sport.*

1. Bekzod nonushtadan keyin yoki kechqurun ... ... o'tirardi.
2. Alpomishning oti ... deb atalardi.
3. Bekzod har kuni erta uyg'onib, ... bilan shug'ullanardi.
4. Tug'ilgan kunida ota-onasi unga ... sovg'a qilishdi.
5. Bekzod sport musobaqasida ... bo'yicha qatnashdi.

7. Guruhda ishlash. Muhokama qiling.

1. Bekzod Alpomishga o'xshashni xohladi. Sizningcha, zamonaviy bolalar qanday qahramonga o'xshashni istaydi? Nega?
2. Bekzod toyni minib, o'zini qahramondek his qilgan parchani tasvirlab bering. Qanday holat ko'z oldingizga keldi?

"Alpomish" dostonidagi 7 ta muhim faktni piktogramma (belgili rasm) ko'rinishida chizing.

BAYRAMLAR JOZIBASI

1. O‘qing.



Nima uchun davlatlar o‘z milliy bayramlarini nishonlaydi?

Chunki bunday bayramlar xalqni birlashtiradi, o‘zligini eslatadi va qadriyatlarini bardavom qiladi. Har bir milliy bayramda tarixiy voqealar esga olinadi. Bolalar o‘z yurtining tarixini, urf-odatlarini, milliy qahramonlarini o‘rganadi.

Yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usi shakllanadi. Bayram kunlari odamlar bir-biriga mehr ko‘rsatadi, do‘stona munosabatlar kuchayadi. Navro‘z, Mustaqillik kuni, Konstitutsiya kuni kabi bayramlar umumxalq bayramlaridir. Bayramlar tufayli milliy taomlar, kiyimlar, qo‘shiqlar va raqslar avloddan avlodga uzatiladi. Navro‘zda sumalak pishirish, sayillarga chiqish kabi insonlarni birlashtiruvchi odatlarimiz bor. Milliy bayramlar orqali har bir davlat o‘z madaniyatini boshqa mamlakatlarga tanitadi. Ko‘rgazmalar, konsertlar, xalqaro festival va musobaqalar o‘tkaziladi. Demak, har bir milliy bayram xalqning birdamligi, faxri, tarixiy xotirasi va kelajakka umidi ramzidir.

2. Guruhda ishlash. Yozing.

1. Matnga sarlavha qo‘ying.
2. Matn asosida **5 ta savol** tuzing.

- 2 ta oddiy (kim? nima? qachon?)
- 2 ta murakkab (nima uchun? qanday?)
- 1 ta ochiq (sizningcha,...?)

Biror narsa yoki shaxsning harakati belgisini o‘tgan zamonda ifodalash uchun fe’l asoslariga ***-gan (-kan/ -qan)*** qo‘shimchalari qo‘shiladi. Bunday shaklga ***o‘tgan zamon sifatdoshi*** deb aytiladi: *o‘qil**gan** kitob, chiniq**qan** odam.*

3. Yozing.

Bayram nomi	Qanday qadriyatni targ‘ib qiladi?	Matnda qanday tasvirlangan?
Navro‘z		
Mustaqillik kuni		
Konstitutsiya kuni		

4. Yozing.

birlashtirmoq
qadriyat
eslatmoq
tuyg‘u
asrab qolmoq
tanitmoq

Namuna: *1. Bugun ukamning **tug‘ilgan** kunini nishonlaymiz.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *kechikmoq, sinmoq, pishmaslik, tug‘ilmoq, chiqmoq, jo‘natilmaslik.*

1. Bugun ukamning … kunini nishonlaymiz.
2. … xatlarning manzili noma’lum edi.
3. Qutidagi narsalar orasidan … idishlarni ajratib olishim kerak.
4. Barvaqt … quyosh kunni qizdirar edi.
5. Darsga … o‘quvchilarga tanbeh berildi.
6. Yaxshi … o‘riklarni uzib bo‘lmaydi.

5. Tinglang.



6. Audiomatn asosida yozing.

1. Zulfiya ... bayramining ma’nosini ...chi marta ... his qildi.
2. ... Navro‘z bayramini ..., ... va ... bayrami deb atadi.
3. Navro‘z kuni ... uylarini ..., eski buyumlarni ..., yangi ... kiyadi.
4. Sumalak ...dan tayyorlanadi.
5. Zulfiya inson qalbi ham ... ochilishi kerakligini tushundi.


7. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Zulfiyaga Navro‘z haqida kim gapirib berdi?
2. Navro‘z kuni odamlar nimalar qiladi?
3. Sumalak nimalardan tayyorlanadi va nimaning ramzi hisoblanadi?
4. Maktab hovlisida qanday tadbirlar o‘tkazildi?
5. Zulfiya Navro‘zdan qanday saboq oldi?

1. Siz Navro‘z bayramini qanday nishonlaysiz?
2. Siz uchun bu bayram nimani anglatadi?
3. Fikrlaringizni 2-3 ta gap bilan bayon qiling.

MILLIY NONUSHTALAR

1. O‘qing.



Bilasizmi, dunyoning turli burchaklarida har bir millatning o‘ziga xos nonushta madaniyati mavjud. Nonushta – muhim, chunki u insonning kunlik energiyasi va kayfiyatini shakllantiradi.

Fransiyada nonushta “croissant” (pishiriq) va “baguette” (uzun non)dan iborat. Ko‘pincha tuxum va mayonez, shuningdek, kofe yoki choy bilan birga yeyiladi.

Amerikada esa nonushta uchun “pancake” (quymoq) va sosiska kabi yengil taomlar tayyorlanadi. Inglizlar nonushtada “toster”, (qarsildoq non) qaynatilgan tuxum va “baked beans” (loviya) iste’mol qilishadi.Yaponiyada nonushta, asosan, “miso-supa” (soyali sho‘rva) va “tamago” (qaynatilgan tuxum)dan iborat. Yana guruch, dengiz mahsulotlari tanovul qilishadi.

Turkiy xalqlarning nonushtasida ko‘pincha shirinlik bo‘ladi. Uzum, asal, holva, yong‘oq, qatlama iste’mol qilinadi. Ko‘p xonadonlarda guruchli yengil taomlar tayyorlanadi.

Xullas, milliy taomlar va nonushta madaniyatlarning xilma-xilligini anglatadi. Har bir millatning qadriyatlari va madaniyatini taomlari orqali bilish mumkin.

2. Yozing.

Namuna: *1. Fransuzlar nonushtada “croissant” va “baguette” yeydi.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *yong‘oq, “pancake” (quymoq), “croissant” (pishiriq), sosiska, “baguette” (uzun non), “miso-supa” (soyali sho‘rva), “baked beans” (loviya), “toster” (qarsildoq non), shirinliklar, uzum.*

1. Fransuzlar nonushtada ... va ... yeydi.
2. Amerikada ... va ... yeyishadi.
3. Inglizlar nonushtada ... , qaynatilgan tuxum va ... tanovul qiladi.
4. Yaponlar ... , qaynatilgan tuxum, guruch va dengiz mahsulotlarini iste’mol qiladi.
5. Turkiy xalqlarning nonushtasida ... , ... va ... bo‘ladi.

qovurmoq
danak
qaynatmoq
aralashtirmoq

3. Yozing.

Namuna: *1. Sahnaga **chiqayotgan** raqqosalar tomoshabinlarga hayrat bilan qarab qo‘ydilar.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *chiqmoq, kelmoq, tikmoq, chekmoq, taqmoq.*

	-gan (-kan/-qan)	-yotgan/-ayotgan
1. chiqmoq	chiqqan	chiqayotgan
2.		
3.		

4. Tinglang.

33



5. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Nonushta dasturxonida qanday mahsulotlar bo‘lishi mumkin?
2. Qanday sanalarda oilalar maxsus nonushta tayyorlaydi?
3. “Nonushta bu – madaniyat” fikri siz uchun nimani anglatadi?
4. Siz ham nonushta tayyorlaysizmi?

6. Dialog tuzing.

1. Har kuni nonushta qilasizmi?
2. Eng ko‘p nima iste’mol qilasiz?
3. Nonushtani kim tayyorlaydi?
4. Qanday nonushtani yoqtirmaysiz?
5. Nonushta qilmaslik organizmga foydali bo‘lishi mumkinmi?

Siz tayyorlaydigan nonushta taomnomasi uchun kerakli mahsulotlarni yozib keling.

SHO‘RDANAK



1. O‘qing.

Bahorning ilk kunlari. Quyosh charaqlab, yengil shabada esib turibdi. Tongda buvijonim omborga yo‘l oldi. Men ortidan bordim.

– Buvijon, nima izlayapsiz? – dedim.

– Sho‘rdanak tayyorlaymiz, qizim.

Buvim har yili o‘rik danaklarini quritib, sho‘rdanak tayyorlardi. Bu oilaviy marosim edi. Hamma ishlarga buvijonim bosh bo‘lardi, biz esa yordamchi edik.

Oshxonada katta qora qozon yuvilib, o‘choq ustiga qo‘yildi. Ichiga 1 litr suv, yarim kilogramm tuz soldik. Buvim yog‘och qoshiq bilan aralashtirdi.

– Tuz butunlay erimasa, danak yaxshi chiqmaydi, – dedi u. Keyin danaklarni qo‘shdi: toza, silliq, chiroyli chaqilgan o‘rik danaklari. Sho‘rdanakning asosi shular edi.

Qozon qaynay boshlaganida sho‘rdanakning hidi butun uyni tutib ketdi. Buvim danaklarni aralashtirib turar, men esa bug‘lanib tugab qolmasidan yana suv quyardim.

– Bugun o‘zimiznikilar, ertaga qarindoshlar keladi. Sho‘rdanak issiqlikni ham, mehrni ham saqlaydi, – dedi buvijonim.

Taxminan ikki soatdan keyin buvijonim danaklarni suzib oldi, tovada qovurishni boshladi. Qovurgan sari qirsillagan ovoz eshitilardi. Bu ovoz menga bolaligimni eslatardi – hovlida yugurib yurgan paytlarim, buvijonimning qizil ro‘molini, choy damlayotgan onamni…

Qovurilgan danakni dasturxonga to‘kib, ko‘rpacha bilan o‘rab qo‘ydik. Buvim oxirida dedi:

– Har bir sho‘rdanakda bizning tariximiz bor, bolam. Men bolaligimda tog‘da yashaganman, oilamizda otam shunday tayyorlardi. Endi esa men sizlarga o‘rgatyapman.

Men jimgina qarab qoldim. O‘sha sho‘rdanak buvijonimning yuragidan chiqqandek tuyuldi. Men bir haqiqatni angladim. Bu uyimizning xotirasi, bizning o‘zligimiz, mehrli qalb va mehnatsevar qo‘llarning mahsuli edi.

2. Fikrlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini ayting.

№	FIKR	to‘g‘ri	noto‘g‘ri
		✓	✗
1.	Sho‘rdanak – har hafta tayyorlanadigan an’anaviy mahsulot.	***	***
2.	Buvi sho‘rdanak pishirishda bosh tashkilotchi edi.	***	***
3.	Sho‘rdanakni faqat bolalar uchun tayyorlashardi.	***	***
4.	Buvi sho‘rdanak tayyorlash retseptini internetdan olgan.	***	***
5.	Butun uyni sho‘rdanak hidi tutgan.	***	***

3. Testlarni yeching.

1. Sho‘rdanak tayyorlash nimani anglatadi?

A) yegulik tayyorlashni
B) eski odatni buzishni
D) oilaviy an’anani davom ettirishni
E) buvining odatini

2. Havo qanday edi?

A) issiq va og‘ir
B) sovuq va yomg‘irli
D) yengil shabadali
E) jazirama va quruq

esmoq
ombor
o‘choq

4. Mosini tanlang.

I	II
1. Sho‘rdanak tayyorlashni keyingi avlodga o‘rgatdi.	A. Onasi
2. Sho‘rdanakning hidi unga bolaligini eslatdi.	B. Buvisi
3. Sho‘rdanakni tog‘da tayyorlagan.	D. Katta bobosi
4. Choy damlayotgani eslandi.	E. Qiz

Avvalgi gapda ifodalangan sabab natijasi ikkinchi gapda aks etishi mumkin. Bunday gaplar ***shunday ...-ki, natijada*** qolipi orqali hosil qilinadi. *U **shunday** qiyin savol berdi**ki, natijada** hech kim javob topolmadi.*

5. Yozing.

1. Kuz havosi shunday sovuqki,	a) natijada bemor holsizlanib qoldi.
2. Nozimdan shunday xafamanki,	b) natijada o‘zimiz yengildik.
3. Raqiblarimizning kuchsizligiga shunday ishonib qoldikki,	d) natijada uni hech qachon kechirmayman.
4. Og‘riq shunday kuchaydiki,	e) natijada odam tez shamollaydi.
5. Yomg‘ir shunday yog‘ardiki,	f) natijada yig‘lab yubordim.
6. Onamni ko‘rib shunday sevindimki,	g) natijada yo‘lda yurolmay qoldik.

6. Yozing.

Bahorning ilk kunlarida buvijon sho‘rdanak tayyorlash uchun omborga yo‘l oldi. U qozonga ... va tuz solib, aralashtirdi. Keyin esa toza ... qozonga solindi. Qaynayotgan sho‘rdanakning ... butun uyni tutib ketdi. Tayyor danaklar tovada qovurilib, ... bilan yopildi.

Siz qanday taom tayyorlashni bilasiz? Uning tayyorlanishini yozing, rasmini chizing.

Adabiy o‘qish.



MIRKARIM OSIM

ZULMAT ICHRA NUR

Yoshlik ayyomining ilk bahori

Alisher cho‘kkalab olib, xontaxta ustidagi kattakon bir kitobni varaqlab, surat ko‘rib o‘tirar edi. Ov va jang manzaralari uni shu qadar qiziqtirgan, xayolini shu qadar o‘g‘irlagan ediki, otasi kelib eshik oldida kavush yechayotganini ham payqamagandi. Kichkina Bahodir deb nom chiqargan G‘iyosiddin endi to‘rt yoshga kirgan o‘g‘li Alisherga kulumsirab qarab turdi. “Shul yoshdin kitobga muhabbat qo‘ysa, ulg‘aygach, kitobni ilkidan ayirmay o‘zi bilan asrab yurg‘ay”, deb o‘yladi ota shiringina, do‘mboq o‘g‘lidan ko‘zini uzolmay.

– Ha, bul yerga yoshurunib olib ne qiladur, desam, kitob ko‘rayotgan ekanlar-da, – dedi G‘iyosiddin piching aralash mehr bilan.

Otasi bu gapni sekingina, kulib turib aytgan bo‘lsa-da, Alisher sho‘xlik qilib kattalardan dashnom eshitishdan qo‘rqqan boladek olazarak bo‘lib:

– Ota, mana bul suratni ko‘ring, – dedi. Uning xiyol qiyiq ko‘zlari mo‘ltirar edi. – Mana bul cherik shotidan chiqayotib qulab tushmoqda, qo‘rg‘on ustida turganlar o‘q otib qulatg‘on chiqarlar. Mana bunisi pastdin turib qal’a ustidagilarga o‘q uzmoqda.

Otasi o‘g‘lining gapini tasdiqlagandek bosh irg‘ab, uning qo‘lidan kitobni asta oldi-da, tokchaga – boshqa kitoblar yoniga qo‘ydi.

– Bu kitobning o‘rni tokchada, – dedi u yasama jiddiylik bilan. – Ammo sen yoshliging bois kitob ko‘rmoqqa hali erta. Yirtib qo‘ysang, yaxshi bo‘lmaydi. Uni ikki qo‘y bahosiga sotib olganman.

– Men kitobni yirtmayman, avaylab ko‘raman, – dedi bola.

– Aqlli bolasan-da. Tentak bolalargina ilk qo‘liga tushgan kitobni pora-pora qiladilar. Katta bo‘lganingda senga ajoyib kitoblar sotib olib beraman. Hozircha esa... mana, buni o‘ynab yur, – G‘iyosiddin kulib, cho‘ntagidan bir “sopol qo‘chqor” chiqarib berdi.

Bola bu g‘alati o‘yinchoqni ko‘rib, ko‘zlari quvonchdan porladi.

– Qara, o‘g‘lim, uning muguzlari qayrilgan, suzishga hozirlanib turibdi, – dedi otasi.

– Menga bering! – deya bola sakrab o‘yinchoqni qo‘lidan tortib oldi. – Uni Husaynning qo‘chqori bilan urishtiraman!

G‘iyosiddin devonxonadan kelib dam olgach, ba’zan qo‘liga kitob olib mutolaa qilardi. Shunday paytlarda Alisher yoniga kelib o‘tirar, ovoz chiqarib o‘qib berishini so‘rardi. Otasi esa:

– Yaxshisi, hikoya qilib beray, – deb kitobni yig‘ishtirib qo‘yar va qiziqarli bir ertak aytib berardi.

Alisherning tog‘alari Mirsayyid Kobuliy va Muhammad Ali G‘aribiy o‘qimishli yigitlar bo‘lib, forsiy va turkiy tillarda she’r yozardilar. Ular pochchalari G‘iyosiddinning uyiga kelganlarida ilmiy va adabiy mavzularda qizg‘in bahs-munozaralar bo‘lar, ba’zi kechalari suhbat g‘azalxonlik bilan yakun topardi. Alisher xuddi kattalardek tog‘alari yonida o‘tirib, ularning gaplariga quloq solar, she’r tinglardi. Garchi u hali kitobiy so‘zlar va majoziy she’rlarni to‘liq tushunmasa-da, g‘azallarning ohangi va musiqiyligi unga zavq bag‘ishlardi.

Katta tog‘asi Mirsayyid jiddiy, kamgap, sipo odam edi. Kichik tog‘asi Muhammad Ali esa xushchaqchaq, gapdon yigit bo‘lib, tor va tanburni yaxshi chalar, o‘z suhbati bilan majlisga jon kirgizar edi. Bir kuni u yaqindagina yozgan bir g‘azalini o‘qib berayotganida jiyani Alisherning diqqat bilan quloq solayotganini ko‘rib, hayratda qoladi...



Guruhda ishlash.

1. Bolalar yoshlikdan kitobga mehr qo‘yishlari uchun ularga qanday maslahatlar berasiz?
2. Siz ko‘proq elektron kitoblarni o‘qiysizmi yoki qog‘oz kitoblarni? Ularning ijobiy va salbiy jihatlarini sanang.







IV CHORAK



KISLOROD

1. O‘qing.



Bir kun kechqurun bog‘da yolg‘iz sayr qilib yurar edim. Atrof sokin, salqin shabada esardi. Katta daraxt tagida to‘xtadim.

To‘satdan ichimda bir tuyg‘u uyg‘ondi. Go‘yoki daraxt menga gapirgandek bo‘ldi:

– Salom, bolakay! Men bu yerda yuz yildan beri yashayman. Men tabiatga kislorod hadya qilaman. Meni oddiy daraxt deb o‘ylaysiz, lekin sizga har kuni yordam berayotganimni bilasizmi?

Men ajablandim. Daraxt rostdan gapiryaptimi yoki tasavvurimdami – bilmadim.

– Sen biz uchun muhimmisan? – deb so‘radim.

Daraxtning qalin shoxlari yengil tebranib, dedi:

– Ha, chunki sizlar har bir nafasni men bilan birga olasizlar. Men havodagi karbonat angidridni yutaman va kislorod ishlab chiqaraman. Sizlar menga befarq qaraysizlar. Agar biz – daraxtlar bo‘lmasak, havo ifloslanadi, kislorod kamayadi, siz esa tez charchaysiz, hatto kasal bo‘lib qolishingiz mumkin.

Shunda men pichirlab dedim:

– Endi daraxtlarni ko‘proq ekishga, hatto boshqalarni ham bunga undashga harakat qilaman. Axir sizlar hayotimizga toza havo, salomatlik va go‘zallik baxsh etasiz-ku!

Shu kundan boshlab men har gal daraxt soyasida dam olayotganimda ularga minnatdorlik bilan tabassum qilaman. Axir ular bizga xolis xizmat qilayotgan, bebaho yordamini har kuni taqdim etayotgan yashil mo‘jizalardir.

2. Fikrlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini ayting.

№	FIKR	to‘g‘ri	noto‘g‘ri
		✓	✗
1.	Daraxt bola bilan gaplashdi.	***	***
2.	Daraxt kislorod ishlab chiqarishini aytdi.	***	***
3.	Bola daraxtlarga befarq edi.	***	***
4.	Bola boshqalarga ham daraxt kesmaslikni aytishga va’da berdi.	***	***

3. Testlarni yeching.

1. Bola qayerda sayr qilayotgandi?
A) Uyda
B) Bog‘da
D) Ko‘chada
E) Daryoda

2. Daraxt bola bilan qanday gaplashdi?
A) Yuqori ovozda
B) Telefon orqali
D) Tasavvurida
E) Yozuv orqali

3. Bola daraxtdan nimani o‘rgandi?
A) Daraxtlar qishin-yozin yashnaydi.
B) Daraxtlar faqat soya beradi.
D) Daraxtlar havoni tozalaydi va kislorod beradi.
E) Daraxtlar tez o‘sadi.

Kelasi zamon maqsad fe’li			
	tasdiq shakli	***inkor shakli***	***so‘roq shakli***
Men	*o‘qi+moqchi+man*	*o‘qi+moqchi emas+man*	*o‘qi+moqchi+man+mi?*
Sen	*o‘qi+moqchi+san*	*o‘qi+moqchi emas+san*	*o‘qi+moqchi+san+mi?*
U	*o‘qi+moqchi*	*o‘qi+moqchi emas*	*o‘qi+moqchi+mi?*
Biz	*o‘qi+moqchi+miz*	*o‘qi+moqchi emas+miz*	*o‘qi+moqchi+miz+mi?*
Siz	*o‘qi+moqchi+siz*	*o‘qi+moqchi emas+siz*	*o‘qi+moqchi+siz+mi?*
Ular	*o‘qi+moqchi+lar*	*o‘qi+moqchi emas+lar*	*o‘qi+moqchi+lar+mi?*

4. Yozing.

Namuna: *1. Men hech kimni xafa qilmoqchi emasman.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *xafa qilmaslik, xursand qilmoq, qaytarib bermoq, o‘qishga kirmoq, mutolaa qilmoq, dars qoldirmaslik.*

sayr qilmoq
o‘ylamoq
nafas
pichirlamoq

5. Yozing.

Namuna: *1. Daraxt **yuz** yildan beri yashab kelmoqda.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *kislorod, yuz, karbonat angidrid, xizmat.*

1. Daraxt ... yildan beri yashab kelmoqda.
2. Daraxt ... ishlab chiqaradi.
3. Daraxtlar bizga sukutda ... qiladi.
4. Daraxtlar ...ni yutadi.

6. Yozing.

___ a) Suhbat davomida daraxtning tabiat uchun kerakli ekanini tushundi.
___ b) U daraxt bilan suhbatlashdi.
___ d) O‘simliklarni parvarish qilishga qaror qildi.
__1__ e) Bolakay daraxt ostida to‘xtadi.
___ f) Daraxtsiz hayot qanday bo‘lishini bildi.

7. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Bola qachon bog‘da sayr qilib yurgandi?
2. Daraxt necha yildan beri yashaydi?
3. Daraxt havodan nimani yutadi?
4. Bola endi daraxtlarga qanday munosabatda bo‘ladi?
5. Daraxtlarning qanday foydasi bor?

Quyidagi so‘zlarni daftaringizga yozing, ularning ma’nosini izohlang va har birini qatnashtirib gap tuzing: shabada, kislorod, karbonat angidrid, minnatdorlik, mo‘jiza.

“TOZA HAVO” FESTIVALI

1. O‘qing.

Maktabimizda “Toza havo” festivali bo‘lib o‘tdi. Ustozimiz bir hafta oldin darsda aytdilar: “Bolalar, yaqin kunlarda maktabimizda ekologiya festivali bo‘ladi. Kim ishtirok etmoqchi?”

Men darhol qo‘l ko‘tardim. Dugonam Laylo ham rozi bo‘ldi. Biz daraxt ekish guruhiga yozildik. Festival kuni ertalab soat 9:00 da bog‘ga yig‘ildik. Ustozimiz bizga belkurak, chelak va ko‘chatlar berdi. Daraxt ekishdan oldin yer kovladik. So‘ngra ko‘chatni ekdik va suv quydik.

Biz ekkan daraxt juda chiroyli ko‘rinardi. Uning tanasi ingichka, barglari yashil edi. Men va Laylo unga “Umid” deb nom qo‘ydik. Bizning tabiatga bo‘lgan umidimiz edi bu. Har yili bu daraxt qanchalik katta bo‘lishini tasavvur qilib hayajonlandik.

Festival davomida sahnada tabiat haqida chiqishlar bo‘ldi. Men ham sahnaga chiqdim: “Toza havo – sog‘lom hayot! Har bir daraxt – bizning do‘stimiz!” – dedim.

Zalda qarsaklar yangradi. Juda hayajonlandim, lekin xursand bo‘ldim.

O‘sha kun hayotimdagi eng qiziqarli va foydali kunlardan biri bo‘ldi. Men tabiat haqida ko‘p narsalarni o‘rgandim. Har yili bu festivalda qatnashishga qaror qildim.



2. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Festival qachon bo‘lib o‘tdi?
2. Ustoz bolalarga nima berdi?
3. Muallif va dugonasi nima ish qildilar?
4. Daraxtga nima sababdan “Umid” deb nom qo‘yishdi?
5. Muallif nima haqida nutq so‘zladi?

yig‘ilmoq
hayajonlanmoq
xursand bo‘lmoq
rozi bo‘lmoq

3. Yozing.

Namuna: *1. Biz **ko‘chat** ekish guruhiga yozildik.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *festival, ko‘chat, belkurak, “Umid”, sahna.*

1. Biz ... ekish guruhiga yozildik.
2. Ustozimiz bizga ... va chelak berdi.
3. Daraxtni biz ... deb nomladik.
4. Men ...ga chiqdim.
5. “Toza havo” bu ekologik ... edi.

Kelasi zamon gumon fe’li		
tasdiq shakli		***inkor shakli***
Men	bor+ar+man	bor+mas+man
Sen	bor+ar+san	bor+mas+san
U	bor+ar	bor+mas
Biz	bor+ar+miz	bor+mas+miz
Siz	bor+ar+siz	bor+mas+siz
Ular	bor+ar+lar	bor+mas+lar

4. Yozing.

Namuna: *1. Men ertaga barvaqtroq ketarman.*

1. Men ertaga barvaqtroq ketaman.
2. Sizni o‘zim kutib olmoqchiman.
3. Bugun kechasi yomg‘ir yog‘adi.
4. Ular kelasi yili ham sayohat qilmoqchilar.
5. Bizning mashinamiz tez yetib boradi.
6. Sen bu yerda o‘rganganlaringni boshqalarga ham o‘rgat.

5. Mosini tanlang.

I	II
1. Ko‘chat	a) yer kovlash uchun asbob
2. Belkurak	b) kichik daraxt
3. Festival	d) tantanali tadbir
4. Tabiat	e) atrof-muhit, yer, daraxt va hk.
5. Nutq	f) sahnada gapirish

6. Guruhda ishlash.

“Toza havo” festivalida qatnashsangiz, nimalar qilgan bo‘lardingiz?

1. 5-6 ta gap yozing.
2. Rasm chizing.

Savollarga yozma javob bering.

1. Nega daraxt ekish muhim? Daraxt ekish tabiat uchun juda muhim. Chunki ... .
2. Daraxt ekkanmisiz? Ha/Yo‘q, … .
3. Qachon ekmoqchisiz? … .

“YASHIL SHAHAR” LOYIHASI

1. O‘qing.

“Yashil shahar” nima? Bu faqat ko‘p daraxt va bog‘larni anglatmaydi. Bu odamlar tabiat bilan do‘st bo‘lib yashaydigan, sog‘lom va xavfsiz muhitga ega shahar demakdir.

“Yashil shahar”da:

1. Daraxtlar va gullar ko‘payadi – har bir maktab, uy, ishxona atrofi yashillikka burkanadi.
2. Velosiped va piyoda yo‘laklari quriladi – odamlar mashina o‘rniga velosipedda yurishadi.
3. Eski mashinalar kamayadi – elektromobillar va jamoat transportidan ko‘proq foydalaniladi.
4. Maktablarda yashil sinflar tashkil etiladi – o‘quvchilar ekologik bilim oladilar.
5. Chiqindilar ajratiladi – plastik, qog‘oz, oziq-ovqat chiqindilari alohida yig‘iladi.

“Yashil shahar” loyihasining natijalari:

havo toza bo‘ladi – bolalar va kattalar kamroq kasal bo‘ladi;

shovqin kamayadi – odamlar tinch yashaydi;

insonlar tabiatni qadrlaydi – uni asrashni o‘rganadi;

kelajak avlod sog‘lom muhitda yashaydi.



2. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Yashil shaharda odamlar qanday yashaydi?
2. Yashil shaharda qanday transport vositasidan ko‘proq foydalaniladi?
3. Nima uchun chiqindilar saralab tashlanadi?
4. Nima uchun maktablarda “yashil sinflar” ochilishi zarur?
5. Yashil shahar odamlar salomatligiga qanday ta’sir qiladi?

ifloslanish
bilim
kamroq

3. Yozing.

Namuna: *1. Yashil shaharda odamlar **velosiped**da yurishadi.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *bog‘, velosiped, chiqindi, shovqin.*

1. Yashil shaharda odamlar ...da yurishadi.
2. Havo tozaligini saqlash uchun ...lar ko‘paytiriladi.
3. Bunday shaharlarda ... deyarli bo‘lmaydi.
4. Yashil shaharda ... kamayadi.

4. Yozing.

Namuna: *1. Yashil shaharda qaysi transport ko‘proq ommalashdi? – **Elektromobillar va jamoat transportidan ko‘proq foydalaniladi.***

... ? Elektromobillar va jamoat transportidan ko‘proq foydalaniladi.
... ? Daraxt va gullar ko‘payadi.
... ? O‘quvchilar ekologik bilim oladi.
... ? Odamlar velosipedda yuradi.
... ? Chiqindilar saralab tashlanadi.

5. Dialog tuzing. Nuqtalar o‘rnini to‘ldirib gapiring.

Abror: – Salom! “Yashil shahar” loyihasi haqida eshitdingmi?
Bahora: – Ha, bu juda yaxshi loyiha. Bu shaharda ... ko‘p bo‘ladi.
Abror: – Ha, to‘g‘ri. Yana odamlar mashinalar o‘rniga ... yurishadi.
Bahora: – Maktablarda ham o‘quvchilar ... oladilar.
Abror: – Shunday shaharlar ko‘paysa, havo ... bo‘ladi!

“Kelajakdagi uyim” mavzusida 6–8 gapdan iborat matn yozing. Kelasi zamon maqsad fe’lini qo‘llang.

BOBOMNING BOG‘I

1. O‘qing.



Bobomning bog‘i juda katta edi. Har bahor u yerga borsam, atrofda turli daraxtlar – olma, o‘rik, gilos, bodom gullab-yashnab turardi. Daraxtlarning tagida begona o‘tlar emas, chiroyli gullar o‘sardi. Bog‘da qushlarning sayrashi eshitilib, havosi salqin va toza bo‘lardi.

Bog‘ga kirsam, bobom jilmayib qarshi olib:

– Har bir daraxt – toza havo manbayi, bolam. Biz nafas olayotgan har bir nafasda shularning hissasi bor, – deb aytardi. Men esa o‘sha paytlarda bu gapni uncha tushunmasdim. Bobom daraxtlarni shunchaki yaxshi ko‘radi deb o‘ylagan edim. Men uchun bog‘ o‘yinlar, mevalar va qushlar makoni edi. Ammo bir kuni maktabimizda “Yashil shahar” loyihasi boshlangach, hammasi o‘zgardi. “Yashil shahar bu – daraxtlar, bog‘lar, toza havo va sog‘lom hayot degani”, dedi ustozimiz. U havo qanday ifloslanishini va biz bu muammoni daraxtlar ekish orqali hal qilishimiz mumkinligini aytib berdi.

Shu kundan boshlab bobomning so‘zlari menga boshqacha ta’sir qila boshladi. Endi men bog‘ga borganimda har bir daraxtga boshqacha qarayman. Ularning har biriga suv quyaman, eski barglarni tozalayman, novdalarni kesishga yordam beraman.

Bobomning bog‘i – kichik yashil shaharcha. Unda havoning tozaligi, qushlarning quvonchi va mening sog‘lig‘im yashiringan. Kelajakda butun shahrimiz bobomning bog‘iga o‘xshasin!

2. Testlarni yeching.

1. Boboning bog‘ida qanday daraxtlar bor edi?
A) faqat olma va gilos
B) olma, o‘rik, gilos, bodom
D) faqat o‘rik va gilos
E) olma va uzum

2. Bola avval bobosining so‘zlarini qanday tushungan?
A) juda muhim deb o‘ylagan
B) hech nima tushunmagan
D) shunchaki, bobosi daraxtlarni yaxshi ko‘rishini o‘ylagan
E) ularni noto‘g‘ri deb hisoblagan

3. Yozing.

Namuna: *1. Bog‘da begona o‘tlar emas,* ***chiroyli gullar*** *o‘sardi.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *toza havo manbayi, chiroyli gullar, suv, “Yashil shahar”, shaharcha, eski barglarni.*

1. Bog‘da begona o‘tlar emas, ... o‘sardi.
2. Bobom har bir daraxtni ... deb atardi.
3. Men daraxtlarga suv quyaman va ... yig‘aman.
4. Ustozimiz ... loyihasini tushuntirdi.
5. Endi men bobomning bog‘ini kichik yashil ... deb o‘ylayman.

sayramoq
salqin
novda
o‘xshamoq

4. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Sizning hovlingizda qanday mevalar o‘sadi?
2. Bog‘da yoki daraxt ko‘p ekilgan joylarda havo tozaligini sezganmisiz?
3. Daraxtlarning sababsiz kesilishiga qanday qaraysiz?
4. Kelajakda havo ifloslanmasligi uchun qanday g‘oya taklif qilasiz?

O‘zbek tilida biror ish-harakatning bajarilish yoki bajarilmaslik shartini ifodalash uchun ***Agar*** … ***-sa***, … . qolipidan foydalaniladi: ***Agar*** *yomg‘ir yog‘ma****sa****, sayohatga chiqamiz*.

5. Yozing.

Namuna: *1. Agar poyezdga chipta topilmasa, manzilga avtobus bilan ketamiz.*

1. Agar poyezdga chipta topilmasa, … .
2. Agar rost gapni aytolmasam, … .
3. Agar sizni aldashsa, … .
4. Agar tishingiz og‘rib qolsa, … .
5. Agar telefoningiz yo‘qolib qolsa, … .

6. Guruhda ishlash.

1. Sizningcha, muallif nega: “Shahrimiz bobomning bog‘iga o‘xshasin”, deydi?
2. “Shahrimiz bobomning bog‘iga o‘xshasin” loyihasining rejasini yozing.
3. O‘zingiz yashaydigan joyda shunday bog‘ bo‘lishini istaysizmi? Javobingizni izohlang.

“Mening yashil makonim” mavzusida 6–8 gapdan iborat matn yozing.

EKOQAHRAMON

1. O‘qing.



Mahallamizda bir bola bor, uning ismi Diyor. U har kuni gullar parvarishi bilan shug‘ullanadi. Juda kamgap, lekin doim ish bilan band bo‘ladi. Bir kuni gul ekadi, boshqa kuni ularga suv quyadi, keyingi kuni esa begona o‘tlarni yuladi.

Har kuni ertalab u gulzorga chiqadi. Daraxt tagidagi gullar unga qarab go‘yoki tabassum qilayotgandek tuyuladi. Diyor har bir gulga e’tibor bilan qaraydi, qurigan yaproqlarni olib tashlaydi. Ba’zan u mayin kuy tinglab ishlaydi.

Bir kuni biologiya ustozimiz uni doskaga chiqardi. Unga “Ekoqahramon” yorlig‘i topshirildi. Hamma uni qarsaklar bilan qutladi. Diyor dedi: “Agar har bir bola bittadan gul parvarish qilsa, butun shahar gulzorga aylanadi”.

Men o‘sha gaplardan ilhomlandim. Uyimiz oldida kichkina bo‘sh yer bor edi. U yerga gul ekdim. Har kuni tongda ertaroq turib, gullarimni sug‘ora boshladim. Keyin esa opam, ukam yordam bera boshlashdi. Shu yer gulzorga aylandi. Endi bizning ko‘chamiz yanada chiroyli ko‘rinadi. Diyorni ko‘rsam, o‘zimcha faxr bilan aytaman: “Men ham endi ekoqahramonman!”

2. Matn asosida tartiblang.

yaproq
yulmoq (o‘tlarni)

___ Muallifning oilasi ham yordam bera boshladi.
_1_ Diyor har kuni gullar parvarishi bilan shug‘ullanadi.
___ Diyor maktabda “Ekoqahramon” deb e’lon qilindi.
___ Muallif o‘z uyi yoniga gul ekdi.
___ Muallif faxr bilan: “Men ham endi ekoqahramonman”, deydi.

Kerak (zarur, shart) so‘zi fe’llar bilan birga kelib, ish-harakatning bajarilish yoki bajarilmaslik shartini anglatadi.

	bor~~moq~~		
	tasdiq shakli	***so‘roq shakli***	***inkor shakli***
Men	bor+ish+im kerak	bor+ish+im kerakmi?	bor+ish+im kerak emas
Sen	bor+ish+ing kerak	bor+ish+ing kerakmi?	bor+ish+ing kerak emas
U	bor+ish+i kerak	bor+ish+i kerakmi?	bor+ish+i kerak emas
Biz	bor+ish+imiz kerak	bor+ish+imiz kerakmi?	bor+ish+imiz kerak emas
Siz	bor+ish+ingiz kerak	bor+ish+ingiz kerakmi?	bor+ish+ingiz kerak emas
Ular	bor+ish+lari kerak	bor+ish+lari kerakmi?	bor+ish+lari kerak emas

3. Yozing.

Namuna: *1. Otabek kabob uchun bozordan zira-piralarni ham sotib olishi kerak.*

1. Otabek kabob uchun bozordan zira-piralarni ham *sotib olmoq*.
2. Sen hayot saboqlarini *o‘rganmoq*.
3. Kun bo‘yi uxlab yotma, sport bilan *shug‘ullanmoq*.
4. Sinfdoshlaringni chaqir, darsimizni *boshlamoq*.
5. O‘quvchilar daftariga keraksiz narsalarni *yozmoq*.

4. Fikrlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini ayting.

№	FIKR	to‘g‘ri	noto‘g‘ri
		✓	✗
1.	Diyor har kuni sport bilan shug‘ullanadi.	***	***
2.	Uyimiz oldida kichkina bo‘sh yer bor.	***	***
3.	Muallif faqat o‘zi gul ekdi, hech kim unga yordam bermadi.	***	***
4.	“Ekoqahramon” yorlig‘i Diyorga berildi.	***	***
5.	Ko‘chada qushlar ko‘paydi.	***	***

5. Yozing.

Namuna: *1. Diyor har kuni mehr bilan gullarga suv quyadi.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *mehr, kuy, chiroyli, bittadan gul eksa.*

1. Diyor har kuni ... bilan gullarga suv quyadi.
2. Bizning ko‘chamiz yanada ... bo‘ldi.
3. Diyor: “Agar har bir bola ..., butun shahar gulzor bo‘ladi”, dedi.
4. Ba’zan u yoniga radio qo‘yib, ... tinglab asta-sekin ishlaydi.

Biologiya darslarida olgan bilimlaringiz asosida 3 xil gulning parvarishi haqida ma’lumot yozing.

VELOSIPED – TABIATGA DO‘ST

1. O‘qing.

1. Velosiped yonilg‘i talab qilmaydi, shuning uchun havoga zararli gaz chiqarmaydi.
2. Havo ifloslanishini kamaytiradi, ayniqsa, shaharlarda bu juda muhim.
3. Velosiped shovqin chiqarmaydi, shuning uchun atrof tinch bo‘ladi.
4. Velosiped ishlab chiqarish uchun ozgina xomashyo kifoya va u uzoq yillar xizmat qiladi.
5. Velosiped yo‘lakchalari keng emas, shuning uchun daraxtlar kesilmaydi.
6. Suv tejaladi, chunki uni yuvish uchun ko‘p suv kerak emas.
7. Ta’miri oddiy, maxsus texnikaga ehtiyoj bo‘lmaydi.
8. Bolalar va oila a’zolari uchun xavfsiz transport.
9. Mashinalarga qaraganda kam joy oladi – shaharda yashil hududlarni ko‘paytirishga yordam beradi.
10. Harakatli turmushni ta’minlaydi, bu esa sog‘likni mustahkamlaydi va ekologik ongni o‘stiradi.



2. Guruhda ishlash.

Sabab (nima sababli?)	Natija (nima bo‘ladi?)
Velosiped benzin talab qilmaydi.	***
Velosiped uchun ozgina xomashyo kifoya.	***
Velosiped shovqin chiqarmaydi.	***
Maxsus veloyo‘laklar kerak.	***

kamaytirmoq
resurs
yo‘lak
sog‘lik

3. Gapiring.

1. Velosiped yo‘laklarini ko‘paytirish zarur. Chunki …
2. Havo ifloslanishini kamaytirish uchun velosipedda yurish kerak. Chunki …
3. Bolalar uchun xavfsiz yo‘l belgilari bo‘lishi shart. Chunki …
4. Velosiped yuvishga kam suv ishlatiladi. Chunki …
5. Atrof-muhitni asrash uchun mashinalardan ko‘ra velosipeddan foydalanish zarur. Chunki …

4. Yozing. *Shart, kerak, zarur* so‘zlari bilan quyidagi fe’llarni bog‘lab, shart mazmunli gaplarga misollar yozing.

Namuna: *1. Biz kitoblarni asrashimiz kerak.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *asramoq, o‘rganmoq, javob bermoq, sabr qilmoq, kutib olmoq, keltirmoq.*

5. Tinglang.



6. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Yo‘lda qanday muammo yuz berdi?
2. Velosipedda ketayotgan odam qanday harakat qildi?
3. Muallif velosipedni avval nima uchun minib yurardi?
4. “Eko-velokun” loyihasida nima qilinadi?
5. Muallif o‘z velosipedini qanday ta’riflaydi?

1. Agar siz har kuni velosipedda yursangiz, hayotingizda nima o‘zgaradi?
2. Shahar yoki mahallada qanday ijobiy o‘zgarishlar bo‘ladi?
3. Sizningcha, bu odat boshqalarga qanday ta’sir qiladi. Shu haqda yozing.

XOBBINING 5 TURI

1. O‘qing.

Xobbi – odamning bo‘sh vaqtida shug‘ullanadigan sevimli mashg‘uloti. Har bir insonda o‘ziga xos qiziqish bo‘ladi. Kimdir rasm chizishni yoqtiradi, kimdir esa musiqa chalishni. Yana boshqalar robot yasash, kitob o‘qish yoki sport bilan shug‘ullanishni yaxshi ko‘radi. Bu mashg‘ulotlar insonni quvontiradi va unga zavq bag‘ishlaydi.

Xobbi nafaqat ko‘ngil ochish, balki o‘rganish va o‘z ustida ishlash imkoniyatini ham beradi. Xobbi bilan shug‘ullanish orqali inson o‘zida yangi qobiliyatlarni kashf etadi, ijodkorlikni rivojlantiradi va hayotga ijobiy qaraydi. Masalan, rasm chizadigan bola e’tiborli va sabrli bo‘ladi, musiqa chaladigan bola esa ohanglarni farqlashni va ijod qilishni o‘rganadi.

5 ta keng tarqalgan xobbi

1. Musiqa – rubob, doira, fortepiano chalish.
2. Tasviriy san’at – rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika.
3. Aqliy o‘yinlar – shaxmat, krossvord.
4. Qo‘l mehnati – to‘qish, tikish, quroq.
5. Kitob o‘qish – ertak, fantastik asarlar, tarixiy hikoyalar.

Xobbi orqali inson yangi qirralarini kashf qilishi va o‘sishi mumkin!



2. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Xobbi nima?
2. Xobbilar insonga zavq bag‘ishlay oladimi? Nega?
3. Xobbi bilan shug‘ullanish odamga nima beradi?
4. Musiqa bilan shug‘ullanadigan bolada qanday qobiliyatlar bo‘ladi?

3. Fikrlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini ayting.

№	FIKR	to‘g‘ri	noto‘g‘ri
		✓	✗
1.	Xobbi faqat ko‘ngil ochish uchun kerak.	***	***
2.	Rasm chizish sabr va e’tibor talab qiladi.	***	***
3.	Musiqa chalish odamlarni xafa qiladi.	***	***
4.	Aqliy o‘yinlar robot yasashni o‘rgatadi.	***	***

4. Mosini tanlang.

1. Yaxshi so‘z eshitmoqchi bo‘lsang, yomon gap	a) borib turishimiz shart.
2. Men ular bilan ochiqcha	b) ishlashingiz kerak.
3. Barchamiz tez-tez kutubxonalarga	d) gaplashishim shart.
4. Boshlangan ishni chala	e) yo‘lga chiqish shart emas.
5. Hozir dolzarb payt, barchangiz yeng shimarib	f) aytishing kerak emas.
6. Hozir yomg‘ir yog‘yapti, shuning uchun	g) tashlab qo‘yish kerak emas.

5. Yozing.

Quyidagi so‘zlarga *kerak, shart* so‘zlarini qo‘shib, 6 ta gap tuzing:

- musiqa
- sabr
- kitob
- tovush
- daryo
- mehr

bo‘sh vaqt
yasamoq
o‘rganmoq
e’tiborli
to‘qimoq

6. Guruhda ishlash.

Guruhlarga bo‘linib, jadvalni to‘ldiring.

• shaxmat, doira, to‘qish, kitob o‘qish, rasm chizish, krossvord, fortepiano chalish, tikish, rubob, to‘qish, kubik-rubik.

1) musiqa	doira	***	***	***
2) aqliy o‘yinlar	***	***	***	***
3) qo‘l mehnati	***	***	***	***

“Mening sevimli xobbim” mavzusida 5-6 gapdan iborat matn yozing.

BOBOM VA MEN

1. O‘qing.



Bobom yoshligida rubob chalgan ekan. Har safar biznikiga kelganida o‘tgan kunlarini eslab, “Men bu kuylarni yoshlikda daryo bo‘yida chalardim”, derdi. Men har doim u bilan faxrlanardim, lekin o‘zim rubob chalishni o‘rganmagan edim.

Bir kuni bobom menga eski, lekin mehr bilan saqlangan rubobini berdi. Rubobning ustida kichkina tirnalgan va kulrang dog‘lari bor edi. Bobom: “Bu rubob menga ko‘p quvonch bergan. Endi sen ham o‘rganib ko‘r”, dedi.

Dastlab chala olmadim. Barmoqlarim og‘ridi, tovushlar noaniq chiqardi. Asabiylashdim, hattoki rubob chalishni tashlab qo‘yishni ham o‘yladim. Ammo bobom sabr bilan yonimda turdi. Ohanglar qanday hosil bo‘lishini tushuntirdi.

Har kuni maktabdan keyin bobom bilan birga mashq qilardik. U meni qo‘llab-quvvatlar, har kichik muvaffaqiyatimga quvonardi. Oradan bir oy o‘tib, men ilk bor to‘liq kuy chala oldim. Bobom juda quvondi.

Endi har kuni yangi kuy chalishga harakat qilaman. Ba’zan o‘zimcha kuylab, so‘zlar ham yozaman. Uyda hammamiz yig‘ilamiz, men rubob chalaman, bobom esa qo‘shiq aytadi.

Bu xobbi men bilan bobomni yanada yaqinlashtirdi. Musiqa faqat kuy emas, balki mehr, sabr va oilaviy quvonch ham ekan.

2. Yozing.

Namuna: *1. Bobom yoshligida **rubob** chalgan.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *saboq, to‘liq kuy, rubob, dog‘lar, chala olmadim.*

1. Bobom yoshligida … chalgan.
2. Rubob sirtida … bor edi.
3. Men dastlab … .
4. Bobom menga … berdi.
5. Men ilk bor … chalishga erishdim.

eslamoq
kuy
dog‘
tirnamoq
ohang

3. Fikrlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini ayting.

№	FIKR	to‘g‘ri ✓	noto‘g‘ri ✗
1.	Bobom yoshlikda shaxmat o‘ynashni yaxshi ko‘rgan.	***	***
2.	Bobom biz bilan birga yashaydi.	***	***
3.	Men tezda rubob chalishni o‘rgandim.	***	***
4.	Bobom men uchun daftar ochdi.	***	***

4. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Siz uchun musiqa asbobining eng muhim jihati nimada: ovozi, ko‘rinishi yoki uni chalish qiyinligida?
2. Qaysi musiqa asbobini o‘rganish uchun eng qiyini deb o‘ylaysiz? Nega?

Tushum kelishigi qo‘shimchasi ***-ni*** fikr mavzusini anglatganda ***haqida*** ko‘makchisi bilan sinonim bo‘la oladi: *Yana **shaxmatni** o‘ylaylik. – Yana **shaxmat haqida** o‘ylaylik.*

5. Yozing.

Namuna: *1. Sodda insonlarga xos belgilar **haqida** so‘zlab bering.*

1. Sodda insonlarga xos belgilar***ni*** so‘zlab bering.
2. Non qadrini avval ham bilganmisiz?
3. Navro‘z bayramini qanday nishonlashni gaplashib olishimiz kerak.
4. Bu qurilma qanday ishlashini bilib oldik.
5. O‘ktam bu voqeaning tafsilotini ko‘p eshitgan.

6. Yozing.


Oila a’zolaringizning qanday sevimli mashg‘ulotlari bor?
Bu haqda 4-5 ta gap yozing.

7. Guruhda ishlash. Yozing.

Namuna: *1. **Mehr** ko‘zda, deydi dono xalqimiz.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *sabr, mehr, qo‘llab-quvvatlash, kuy, davom ettirish.*

“Mening xobbim” mavzusida quyidagi mazmunda taqdimot tayyorlang:
1. Sizning sevimli mashg‘ulotingiz nima?
2. Ushbu mashg‘ulot oilangizga qanday ta’sir qiladi?



CHO‘LPON

GO‘ZAL

Qorong‘u kechada ko‘kka ko‘z tikib,
Eng yorug‘ yulduzdan seni so‘raymen.
Ul yulduz uyalib, boshini bukib,
Aytadir: “Men uni tushda ko‘ramen.
Tushimda ko‘ramen, shunchalar go‘zal,
Bizdan-da go‘zaldir, oydan-da go‘zal!”

Ko‘zimni olamen oy chiqqan yoqqa,
Boshlaymen oydan-da seni so‘rmoqqa.
Ul-da aytadirki: “Qizil yonoqqa
Uchradim tushimda, ko‘milgan oqqa.
Oqqa ko‘milganda shunchalar go‘zal,
Mendan-da go‘zaldir, kundan-da go‘zal!”

Erta tong shamoli sochlarin yozib,
Yonimdan o‘tganda so‘rab ko‘ramen.
Aytadir: “Bir ko‘rib, yo‘limdan ozib,
Tog‘-u toshlar ichra istab yuramen!
Bir ko‘rdim men uni – shunchalar go‘zal,
Oydan-da go‘zaldir, kundan-da go‘zal!”

Ul ketgach, kun chiqar yorug‘liq sochib,
Undan-da so‘raymen sening to‘g‘ringda.
Ul-da uyatidan berkinib, qochib,
Aytadir: “Bir ko‘rdim, tushdamas, o‘ngda.

Men o‘ngda ko‘rganda shunchalar go‘zal,
Oydan-da go‘zaldir... mendan-da go‘zal!”

Men yo‘qsil na bo‘lub uni suyibmen?!
Uning-chun yonibmen, yonib-kuyibmen.
Boshimni zo‘r ishga berib qo‘yibmen,
Men suyib… men suyib… kimni suyibmen?
Men suygan suyukli shunchalar go‘zal,
Oydan-da go‘zaldir, kundan-da go‘zal!

BINAFSHA

Binafsha senmisan, binafsha senmi –
Ko‘chada aqchaga sotilgan.
Binafsha menmanmi, binafsha menmi –
Sevgingga, qayg‘ingga tutilgan?
Binafsha, nimaga bir ozroq ochilmay,
Bir erkin kulmasdan uzilding?
Binafsha, nimaga hidlaring sochilmay,
Yerlarga egilding, cho‘zilding?
Binafsha,
Ayt menga,
Kimlardir, ularkim,
Ignani bag‘ringga sanchalar?
Binafsha,
Bir so‘yla,
U qanday qo‘llarkim,
Uzalar, hidlaylar, yanchalar?
Binafsha, shunchalar chiroyli yuzing bor,
Nimaga uzoqroq kulmaysan?
Binafsha, shunchalar tortguvchi tusing bor,
Ko‘nglimga isriklik to‘kmaysan?
Binafsha, yig‘lama, binafsha, kel beri,
Qayg‘ingni qayg‘imga qo‘shgil.
Binafsha, sen uchun ko‘kragim erk yeri,
Bu yerdan ko‘klarga uchgil.
Binafsha, go‘zalim, qayg‘ilim, kelmaysan,
Qayg‘ing zo‘r, qayg‘imni bilmaysan,
Menga bir kulmaysan!



Guruhda ishlash.

Guruhlarga bo‘linib, she’rlarni tahlil qiling.

OILA BYUDJETI VA QADRIYATLARIMIZ

1. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Oila daromadi nima?
2. Pulni jamg‘arish nima uchun kerak?
3. Oila byudjeti nima?
4. Ota-onalar nima uchun oila byudjetini tuzadi?

daromad
ehtiyoj
jamg‘arma
muhokama

2. O‘qing.

Baxtli oila o‘zaro yordam berish va bir-birini tushunish asosiga quriladi. Oila uchun pul muhim vosita. Pulga oziq-ovqat, kiyim-kechak, maktab uchun kitoblar va boshqa zarur narsalar olinadi.

Oybekning oilasi pulni qanday ishlatishni yaxshi biladi. Oy boshida ota-onasi oila byudjetini tuzadi. Byudjet – oylik daromad va xarajatlarni rejalashtirish degani. Oila daromadi – ota-onaning ishlashi natijasida keladigan mablag‘. Xarajatlar esa – oziq-ovqat, kommunal to‘lovlar, kiyim-kechak va boshqa zarur xaridlar uchun sarflanadigan pul.

Oybekning onasi har doim oilaning eng muhim ehtiyojlariga pul sarflashga harakat qiladi. Masalan, bolalarning ta’limi uchun kitoblar olish, salomatlik uchun dorilar sotib olish yoki uyni ta’mirlash. Shuningdek, ular oz-ozdan pul jamg‘arishga ham odatlanishgan, chunki bu orqali kelajakda yangi imkoniyatlarga erishish mumkin.

Oybekning oilasida pul mavzusida tez-tez suhbatlashib turiladi. Birga o‘tirib, byudjetni muhokama qilinadi, xarajatlarni tartibga solinadi va kelajak uchun rejalar tuziladi. Bu oila a’zolari bir-birini tushunishi va birgalikda qaror qabul qilishida yordam beradi.

Shuning uchun oila byudjeti faqat raqamlar emas, balki oilaviy qadriyatlar, hurmat va ishonch belgisidir. Oila birlashganda, har qanday qiyinchilik osonroq hal bo‘ladi.



3. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Matn nima haqida?
2. Oybekning oilasida pul qanday ishlatiladi?
3. Oybekning onasi pulni nimaga sarflaydi?
4. Oybekning oilasi xarajatlari nimalarni o‘z ichiga oladi?

O‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasi **-da** vosita ma’nosini anglatganda ***bilan*** ko‘makchisiga sinonim bo‘la oladi: *Biz bog‘ni kichik **elektr avtobusda** aylanib chiqdik.*
*– Biz bog‘ni kichik **elektr avtobus bilan** aylanib chiqdik.*

4. Yozing.

Namuna: *1. Bu yerlarda havo sharida sayohat qilish ham mumkin – Bu yerlarda havo shari bilan sayohat qilish ham mumkin.*

1. Bu yerlarda havo sharida sayohat qilish ham mumkin.
2. O‘qishga ba’zan metroda, ba’zan avtobusda boraman.
3. Nukusdan Andijonga samolyotda qaytdik.
4. Ba’zi shaharlarda odamlar ishga yo‘lovchi paroxodida ham qatnaydilar.
5. Toshkent va Navoiy orasidagi masofa 500 kilometrdan ko‘p. Navoiyga velosipedda borib bo‘lmaydi.

5. Testlarni yeching.

1. Oila byudjeti bu:
A) oylik daromad va xarajatlarni rejalashtirish
B) o‘yin o‘ynash
D) pulni sarflash

2. Oila daromadi bu:
A) ota-onaning ishlashi natijasida keladigan mablag‘
B) xarajatlar
D) pulni tejash

3. Oybekning oilasida pul nimalarga ishlatiladi?
A) oziq-ovqat, kiyim-kechak va kitoblar olish uchun
B) sayohat uchun
D) faqat o‘yin uchun

4. Oybekning oilasida pul haqida gaplashish:
A) juda muhim
B) keraksiz
D) taqiqlangan

6. Yozing.

Namuna: *1. Ota-onasi oy boshida reja tuzadi.*

1. Ota-onasi oy boshida ... tuzadi.
2. Xarajatlar – ..., kiyim-kechak va boshqa ehtiyojlar uchun chiqimlar.
3. Oybekning onasi pulni eng muhim ... sarflaydi.
4. Oila byudjeti faqat raqamlar emas, balki ... belgisi hamdir.

7. Guruhda ishlash.

1. Byudjet – …
2. Xarajat – …
3. Daromad – …
4. Tejash – …
5. Ehtiyoj – …

Oilangizda pul qanday ishlatilishini quyidagi topshiriq asosida yozing.
1. Ota-onangiz bilan pul haqida qisqa suhbat qiling va uchta asosiy xarajatingizni aniqlang.
2. Pulni tejash va jamg‘arish haqida fikringizni yozing.

MILLIY BOZOR

1. O‘qing.





O‘zbekistonning ikki yirik shahri Samarqand va Toshkentda joylashgan Siyob va Chorsu bozorlari nafaqat savdo joyi, balki xalqimiz boy madaniy merosining ajralmas qismi hisoblanadi.

Siyob bozori Samarqand shahrining eng qadimiy va mashhur bozoridir. Uning tarixi ming yilliklarga borib taqaladi. Samarqand qadimdan Buyuk ipak yo‘lining muhim shaharlaridan biri bo‘lgan, shuning uchun Siyob bozori ham ko‘plab sayyohlar va savdogarlar yig‘ilgan markaz sifatida rivojlangan. Bu bozor shaharning markazida joylashgan va bugungi kunda ham yangi sabzavot, meva, go‘sht, non kabi kundalik mahsulotlar bilan to‘la. Bundan tashqari, bozor hududida hunarmandlar milliy gilamlar, ipak matolar, sopol idishlar va boshqa mahsulotlarni sotadilar.

Chorsu bozori esa Toshkentning eng qadimiy va yirik bozori. Chorsu so‘zi fors tilida “to‘rt yo‘l” degan ma’noni anglatadi, chunki bozor shaharning markaziy chorrahasida joylashgan. Bozorning tarixi yuzlab yillarni o‘z ichiga oladi va u ham Buyuk ipak yo‘lining muhim savdo nuqtalaridan biri bo‘lgan. Bu yerda ham yangi sabzavot, meva, baliq, go‘sht, milliy taomlar uchun zarur mahsulotlar, shuningdek, milliy kiyim-kechak va hunarmandchilik buyumlari sotiladi.

Hozirgi kunda ikkala bozor ham o‘zbek xalqining iqtisodiy hayotida muhim o‘rin tutadi. Bozorlar orqali nafaqat mahsulotlar sotiladi, balki milliy an’ana va qadriyatlar ham avloddan avlodga yetkaziladi. Siyob va Chorsu bozorlari yoshlarni o‘z tarixini hurmat qilishga, milliy madaniyatini asrashga undaydi.

2. Fikrlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini ayting.

№	FIKR	to‘g‘ri	noto‘g‘ri
		✓	✗
1.	Siyob bozori Toshkentda joylashgan.	***	***
2.	Chorsu bozori shaharning markaziy chorrahasida joylashgan.	***	***
3.	Bozorlarda faqat sabzavot sotiladi.	***	***
4.	Siyob bozori tarixiy jihatdan muhim.	***	***
5.	Bozorlar faqat savdo maskanidir.	***	***

3. Mosini tanlang.

I	II
Siyob bozori	a) Toshkent
Chorsu	b) Samarqand
Ipak	d) hunarmandlar mahsuloti
Sopol idishlar	e) mato turi
Savdo	f) mahsulotlarni sotish

madaniy
sopol
asramoq
savdogar
sayyoh
hunarmand

4. Yozing.

Foydalanish uchun so‘zlar: *to‘rt yo‘l, Samarqand, ipak matolar, asrashga, qadriyatlarni.*

1. Siyob bozori ... shahrida joylashgan.
2. Chorsu so‘zi fors tilida ... degan ma’noni anglatadi.
3. Bozorda milliy gilamlar va ... sotiladi.
4. Bozorlar milliy an’ana va ... saqlaydi.
5. Bozorlar yoshlarni madaniyatni ... undaydi.

5. Guruhda ishlash. Bozorlar haqida kamida 5 ta ma’lumot yozing.

Siyob		Chorsu	
1.	***	1.	***
2.	***	2.	***
3.	***	3.	***
4.	***	4.	***
5.	***	5.	***

Yashash hududingizdagi mashhur bozor haqida qisqacha matn yozing.
1. Bu bozorlarda sotiladigan mahsulotlarni sanab bering.
2. Bozor nima uchun muhim deb o‘ylaysiz?

PUL NIMA?

1. O‘qing.



Pul har qanday mahsulot yoki xizmat uchun to‘lov vositasidir. Pul yordamida odamlar o‘z ehtiyojlari uchun tovarlarni sotib oladi yoki sotadi. Pul kashf qilinmagan paytlar odamlar mahsulotlarni almashish bilan oldi-sotdi qilgan.

Pulning tarixi qadimgi davrga borib taqaladi. Dastlab odamlar narsalarni to‘g‘ridan to‘g‘ri almashtirgan. Masalan, bir kishi bug‘doyni baliqqa almashtirgan. Keyinchalik bu usul noqulay bo‘lgani uchun odamlar metall tangalarni ishlatishni boshlagan. Tangalar tashish va saqlash oson bo‘lgani uchun tez tarqaldi.

O‘zbekiston hududida ham qadimda oltin va kumush tangalar ishlatilgan. Bu tangalarda o‘ziga xos naqshlar va davlat ramzlari bo‘lgan. Bugungi kunda esa biz pul sifatida naqd pul (tangalar va banknotalar) va bank kartalaridan foydalanamiz.

Har bir davlatning o‘z milliy valyutasi bor. Milliy pul birligi davlatning iqtisodiy mustaqilligini ifodalaydi. O‘zbekistonda milliy pul birligi so‘m deb ataladi. So‘mda o‘zbek xalqining madaniyati va tarixini aks ettiruvchi rasm va naqshlar mavjud.

Pul nafaqat muomala vositasi, balki xalqning madaniyati va tarixini aks ettiruvchi buyumdir. Shuning uchun pulni qadrlash va to‘g‘ri ishlatishni o‘rganish muhim.

2. Mosini tanlang.

I	II
Pul	metall pul
Almashish	narsalarni o‘zaro ayirboshlash
Tanga	maxsus to‘lov vositasi
Milliy pul	qog‘oz pul
Banknota	davlatning o‘z pul birligi

to‘lov vositasi
almashtirish
noqulay
tarqalmoq

3. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Odamlar pul kashf qilinmagan paytda qanday yo‘l bilan oldi-sotdi qilishgan?
2. Nima uchun odamlar metall tangalarni ishlata boshlashgan?
3. Qadimda O‘zbekiston hududida qanday tangalar ishlatilgan?
4. Hozirgi kunda odamlar pul sifatida nimalardan foydalanishadi?
5. O‘zbekistonning milliy pul birligi nima deb ataladi?

Biror narsaning sababini bilish uchun o‘zbek tilida ***nima uchun?*** so‘rog‘i ishlatiladi. Bunday gaplar so‘roq gaplar bo‘lgani uchun gap oxirida so‘roq belgisi qo‘yiladi.
*Pul **nima uchun** muhim?*

4. Gaplarga mos savol tuzing.

Namuna: *1. Odamlar kislorodsiz yashay olmaydi. – Nima uchun odamlar kislorodsiz yashay olmaydi?*

1. Odamlar kislorodsiz yashay olmaydi.
2. Pul jo‘natish uchun bank o‘z xizmatlarini taklif qiladi.
3. O‘qituvchi – hurmatga loyiq inson.
4. O‘zbekiston – jannatmakon yurt.
5. Vatanimiz hududidan ko‘plab allomalar yetishib chiqqan.
6. Beruniy qomusiy olim hisoblanadi.

5. Guruhda ishlash. Yozing.

10 ta davlat nomi va ularning pul birliklarini yozing.

6. Yozing.

6–8 ta gapdan iborat matn tuzing. Unda quyidagi savollarga javob bo‘lsin.

- *Pul tarixi haqida nima bilasiz?*
- *Pul hayotingizda qanday rol o‘ynaydi?*

Oilangiz yoki do‘stlaringiz bilan pulni tejab ishlatish haqida suhbat quring. Suhbatdan so‘ng 3 ta xulosa yozing.

XARID QILISH

1. O‘qing.



15 yoshli Oydin har hafta oilasi bilan bozorga borib, nafaqat oziq-ovqat xarid qilar, balki ona yurtining boy madaniyati va an’analari bilan ham tanishardi. Onasi unga har doim milliy mahsulotlarni tanlashning ahamiyatini tushuntirar edi.

“Qizim, – deya gap boshlardi onasi, – milliy mahsulotlarimiz xalqimizning turmushi, tarixi va san’ati timsolidir. O‘zbek noni, asal, milliy gilam, ipak mato – bular bizning milliy qadriyatlarimiz demak”.

Bozor gavjum va sershovqin bo‘lsa-da, Oydin har bir milliy gilam, ipak mato va sopol idishda hunarmandlarning mehnati va mehrini his qilardi. U har bir mahsulotga qarab, ularning nafaqat moddiy, balki ma’naviy qadrini ham anglar edi.

“Xarid qilish faqat pul sarflash emas”, derdi ona muloyim ovozda. “Bu o‘z madaniyatimizni hurmat qilish, hunarmandlarimiz va dehqonlarimiz mehnatini qadrlashdir. Milliy mahsulotlarni tanlash bilan biz ularni qo‘llab-quvvatlaymiz”.

Oydin bu so‘zlarni qalban his etdi. U o‘zbek mahsulotlarini xarid qilib, xalqining boy madaniyatini saqlash va rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shishni niyat qildi.

2. Gaplarni davom ettiring.

1. Oydin har hafta bozorga borar edi. U yerda ... .
2. Ona milliy mahsulotlarni xarid qilishni maslahat berardi. Chunki ... .
3. Milliy mahsulotlar xalqimizning turmushi va san’ati timsolidir. Shuning uchun ... .
4. Xarid qilish madaniyatini o‘rganish muhim. Chunki ... .

3. Mosini tanlang.

I	II
Milliy mahsulotlar	a) bozorga boradigan qiz
Oydin	b) xalqimizning tarixi va san’ati
Milliy mahsulot xarid qilish	d) o‘z madaniyatiga hurmat
Bozor	e) maslahat beruvchi shaxs
Ona	f) savdo joyi

4. Yozing.

Foydalanish uchun so‘zlar: *milliy, onasi, hurmat, saqlashga, ahamiyati.*

1. Oydin bozorga ... bilan borardi.
2. Onasi unga milliy mahsulotlarni tanlashning ...ni tushuntirar edi.
3. Milliy gilam va ipak mato ... qadriyatlarni ifodalaydi.
4. Milliy mahsulotlarni xarid qilish faqat pul sarflash emas, balki madaniyatga ...dir.
5. Oydin xalqining boy madaniyatini ... va rivojlantirishga hissa qo‘shmoqchi.

Gaplar ***nima uchun?*** murakkab so‘rog‘i bilan tuzilganda, uning javobi ***chunki*** yoki ***negaki*** bog‘lovchilari bilan boshlanadi:
– ***Nima uchun*** *qushlar uchadi?*
– ***Chunki*** *qushlarning qanoti bor.*

5. Yozing.

Namuna:
– *Nima uchun suv ichamiz?*
– *Chunki chanqog‘imizni qondirishimiz kerak.*

1. Nima uchun suv ichamiz?
2. Nima uchun Sharqda mahsulotlar bozordan xarid qilinadi?
3. Nima uchun Alisher Navoiy “G‘azal mulkining sultoni” deyiladi?
4. Nima uchun Xiva ochiq osmon ostidagi muzey shahar deyiladi?
5. Nima uchun qaldirg‘ochlar bahorda uchib keladi?

tanlamoq
tanishmoq
mahsulot
sarflamoq

6. Guruhda ishlash. Bozor va savdo markazini taqqoslang.

Bozor			Savdo markazi		
	+	-		+	-
1.	***	***	1.	***	***
2.	***	***	2.	***	***
3.	***	***	3.	***	***
4.	***	***	4.	***	***

7. Yozing.

Mahsulot	Milliylik belgilari	Nima uchun muhim?
gilam	***	***
ipak mato	***	***
o‘zbek noni	***	***
shirinlik	***	***

Milliy mahsulotlardan birini tanlang. Uning qanday tayyorlanishi yoki qanday ishlatilishi haqida qisqacha matn yozing.

BIR KUNLIK BYUDJET

1. O‘qing.

Mening ismim – Sardor. Men litseyda o‘qiyman. Dadam menga bir kunlik xarajatlarim uchun pul beradi. Bu pul – mening kichik byudjetim. Odatda 30 000 so‘m olaman. Bu pulni qanday ishlatishim – o‘zimga bog‘liq.

O‘qishga borib kelish uchun yo‘l haqi 5 000 so‘m. Tushlik uchun 15 000 so‘m. Unga issiq choy va somsa sotib olaman. Shunda 20 000 so‘m sarflangan bo‘ladi.

Darsdan keyin do‘stlarim bilan kitob do‘koniga borishni yaxshi ko‘raman. O‘tgan safar 10 000 so‘mga ukam uchun hikoyalar kitobini sotib oldim. Ammo bugun o‘yladim: pulni jamg‘arsam, bir necha kundan keyin kattaroq narsa, masalan, yangi daftarlar to‘plami yoki kichik esdalik sovg‘asi sotib olsam ham bo‘ladi.

Shuning uchun bugun qolgan 10 000 so‘mni sarflamay, jamg‘arib qo‘ydim. Hatto daftarchamga: “Sarflangan: 20 000 so‘m. Tejalgan: 10 000 so‘m” deb yozib qo‘ydim.

Byudjet tuzish va unga amal qilish hayotda juda kerakli ko‘nikma. Pul oz bo‘lsa ham, uni to‘g‘ri sarflashni o‘rganish katta ish.



2. Yozing.

Foydalanish uchun so‘zlar: *30 000 so‘m, 2 500, 10 000 so‘m, choy, amal qilish, somsa.*

1. Dadamdan kunlik xarajatlarim uchun ... olaman.
2. Ertalab maktabga borish uchun yo‘l haqi ... ketadi.
3. Tushlikda men ... va ... olaman.
4. Bugun men ... tejadim.
5. Byudjet tuzish va unga ... kerak.

xarajat
tushlik
jamg‘armoq
to‘plam
ko‘nikma

3. Mosini tanlang.

I	II
Byudjet	a) hadya qilinadigan narsa
Yo‘l haqi	b) pulni noo‘rin sarflamaslik
Tejash	d) qaydlar uchun daftarcha
Kichik daftarcha	e) maktabga borib kelish uchun to‘lov
Sovg‘a	f) pulni qanday ishlatish rejasi

4. Savollarga javob bering.

1. Maktabga borishda yo‘l haqi uchun qancha pul ishlatasiz?
2. Tushlik uchun qancha pul sarflaysiz?
3. Siz pul tejaysizmi? Qanday usulda?
4. Byudjet tuzish nima uchun kerak?

5. Gapiring.

1. Nima uchun byudjet tuzish kerak? Chunki…
2. Nima uchun xarajat qilinadi? Negaki…
3. Nima uchun otasi Sardorga 30 000 so‘m beradi? Chunki…
4. Nima uchun oziq-ovqat xarid qilamiz? Chunki…
5. Nima uchun mashina sotib olamiz? Chunki…

6. Yozing.

Byudjet		
Xarajatlar	**Summa (so‘m)**	**Izoh**
Yo‘l haqi	3 400	Maktabga borish uchun
***	***	***
***	***	***
Qoldiq (so‘m)	***	***

O‘zingizning kunlik byudjetingiz va pulni qanday sarflashingiz haqida qisqacha yozing.

PUL JAMG‘ARISH

1. O‘qing.



Aziz 15 yoshda. U maktabda yaxshi o‘qiydi. Uning orzusi – yangi kompyuter sotib olish. Kompyuter darslarni yaxshi o‘zlashtirishda yordam beradi, shuningdek, sevimli o‘yinlarini ham o‘ynashi mumkin bo‘ladi. Lekin kompyuter arzon buyum emas, uni sotib olish uchun ko‘p pul kerak.

Azizning ota-onasi unga har oy pul berishadi. Bu pulni u har xil narsalarga sarflashi mumkin: do‘stlari bilan shirinlik olish, kinoga borish yoki o‘yinchoqlar sotib olish. Lekin Aziz pulni behuda sarflamaslikka qaror qildi.

U ota-onasi bergan pulning bir qismini jamg‘arish uchun maxsus quti oldi. Har kuni maktabdan qaytgach, pulini hisoblab chiqar va orttirgan pulini qutiga solardi. Do‘konga borib do‘stlari bilan shirinlik sotib olish o‘rniga pulini yig‘ishni afzal bildi.

Ba’zida do‘stlari kulib, “Nega pul yig‘yapsan? O‘zing uchun yaxshi narsalar sotib ol!” deyishardi. Ammo Aziz ularning gapiga quloq solmadi. U o‘z orzusiga erishish uchun sabr-toqat bilan pul yig‘di.

Oylar o‘tib, Azizning pul qutisi to‘ldi. U ota-onasiga yangi kompyuter sotib olish uchun yig‘gan pulini ko‘rsatdi. Ota-onasi uning aqlli ishidan juda xursand bo‘ldi.

Hikoyadan xulosa shuki, jamg‘arish – faqat pulni saqlash emas, balki kelajak uchun maqsad qo‘yish va unga erishish harakatini qilish. Shu yo‘l bilan Aziz o‘z orzusini ro‘yobga chiqardi va bu unga hayotda katta yordam berdi.

2. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Azizning yoshi nechada?
2. Azizning orzusi nima?
3. Aziz pulni qayerdan oladi?
4. Aziz pulni qanday ishlatishni tanladi?
5. U pulni qanday sarflashi mumkin edi?

arzon
behuda
maxsus quti
yig‘moq
qaror qilmoq
afzal

3. Yozing.

Namuna: *1. Azizning orzusi – yangi kompyuter sotib olish.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *kompyuter, pul, do‘stlari, orzusi, maqsad.*

1. Azizning ... – yangi kompyuter sotib olish.
2. U ... uchun pul yig‘adi.
3. Aziz ... bilan shirinlik sotib olmagan.
4. Har oy ota-onasi unga ... beradi.
5. Tejash – kelajak uchun ... qo‘yish.

Gaplardagi sabab mazmunini anglatish uchun ***sababli***, ***tufayli*** kabi ko‘makchilardan foydalaniladi.

4. Mosini tanlang.

Namuna: *1. Suvsizlik tufayli gullar qurib qoldi.*

1. Gullar qurib qoldi.	a) ixtirolar
2. Nufuzli universitetga o‘qishga kirding.	b) bog‘bonlar mehnati
3. Biz zamonaviy dunyoda yashayapmiz.	d) suvsizlik
4. Inson shirin-shirin mevalardan bahramand bo‘ladi.	e) harakating
5. Biz xotirjam yashaymiz.	f) mehnatkashliging
6. Katta yutuqlarga erishyapsan.	g) tinchlik

5. Guruhda ishlash.

5-6 gapdan iborat kichik hikoya yozing.

1. Azizning jamg‘arma qutisidagi pul haqida.
2. Aziz pulni qanday tejaydi?
3. Azizga do‘stlarining munosabati.
4. Aziz kompyuterni sotib olgach, nima qiladi?
5. Jamg‘arish nima uchun muhim?

6. Savollarga javob bering.

1. Siz pul yig‘a olasizmi?
2. Eng ko‘p yig‘gan pulingiz qancha bo‘lgan?
3. Yig‘gan pulingizga nimalar sotib olgansiz?
4. Pul yig‘ish sizga ishonch berganmi? Buni qanday sezgansiz?

Bir haftalik byudjetingizni tuzing. Har kuni qancha pul olganingiz, sarflaganingiz va tejaganingiz haqida yozing.

YORLIQNI O‘QIDINGMI?

1. O‘qing.



Jasur maktabdan qaytayotgan edi. Yo‘lda do‘konga kirib, shirinlik va non xarid qildi.

U mahsulotlarni shoshilib tanladi, mahsulot yorlig‘ini e’tibor bilan o‘qimadi.

Uyga kelganida akasi Bekzod mahsulotlarni ko‘rib, “Jasur, yorliqni o‘qidingmi?” deb so‘radi. Jasur boshini chayqab, “Yo‘q”, deb javob berdi.

Bekzod mahsulotlarni diqqat bilan tekshirdi va bir shirinlikning yaroqlilik muddati o‘tganini ko‘rdi. “Mana bu shirinlik eskirgan, yeyish mumkin emas”, dedi.

So‘ngra u Jasurga dedi: “Biror nima sotib olayotganda yorlig‘ini diqqat bilan o‘qish kerak. Foydalanish muddati tugagan narsani yeyish sog‘liq uchun xavfli. Yana, do‘kondan chek olish ham muhim. Agar mahsulotda muammo bo‘lsa, chek bilan qaytib borib, almashtirish yoki pulini qaytarib olish mumkin”.

Bekzod Jasur akasi bilan birga do‘konga borib, muddati o‘tgan mahsulotni qaytardi. Sotuvchi ular bilan samimiy gaplashdi va yangi mahsulot berdi.

Jasur bundan katta saboq oldi. Endi u doimo mahsulot yorlig‘ini o‘qib, chek olishni unutmaydi. Bu oddiy odat sog‘ligini himoya qilish va pulini behuda sarflamasligiga yordam beradi.

2. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Jasur maktabdan qaytayotganda qayerga kirdi?
2. U nima uchun muddati o‘tgan mahsulotni tanladi?
3. Kim shirinlikning muddati o‘tganini ko‘rdi?
4. Nega mahsulot yorlig‘ini o‘qish muhim?
5. Do‘konda Jasur va Bekzodga qanday muomala qilishdi?

xarid qilmoq
shoshilmoq
yaroqlilik muddati
yorliq
xavfli
muddati o‘tmoq

3. Fikrlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini ayting.

№	FIKR	to‘g‘ri	noto‘g‘ri
		✓	✗
1.	Jasur mahsulotlarni juda ehtiyotkorlik bilan tanladi.	***	***
2.	Bekzod mahsulotlarni tekshirib chiqdi.	***	***
3.	Yaroqlilik muddati o‘tgan mahsulotni iste’mol qilish foydali.	***	***
4.	Chek olish mahsulotni almashtirishga yordam beradi.	***	***
5.	Jasur akasi bilan do‘konga borib, mahsulotni qaytardi.	***	***

4. Guruhda ishlash.

so‘z	mazmuni	gap
muddati o‘tgan	***	***
yorliq	***	***
chek	***	***
sotuvchi	***	***
xarid qilmoq	***	***

5. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Yaroqlilik muddati yaqinlashgan mahsulot arzon bo‘lsa, uni xarid qilasizmi? Nima uchun?
2. Mahsulot yaroqsiz, lekin ko‘rinishi, hidi yoki ta’mi hali yaxshi bo‘lsa, iste’mol qilasizmi? Nega?
3. Uyda yaroqliligi o‘tgan mahsulot topsangiz, qanday chora ko‘rasiz?

6. Gapiring. Quyidagi gaplarni davom ettiring.

1. Men do‘konga kirib, mahsulot tanlayotganimda...
2. Chekni olmaganimda qanday muammo bo‘lishi mumkin...
3. Agar men muddati o‘tgan mahsulot iste’mol qilsam...
4. Endi men do‘konga borganda doimo...

Hafta davomidagi xaridlaringiz va quyidagi savollar asosida 5-6 ta gapdan iborat matn yozing.

1. Qanday mahsulot oldingiz?
2. Uning yorlig‘ini o‘qidingizmi?
3. Chek oldingizmi?
4. Mahsulot yorlig‘ida qanday ma’lumotlar bor edi?
5. Nega chek olish yoki yorliqni o‘qish muhim deb o‘ylaysiz?

SAYOHATDA...

1. O‘qing.



Bahorgi ta’til edi. Dildora ilk bor ota-onasi bilan Samarqandga sayohatga chiqdi. U yo‘l davomida shaharlar, tog‘lar, qadimiy binolarni rasmga oldi. Bu uning orzusidagi sayohat edi.

Ular eng avval Registon maydoniga bordi. Dildora tarixiy madrasa devorlaridagi naqshlarni hayrat bilan tomosha qildi.

– Oyi, bu yer naqadar chiroyli! – dedi u.

Keyin ular bozorga yo‘l oldilar. Dildora bu yerda ko‘plab milliy mahsulotlar: kulolchilik buyumlari, atlas matolar, quritilgan mevalarni ko‘rdi. U mahsulotlar narxini solishtirib, eng arzonini tanlashga harakat qildi.

Otasi unga dedi:

– Sayohat faqat dam olish emas, hayotiy saboqlar olish uchun ham imkoniyat. Narxni solishtirish, byudjetni to‘g‘ri rejalashtirish – bular ham muhim ko‘nikmalar.

Dildora bir kichik kulolchilik buyumini tanladi. U sotuvchidan:

– Bu idish qanday yasalgan? Qancha vaqt ketgan? – deb so‘radi.

Sotuvchi tabassum bilan batafsil javob berdi. Dildora endi har bir buyumning ortida katta mehnat va san’at turishini tushundi. U uyga qaytarkan, yo‘l xarajatlarini, sarflagan pulini va qilgan tanlovlarini yozib chiqdi.

Bu sayohat unga nafaqat unutilmas taassurot, balki mustaqil fikrlash va iqtisodiy savodxonlik haqida amaliy saboqlar berdi.

2. Mosini tanlang. Yozing.

I	II
1. Dildora Samarqandga	a) bozordagi mahsulotlar narxini solishtirishni o‘rgandi.
2. Registon maydoni	b) Dildorani hayratga soldi.
3. Dildora sayohatdan esdalik sifatida	d) byudjetni to‘g‘ri rejalashtirish kerakligini aytdi.
4. Otasi maslahat sifatida	e) kulolchilik buyumini sotib oldi.
5. Sayohat davomida Dildora	f) ota-onasi bilan birga bordi.

3. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Dildora Samarqand sayohatini qayerdan boshladi?
2. U nimani hayrat bilan tomosha qildi?
3. Otasi qanday foydali maslahat berdi?
4. Dildora sotuvchidan nimani so‘radi?
5. Sayohatdan Dildora qanday saboq oldi?

4. Yozing.

Namuna: *1. Dildora madrasa devorlaridagi **naqshlarni** hayrat bilan tomosha qildi.*

Foydalanish uchun so‘zlar: *sayohat, naqshlarni, kulolchilik, narxini, taassurot.*

1. Dildora madrasa devorlaridagi ... hayrat bilan tomosha qildi.
2. Bozorda u ... buyumlarini ko‘rdi.
3. U mahsulotlar ... solishtirishga harakat qildi.
4. Bu ... Dildoraga ko‘p saboqlar berdi.
5. Dildora uyga unutilmas ... bilan qaytdi.

5. Gapiring. Blits savollarga qisqa javob bering.

1. Men sayohatda nimalarni rasmga olgan bo‘lardim?
2. Men bozordan qanday esdalik buyum olgan bo‘lardim?
3. Men sayohat haqida nimalar yozardim?
4. Men yana qayerga borishni xohlardim?

bino
rejalashtirish
xotira
saboq
solishtirmoq

6. Guruhda ishlash.

Quyidagi vaziyatlardan 3 tasini tasvirlang va shu haqda 2-3 ta gap yozing.

1. Registon maydoni manzarasi.
2. Xarid qilingan sopol buyum.
3. Samarqand bozori.
4. Dildoraning xarajat daftarchasi.
5. Ota va Dildoraning suhbati.

“Orzudagi sayohat” mavzusida 5–7 ta gapdan iborat qisqa hikoya yozing. Quyidagilarga e’tibor bering:

- Qayerga bormoqchisiz?
- Kim bilan sayohat qilasiz?
- Nimalarni ko‘rmoqchisiz?

Adabiy o‘qish.



ABDULLA ORIPOV

O‘ZBEKISTON

Yurtim, senga she’r bitdim bu kun,
Qiyosingni topmadim aslo.
Shoirlar bor, o‘z yurtin butun
Olam aro atagan tanho.
Ular she’ri uchdi ko‘p yiroq,
Qanotida kumush diyori,
Bir o‘lka bor dunyoda, biroq
Bitilmagan dostondir bori:
Faqat ojiz qalamim manim,
O‘zbekiston, Vatanim manim…

Kechmishing bor chindan ham uzoq,
Ilg‘ay olmas barchasin ko‘zim.
Maqtamasman moziyni, biroq
O‘tmishingni o‘ylayman bir zum.
Zabtga olib keng Osiyoni,
Bir zot chiqdi mag‘rur, davongir,
Ikki asr yarim dunyoni
Zir qaqshatdi buyuk jahongir.
Aytgum bu kun, u manim, manim.
O‘zbekiston, Vatanim manim…

Ko‘p jahongir ko‘rgan bu dunyo,
Hammasiga guvoh yer osti.
Lekin, do‘stlar, she’r ahli aro
Jahongiri kam bo‘lar, rosti.
Besh asrkim, nazmiy saroyni
Titratadi zanjirband bir she’r.
Temur tig‘i yetmagan joyni
Qalam bilan oldi Alisher.
Dunyo bo‘ldi chamanim manim,
O‘zbekiston, Vatanim manim.

Bobolardan so‘zladim, ammo
Bir zot borkim, baridan suyuk:
Buyuklarga baxsh etgan daho,
Ona xalqim, o‘zingsan buyuk.
Sen o‘zingsan eng so‘nggi nonin
O‘zi yemay o‘g‘liga tutgan.
Sen o‘zingsan farzandlar shonin
Asrlardan opichlab o‘tgan.
Ona xalqim, jon-tanim manim,
O‘zbekiston, Vatanim manim.

Bosh ustingdan o‘tdi ko‘p zamon,
O‘tdi Budda, o‘tdi Zardushti.
Har uchragan nokas-u nodon,
Ona xalqim, yoqangdan tutdi.
Seni Chingiz g‘azabga to‘lib,
Yo‘qotmoqchi bo‘ldi dunyodan.
Jaloliddin samani bo‘lib,
Sakrab o‘tding Amudaryodan.
Sensan o‘shal samanim manim,
O‘zbekiston, Vatanim manim…

Zavol ko‘rma hech qachon, o‘lkam,
Zavol bilmas shu yoshing bilan.
Muzaffar bo‘l, g‘olib bo‘l, o‘ktam,
Do‘st-u yoring, qardoshing bilan.
Asrlarning silsilasida
Boqiy turgay koshonang sening.
Ulug‘ bashar oilasida
Mangu yorug‘ peshonang sening.
Mangu yorug‘ maskanim manim,
O‘zbekiston, Vatanim manim.

MUALLIM

Muallim haqida so‘zim ushbudir:
Muallim kamolot ichra ko‘zgudir.
O‘qidim Gerodot, tarixni ko‘p bor,
Forobiy, Danteni takror va takror.

Barini o‘qidim, lol qoldi aqlim,
Bariga ustozsan o‘zing, muallim.
Alisher qalbiga solgan sehr-fayz
Sensan, ey muallim, ustoz Abu Lays.

Qutlug‘ xonadonda qutlug‘ kalom bu,
Hamid Olimjon bu, G‘afur G‘ulom bu.
Buyuk Temur sendan topgandir ta’lim,
Sen shundoq aziz zot, aziz muallim.

Rost aytsam, o‘zingsan eng avval daho,
Sen hayot ganjida durri bebaho.
Ulug‘ ayyomingda she’riy kalom bu,
Shogirdlar nomidan qutlug‘ salom bu.

Guruhda ishlash.

Guruhlarga bo‘linib, she’rlarni tahlil qiling.

LUG‘AT

I CHORAK

O‘zbekcha	Inglizcha	Ruscha	Qoraqalpoqcha	Qozoqcha	Qirg‘izcha	Tojikcha	Turkmancha
O‘zbekiston – bag‘rikeng yurt							
yangramoq	to resound	звучать	jańlaw	жаңғыру	жаңырык	садо додан	seslenmek
ahil	harmony	дружный	tatıw	тату	ынтымак	иттифоқӣ	agzybir
kafolatlamoq	to guarantee	гарантировать	kepillik beriw	кепілдік беру	кепилдик берүү	кафолат додан	kepillendirmek
boyitmoq	to enrich	обогащать	bayıtıw	байыту	байытуу	бой гардонидан	baýlaşdyrmak
saxiylik	generosity	щедрость	saqıylıq	жомарттық	жоомарттык	саховат	sahylyk
Tarixiy shaharlar – O‘zbekistonning yuzi							
noyob durdonalar	unique heritage	уникальные жемчужины	qımbat bahalılıqlar	бірегей жауһарлар	өзгөчө берметтер	дурдонаҳои нодир	täsin gymmatlyklar
qudrat	power	мощь	qúdiret	құдірет	кудрет	қудрат	gudrat
ziyorat	pilgrimage	паломничество	zıyarat	зиярат	зыярат	зиёрат	zyýarat
shubha	doubt	сомнение	shubha	күмән	күмөн	шубҳа	şübhe
Imom al-Buxoriyning bolaligi							
asar yozmoq	to write a work	писать произведение	shıǵarma jazıw	шығарма жазу	чыгарма жазуу	навиштани асар	eser ýazmak
qadimiy nusxa	ancient copy	старинный экземпляр	áyyemgi nusqa	ежелгі нұсқа	байыркы нуска	нусхаи қадимӣ	gadymy nusga
yod olmoq	to memorize	выучить	yad alıw	жаттап алу	жаттап алуу	аз ёд кардан	ýat tutmak
ilmli	knowledgeable	образованный	ilimli	білімді	билимдүү	донишманд	ylymly
yetim	orphan	сирота	jetim	жетім	жетим	ятим	ýetim
Osh bo‘lsin!							
shogird	apprentice	ученик	shákirt	шәкірт	шакирт	шогирд	şägirt
osh damlamoq	to cook pilaf	готовить (плов)	palaw pisiriw	палау демдеу	демдөө	дам кардани ош	palow bişirmek
mahorat	skill	мастерство	sheberlik	шеберлік	чеберчилик	маҳорат	ussatlyk
Sport. G‘alaba. Vatan sha’ni							
isbotlamoq	to prove	доказывать	dálillew	дәлелдеу	далилдөө	исбот кардан	subut etmek
nihoyatda	extremely	наконец	dım, oǵırı	өте	абдан	ниҳоят	örän
qo‘lga kiritmoq	to get	стать (чемпионом)	qolǵa kiritiw	иелену	ээ болуу	ба даст овардан	ýeňiş gazanmak
xabar bermoq	to report	информировать	xabar beriw	хабарлады	кабар берүү	хабар додан	habar bermek
hujumchi	forward	нападающий	húјimshi	шабуылшы	чабуулчу	ҳамлагар	hüjümçi
Ranglar jilosi – atlas va adras							
mato	fabric	ткань	gezleme	мата	кездеме	матоъ	mata
did	taste	вкус	talǵam	талғам	табит	завқ	ykjam
to‘qimoq (mato)	to weave	ткать	tigiw (gezleme)	тоқу (мата)	токуу	бофтан (матоъ)	dokamak
bezak	pattern	узор	bezew	әшекей	жасалга	ороиш	bezeg
meros	heritage	наследие	miyras	мұра	мурас	мерос	miras
Oila – insonning birinchi maktabi							
hayajon	excitement	волнение	tınıshsızlanıw	толқу	толкунануу	ҳаяҷон	tolgunmak
ta’sir	influence	влияние	tásir	әсер	таасир	таъсир	täsir
jilmaymoq	to smile	улыбаться	kúlimsirew	күлімдеу	жылмайуу	лабханд задан	ýylgyrmak
savodli	literate	грамотный	sawatlı	сауатты	сабаттуу	босавод	sowatly
muqaddas	sacred	священный	muqaddes	киелі	ыйык	муқаддас	mukaddes

Bilim – muvaffaqiyat kaliti							
muvaffaqiyat	success	успех	tabıs, jetiskenlik	табыс	ийгилик	муваффақият	üstünlik
ilg‘or	progressive	передовой	aldıńǵı	озық	алдыдагы	пешқадам	ösen
cho‘qqi	peak	вершина	shıń	шың	чоқу	қулла	depesi
muntazam	regular	регулярный	turaqlı	тұрақты	мунунду	мунтазам	yzygiderli
Yaxshi ustoz – hayotdagi yo‘lboshchi							
hurmat qilmoq	to respect	уважать	húrmet qılıw	құрметтеу	урматтоо	эҳтиром кардан	hormatlamak
alohida qadrlamoq	to appreciate highly	высоко ценить	ayrıqsha qádirlew	ерекше қадірлеу	өзүнчө кадырлоо	алоҳида қадр кардан	aýratyn gadyrlamak
ta’lim jarayoni	educational process	образовательный процесс	bilim beriw procesi	оқу үдерісі	билим берүү процесси	ҷараёни таълим	okuw prosesi
maqom	status	статус	mártebe	мәртебе	мартаба	мақом	mertebe
ustuvor	prior	приоритет	tiykarǵı	үстем	артыкчылык	устувор	ileri tutulýan
Do‘sting – sening aksing							
rag‘batlantirmoq	to motivate	поощрять	xoshametlew	ынталандыру	сыйлоо	рағбатонидан	höweslendirmek
mazax qilmoq	to mock	насмехаться	mazaqlaw	мазақ ету	шылдыңдоо	масхара кардан	üstünden gülmek
tirishqoqlik	diligence	усердие	tırısqaqlıq	еңбекқорлық	аракетчилдик	кӯшишкунанда	yhlas
ilhom bermoq	to inspire	вдохновлять	ilxam beriwshi	шабыттандыру	шыктандыруучу	илҳомбахш	ylham bermek
Vaqt – qimmatli boylik							
boshqarmoq	to manage	управлять	basqarıw	басқару	башкаруу	идора кардан	dolandyrmak
allaqachon	already	уже	álleqashan	әлдеқашан	мурда эле	кайҳо вақт	eýýäm
taqsimlamoq	to divide	распределять	bólistiriw	бөлу	бөлүштүрүү	тақсим кардан	paýlamak
Oqilona tanlovlar – kelajak poydevori							
qobiliyat	ability	способность	qábilet	қабілет	жөндөмдүүлүк	қобилият	ukyp
atrof	surrounding	среда	átirap	қоршаған орта	чөйрө	атроф	töwerek
tadqiqot	research	исследование	izertlew	зерттеу	изилдөө	тадқиқот	gözleg
intizom	discipline	дисциплина	intizam	тәртіп	тартип	интизом	tertip-düzgün
Kelajakdagi sen: 20 yildan keyin kim bo‘lasan?							
himoyalangan	protected	защищённый	qorǵalǵan	қорғалған	корголгон	ҳимояшуда	goralan
bashorat qilmoq	to predict	прогнозировать	boljaw	болжау	болжол	пешӯй кардан	öňünden aýtmak
hayratlanarli	amazing	удивительный	tań qalarlıq	таңқаларлық	таң калдырарлык	ҳайратангез	haýran galdyryjy
shakllantirish	to shape	формировать	qáliplestiriw	қалыптастыру	калыптоо	ташаккул додан	şekillendirmek
Uyg‘onish: sengacha va sendan keyingi dunyo							
dehqonchilik	agriculture	земледелие	diyqanshılıq	егіншілік	дыйканчылык	деҳқонӣ	ekrançylyk
chorvachilik	animal husbandry	животноводство	sharwashılıq	шаруашылық	мал чарба	чорводорӣ	maldarçylyk
hosildorlik	productivity	урожайность	ónimdarlıq	өнімділік	түшүмдүүлүк	ҳосилнокӣ	önümdarlyk
qurg‘oqchilik	drought	засуха	qurǵaqshılıq	құаңшылық	кургакчылык	хушксолӣ	gurakçylyk
Ilm-fan afsonalarni yo‘q qiladimi?							
oy tutilishi	lunar eclipse	лунное затмение	ay tutılıwı	ай тұтылуы	айдын тутулуусу	гирифти моҳ	aýuň tutulmagy
ilgari	previously	ранее	ilgeri	бұрын	мурда	пештар	öň
sezilarli	significant	заметный	sezilerli	сезілерлі	байкаларлык	каме бошад ҳам	ep-esli derejede
undamoq	to encourage	побуждать	úndew	үндеу	үндөө	даъват кардан	höweslendirmek
ajralmas qismi	integral part	неотъемлемая часть	ajıralmaytuǵın bólegi	ажырамас бөлігі	ажырагыс бөлүгү	қисми ҷудонашаванда	aýrylmaz bölegi

Tarixni o‘zgartirgan qarorlar							
qutqarmoq	to rescue	спасать	qutqarıw	құтқару	куткаруу	халос кардан	halas etmek
portlamoq	to explode	взрываться	jarılıw	жарылу	жарылуу	таркидан	partlamak
zarba	blast	удар	soqqı	соққы	сокку	зарба	urgy
shikastlanmoq	to be damaged	повредиться	jaraqatlanıw	жарақаттану	жаракат алуу	шикаст додан	şikes ýetirmek
Unutilgan kashfiyotlar							
dengiz tubi	seabed	морское дно	teńiz túbi	теңіз түбі	деңиз түбү	қаъри баҳр	deňziň düýbi
imkon	opportunity	возможность	múmkinshilik	мүмкіндік	мүмкүнчүлүк	имконият	mümkinçilik
kuzatmoq	to observe	наблюдать	baqlaw	бақылау	көзөмөлдөө	мушоҳида кардан	syn etmek
qurilma	device	устройство	qurılma	құрылғы	курулма	дастгоҳ	enjam

II CHORAK

O‘zbekcha	Inglizcha	Ruscha	Qoraqalpoqcha	Qozoqcha	Qirg‘izcha	Tojikcha	Turkmancha
Oqil elchi							
hukmronlik qilmoq	to dominate	господствовать	ústemlik etiw	үстемдік ету	үстөмдүк кылуу	ҳукмронӣ кардан	hökümdarlyk etmek
tinchlik sulhi	peace treaty	мирный договор	tınıshlıq kelisimi	бейбітшілік бітімі	тынчтык келишими	сулҳи осоиштагӣ	parahatçylyk şertnamasy
zarar keltirmoq	to harm	причинять вред	zıyan jetkeriw	зиян келтіру	зыян келтирүү	зарар расонидан	zyýan ýetirmek
elchi	ambassador	посол	elshi	елші	элчи	сафир	ilçi
Do‘stlik ko‘prigi							
raqobatlashmoq	to compete	конкурировать	básekilesiw	бәсекелесу	атаандашуу	рақобат кардан	bäsleşmek
bellashuv	competition	соревнование	jarıs	жарысу	мелдеш	мусобиқа	ýaryş
vaziyat	situation	ситуация	jaǵday	жағдай	абал	вазъият	ýagdaý
ziddiyat	conflict	конфликт	qarama-qarsılıq	қақтығыс	карама-каршылык	зиддият	gapma-garşylyk
Avval o‘yla, keyin so‘yla							
og‘riq	pain	боль	awırıw	ауру	оору	дард	agyrmak
aybdor	guilty	виновный	ayıplı	кінәлі	күнөөлүү	айбдор	günäkär
muloyimlik	gentleness	мягкость	múlayımlıq	сыпайылық	сылыктык	мулоимият	mylaýymlylyk
chigallashtirmoq	to complicate	запутать	shiyelenistiriw	күрделендіру	татаалдаштыруу	чигил кардан	çylşyrymlaşdyr-mak
Osmondagi ochiq yo‘l							
amalga oshirmoq	to perform	осуществлять	ámelge asırıw	жүзеге асыру	ишке ашыруу	ба амал баровардан	amala aşyrmak
yo‘nalish	direction	направление	baǵdar	бағыт	багыт	самт	ugr
to‘g‘ridan to‘g‘ri	directly	напрямую	tuwrıdan-tuwrı	тікелей	түздөн-түз	мустақим	gönüden-göni
malaka oshirish	professional development	повышение квалификации	qánigeligin arttırıw	білімді жетілдіру	кесиптик деңгээлин көтөрүү	такмили ихтисос	hünärini ýokarlandyrmak
parvoz	flight	полёт	ushıw	ұшу	учуу	парвоз	uçuş
Temur Ko‘ragoniy sirlari							
yetakchi	leader	лидер	jetekshi	жетекші	жетекчи	роҳнамо	ýolbaşçy
ta’sirlantirmoq	to impress	вдохновлять	tásirlendiriw	әсерлендіру	шыктандыруу	таъсир кардан	täsirlendirmek
o‘tmish	past	прошлое	ótmish	өткен	өткөн	гузашта	geçmiş
jonlanmoq	to come alive	оживать	janlanıw	жандану	жандану	ҷон гирифтан	janlanmak

Tanqid emas, taklif							
tanqid	criticism	критика	sın	сын	сын	танқид	tankyt
izoh	comment	комментарий	túsindirme	түсініктеме	түшүндүрмө	эзоҳ	düşündiriş
muloqot	conversation	беседа	sáwbet	қарым-қатынас	сүйлөшүү	мулоқот	gepleşik
Muloqotning 10 ta oltin qoidasi							
bahslashmoq	to argue	спорить	tartısıw	таласу	талашуу	баҳс кардан	bäsleşmek
oshkor qilmoq	to reveal	раскрывать	áshkaralaw	жариялау	ачыктоо	ошкор кардан	äşkar etmek
ishonch	trust	доверие	isenim	сенім	ишеним	боварӣ	ynam
muomala	attitude	обращение	mámile	мәміле	мамиле	муомила	gatnaşyk
Har bir odam – kashf etilmagan sir							
ko‘chib kelmoq	to migrate / to move in	переезжать / мигрировать	kóship keliw	көшіп келу	көчүп келүү	кӯчида омадан	göçüp gelmek
gapirish ohangi	tone of voice	тон речи	sóylew ırǵaǵı	сөйлеу ырғағы	сүйлөө ыргагы	оҳанги гап	gepleýiş äheňi
tashqi ko‘rinish	appearance	внешний вид	sırtqı kórinis	сыртқы көрініс	сырткы көрүнүш	намуди зоҳирӣ	daşky görnüş
xislat	trait	качество	pazıylet	мінез	мүнөз	хислат	häsiýet
farq qilmoq	to differ	отличаться	ayırmashılıq	айырмашылық болу	айырмалануу	фарқ кардан	tapawutlanmak
Do‘stlik sinovi							
faxr	pride	гордость	maqtanısh	мақтаныш	сыймык	ифтихор	buýsanç
bosqich	stage	этап	basqısh	кезең	баскыч	марҳила	basgyç
murakkab	complex	сложный	quramalı	күрделі/қиын	татаал	мураккаб	çylşyrymly
suyanmoq	to lean on	опираться	súyeniw	сүйену	сүйөнүү	такя кардан	daýanmak
Inklyuziv ta’lim							
ulg‘aymoq	to grow up	взрослеть	ósiw, er jetiw	өсу	өсүү	баркамол	ulalmak
his etmoq	to feel	чувствовать	seziw	сезіну	сезүү	эҳсос кардан	duýmak
imkoniyati cheklangan	disabled	с ограниченными возможностями	imkaniyatı sheklengen	мүмкіндігі шектеулі	мүмкүнчүлүгү чектелген	имконияти маҳдуд	mümkinçiligi çäklenen
qabul qilmoq	to accept	принять	qabıl qılıw	қабылдау	кабыл алуу	қабул кардан	kabul etmek
Ijtimoiy haqiqat							
qo‘l kelmoq	to be useful	пригодиться	qol keliw	пайдалы болу	кереги тийүү	даркор шудан	oňaýlyk döretýär
ulashmoq	to share	делиться	bólisiw	бөлісу	бөлүшүү	тақсим кардан	paýlaşmak
ijtimoiy tarmoq	social network	социальная сеть	social tarmaq	әлеуметтік желі	социалдык тармак	шабакаи иҷтимой	sotsial ulgam
xayriya	charity	благотворительность	qayırqomlıq	қайырымдылық	ырайымдуулук	хайрия	haýyr-sahawat
qo‘llab-quvvatlamoq	to support	поддержать	qollap -quwatlaw	қолдау көрсету	колдоо көрсөтүү	дастгирӣ кардан	goldamak
Tabiat bilan do‘stlashish							
sayohatga bormoq	to go on a trip	отправиться в путешествие	sayaxatqa barıw	саяхатқа бару	саякатка баруу	ба саёҳат рафтан	syýahat etmek
o‘ynamoq	to play	играть	oynaw	ойнау	ойноо	бозӣ кард	oýnamak
saboq bo‘lmoq	to be a lesson	стать уроком	sabaq bolıw	сабақ болу	сабак алуу	сабақ/ибрат шуд	sapak boldy
Telefonsiz bir kun							
istamoq	to want	хотеть	qálew	қалау	каалоо	хоҳишманд	islemek
hayot	life	жизнь	ómir	өмір	өмүр	ҳаёт	durmuş
o‘chirmoq	to turn off	выключать	óshiriw	өшіру	өчүрүү	хомӯш кардан	öçürmek
ushalmoq	to come true	совершаться	orınlanıw	орындалу	жүзөгө ашыруу	иҷобат шудан	amala aşmak

Mening sevimli ustozim							
usul	method	метод	usıl	әдіс	ыкма	усул	usul
tarix	history	история	tarıyx	тарих	тарых	таърих	taryh
g‘amxo‘rlik	care	забота	ǵamxorlıq	қамқорлық	камкордук	ғамхорӣ	gamhorlyk
unutmoq	to forget	забыть	umıtıw	ұмыту	унутуу	фаромӯш кардан	ýatdan çykarmak

III CHORAK

O‘zbekcha	Inglizcha	Ruscha	Qoraqalpoqcha	Qozoqcha	Qirg‘izcha	Tojikcha	Turkmancha
Dunyoni go‘zallik qutqaradi							
jim yurmoq	to be calm	молчаливо	únsiz júriw	үнсіз жүру	үнсүз жүрүү	хомӯш гаштан	ses-üýnsiz ýöremek
sezmoq	to feel	чувствовать	seziw	сезу	сезүү	эҳсос кардан	duýmak
mehribonlik	kindness	доброта	mehribanlıq	мейірімділік	боорукерлик	меҳрубонӣ	mähribanlyk
Tabiatda ranglar jilosi							
cheksiz	infinite	бесконечный	sheksiz	шексіз	чексиз	беохир	çäksiz
hayotiy	vital	жизненный	ómirlik	өмірлік	турмуштук	ҳаётӣ	durmuşy
ko‘pincha	often	часто	kóbinese	көбінесе	көп учурда	бештар	köplenç
aylanmoq	to turn into	превращаться	aylanıw	айналу	айлануу	табдил ёфтан	aýlanmak
Tabobat							
qon bosimi	blood pressure	кровяное давление	qan basımı	қан қысымы	кан басымы	фишори хун	gan basyşy
rayhon	basil	базилик	rayxan	райхан	райхан	райҳон	reýhan
shifo	cure	лечение	shıpa	шипа	шыпа	шифо	em
o‘simlik	plant	растение	ósimlik	өсімдік	өсүмдүк	растанӣ/наботот	ösümlik
Shifokor tabiat							
zanjabil	ginger	имбирь	imbir	зімбір	имбирь	занҷабил	zenjebil
ildiz	root	корень	tamır	тамыр	тамыр	реша	kök
ismaloq	spinach	шпинат	shpinat	шпинат	шпинат	исмалоқ	ysmanak
quvvat	energy	энергия	energiya	қуат	энергия	қувват	kuwwat
Arxitekturadagi go‘zallik							
qarovsiz	abandoned	заброшенный	qarawsız	қараусыз	кароосуз	бенигаҳбон	garawsyz
zinapoya	staircase	лестница	tekshe	баспалдақ	тепкич	зинапоя	basgançak
hudud	territory	территория	aymaq	аумақ	аймак	ҳудуд	çäk
shaffof	transparent	прозрачный	ashıq	мөлдір	тунук	шаффоф	aýdyň
San’at asarlari							
chizma	drawing	чертёж	sızıw	сызба	чийме	нақша	çyzgy
quvonch	joy	радость	quwanısh	қуаныш	кубаныч	шодӣ	şatlyk
hissa qo‘shmoq	to contribute	вносить вклад	úles qosıw	үлес қосу	салым кошуу	саҳм гузоштан	goşant goşmak
iste’dodli	talented	талантливый	qábiletli	қабілетті	шыктуу	боистеъдод	zehinli
Rassomchilik san’ati							
qum	sand	песок	qum	құм	кум	рег/қум	gum
haykaltaroshlik	sculpture	скульптура	músinshilik	мүсін өнері	скульптура (айкелчилик)	ҳайкалтарошӣ	heýkeltaraşlyk
naqsh	pattern	узор	naǵıs	өрнек	оймо	нақш	nagyş

hayrat	amazement	изумление	tańlanıw	таңдану	таң калуу	тааҷҷуб	geň galmak
eslay olmoq	to remember	вспоминать	esley alıw	еске түсіру	эстей алуу	ёдовар шудан	ýatlap bilmek
Tasviriy san'at							
tasviriy san'at	arts	изобразительное искусство	kórkem óner	бейнелеу өнері	сүрөт өнөрү	санъати тасвирӣ	şekillendiriş sungaty
g'or	cave	пещера	úńgir	үңгір	үңкүр	ғор	gowak
ko'mir	coal	уголь	kómir	көмір	көмүр	ангишт	kömür
moyli bo'yoq	oil paint	масляная краска	maylı boyaw	майлы бояу	май боёк	ранги равғанин	ýagly boýag
Adabiy san'at							
izlanish	research	исследование	izlenis	зерттеу	изилдөө	тадқиқот	gözleg
ma'rifatparvarlik	enlightenment	просвещение	aǵartıwshılıq	ағартушылық	агартуучулук	маърифат-парварӣ	aň-bilim
donolik	wisdom	мудрость	danalıq	даналық	акылмандык	донишмандӣ	paýhas
ruboiy	quatrain	рубаи	rubayı	рубай	рубайы	рубоӣ	rubagy
Sahna san'ati							
sahna	stage	сцена	saxna	сахна	сахна	саҳна	sahna
tus olmoq	to change	принимать форму	tús alıw	түрге ену	түр алыш	шакл гирифтан	görnüşe eýe bolmak
axloqiy to'qnashuv	moral conflict	моральный конфликт	tárbiyalı soqlıǵısıw	адамгершілік қақтығыс	адептик карама-каршылык	ихтилофи ахлоқӣ	ahlak gapma-garşylygy
o'zgacha	unique	необычный	ózgeshe	ерекше	өзгөчө	ғайриоддӣ	üýtgeşik
Musiqa va kino san'ati							
yoqtirmoq	to like	нравиться	unatıw	ұнату	жактыруу	писанд кардан	halamak
chalmoq	to play	играть	shertiw	шерту	чертүү	навохтан	çalmak
yechim	solution	решение	sheshim	шешім	чечим	ҳал	çözgüt
mas'uliyat	responsibility	ответственность	juwapkershilik	жауапкершілік	жоопкерчилик	масъулият	jogapkärçilik
Xattotlik san'ati							
siyoh	ink	чернила	sıya	сия	сыя	ранги сиёҳ	syýa
raqamli xattotlik	digital calligraphy	цифровая каллиграфия	sanlı kalligrafiya	сандық каллиграфия	санарип каллиграфия	хаттотии рақамӣ	sanly hatdatlyk
muhim	important	важный	áhmiyetli	маңызды	маанилүү	муҳим	möhüm
Sport va sog'lik							
charchamoq	to get tired	уставать	sharshaw	шаршау	чарчоо	хаста шудан	ýadamak
xiyobon	boulevard	бульвар	qıyaban	саябақ	сейилбак	хиёбон	seýilgäh
birga	together	совместно	birge	бірге	бирге	якҷоя	bile
yengillik	relief	лёгкость	jeńillik	жеңілдік	жеңилдик	сабукӣ	ýeňillik
sevinmoq	to rejoice	радоваться	quwanıw	қуану	кубануу	шод шудан	şatlanmak
va'da bermoq	to promise	обещать	wáde beriw	уәде беру	убада берүү	ваъда додан	wada bermek
Sport va ahillik							
maqsadga intiluvchan	goal-oriented	целеустремлён-ный	maqsetke umtılıwshı	мақсатқа ұмтылатын	максатка умтулган	кӯшиш ба мақсад	maksada ymtylýan
sinab ko'rmoq	to try	попробовать	sınap kóriw	сынап көру	сынап көрүү	санҷидан	synap görmek
oson kechmoq	to go smoothly	проходить легко	ańsat ótiw	жеңіл өту	жеңил өтүү	осон гузаштан	ýeňil geçmek
jamoadosh	teammate	товарищ по команде	topar aǵzası	команда мүшесі	командалаш	ҳамҷамоа	topardaş

Sport va turizm							
orzu qilmoq	to dream	мечтать	ármanlaw	армандау	кыялдануу	орзу кардан	arzuw etmek
yashil adirlar	green hills	зелёные холмы	jasıl jaylawlar	жасыл жоталар	жашыл адырлар	теппаҳои сарсабз	ýaşyl baýyrlyk
o‘zlashtirmoq	to absorb	усваивать	ózlestiriw	меңгеру	өздөштүрүү	аз худ кардан	özleşdirmek
hayot tarzi	lifestyle	образ жизни	turmıs tárizi	өмір салты	жашоо образы	тарзи ҳаёт	durmuş ýörelgesi
ustun	prior	превосходство	ústin	үстем	үстөм	афзал	üstün
Turizm							
dam olmoq	to get rest	отдыхать	dem alıw	дем алу	эс алуу	истироҳат кардан	dynç almak
tajriba	experience	опыт	tájiriybe	тәжирибе	тажрыйба	таҷриба	tejribe
qiziqish ortmoq	to increase interest	возрастать интерес	qızıǵıwshılıq artıw	қызығушылық арту	кызыгуу арттыруу	шавқ пайдо кардан	gyzyklanmasy artmak
his qilmoq	to feel	чувствовать	seziw	сезіну	сезүү	эҳсос кардан	duýmak
jarayon	process	процесс	process	үдеріс	процесс	ҷараён	proses
Xalq og‘zaki ijodi							
qahramon	hero	герой	qaharman	қаһарман	батыр	қаҳрамон	gahryman
doston	epic	эпос	dástan	дастан	дастан	достон	dessan
matonatli	steadfast	выносливый	jigerli	төзімді	кайраттуу	боматонат	sabyr-takatly
Bayramlar jozibasi							
birlashtirmoq	to unite	объединять	birlestiriw	біріктіру	бириктирүү	муттаҳид кардан	birleşdirmek
qadriyat	value	ценность	qádiriyat	құндылық	баалуулук	арзиш	gymmatlyk
eslatmoq	to remind	напоминать	esletiw	еске салу	эстетүү	ёдрас кардан	ýatlatmak
tuyg‘u	feeling	чувство	sezim	сезім	сезим	ҳассосӣ	duýgy
asrab qolmoq	to preserve	сохранять	saqlap qalıw	сақтап қалу	сактап калуу	нигаҳдорӣ	saklap galmak
tanitmoq	to introduce	представлять	tanıtıw	таныту	тааныштыруу	шинос кардан	tanatmak
Milliy nonushtalar							
qovurmoq	to fry	жарить	quwırıw	қуыру	кууруу	бирён кардан	gowurmak
danak	pit	косточка	dánek	дәнек	данек	дона	magyz
qaynatmoq	to boil	кипятить	qaynatıw	қайнату	кайнатып бышыруу	ҷӯшонидан	gaýtarmak
aralashtirmoq	to mix	смешивать	aralastırıw	араластыру	аралаштыруу	омехта кардан	garyşdyrmak
Sho‘rdanak							
esmoq	to blow (wind)	дуть (ветер)	esiw	жел соғу	жел согуу	вазидан	ýel öwüsmek
ombor	warehouse	склад	qoymaxana	қойма	кампа	анбор	ammar
o‘choq	hearth	очаг	oshaq	ошақ	очок	оташдон	ojak

IV CHORAK

O‘zbekcha	Inglizcha	Ruscha	Qoraqalpoqcha	Qozoqcha	Qirg‘izcha	Tojikcha	Turkmancha
Kislorod							
sayr qilmoq	to walk	гулять	seyil etiw	серуендеу	сейилдөө	сайр кардан	gezelenç etmek
o‘ylamoq	to think	думать	oylaw	ойлау	ойлоо	фикр кардан	pikir etmek
nafas	breath	дыхание	nápes	тыныс	дем	нафас	dem alyş
pichirlamoq	to whisper	шептать	sıbırlaw	сыбырлау	шыбыраш	пичир- пичир кардан	pyşyrdamak
“Toza havo” festivali							
yig‘ilmoq	to gather	собираться	jıynalıw	жиналу	чогулуу	ҷамъомад	üýşmek
hayajonlanmoq	to get excited	волноваться	albıraw	толқындану	толкунданuу	ба ҳаяҷон омадан	tolgunmak

xursand bo‘lmoq	to be glad	радоваться	quwanıw	қуану	кубануу	хурсанд шудан	şatlanmak
rozi bo‘lmoq	to agree	соглашаться	razı bolıw	келісу	макул болуу	розй шудан	razy bolmak
“Yashil shahar” loyihasi							
ifloslanish	pollution	загрязнение	pataslanıw	ластану	булгануу	ифлосшавй	hapalanmak
bilim	knowledge	знание	bilim	білім	билим	дониш	bilim
kamroq	less	меньше	azıraq	азырақ	азыраак	камтар	azrak
Bobomning bog‘i							
sayramoq	to sing	щебетать	sayraw	сайрау	сайроо	хониш кардан	saýramak
salqin	cool	прохладный	salqın	салқын	салкын	салқин	salkyn
novda	twig	ветка	shaqa	бұтақ	бутак	шоха/навда	nahal
o‘xshamoq	to look like	быть похожим	uqsaw	ұқсау	окшош болуу	монандй	meňzemek
Ekoqahramon							
yaproq	leaf	лист (в значении лист растения)	japıraq	жапырақ	жалбырак	барг	ýaprak
yulmoq (o‘tlarni)	to pull out	ощипывать траву	julıw(otlardı)	жұлу (шөптерді)	жулуу (үзүү, отоо)	чидан, даравидан (алафҳоро)	ýolmak
Velosiped — tabiatga do‘st							
kamaytirmoq	to reduce	уменьшать	azaytıw	азайту	азайтуу	кам кардан	azaltmak
resurs	resource	ресурс	resurs	ресурс	ресурс	захира	resurs
yo‘lak	path	дорожка	soqpaq	жолақ	жолчо	пайроҳа	geçelge
sog‘liq	health	здоровье	densawlıq	денсаулық	ден соолук	саломатй	saglyk
Xobbining 5 turi							
bo‘sh vaqt	free time	свободное время	bos waqıt	бос уақыт	бош убакыт	вақти холй	boş wagt
yasamoq	to make	создать	jasaw	жасау	жасоо	сохтан	ýasamak
o‘rganmoq	to learn	обучаться	úyreniw	үйрену	үйрөнүү	омӯзиш	öwrenmek
e‘tiborli	attentive	внимательный	itibarlı	зейінді	ыкылас койгон	боэътибор	ünsli
to‘qimoq	to knit	вязать	toqıw	тоқу	токуу	бофтан	dokamak
Bobom va men							
eslamoq	to remember	вспоминать	eslew	еске алу	эстөө	ба ёд овардан	ýatlamak
kuy	melody	мелодия	saz	күй	күү	наво	saz
dog‘	stain	пятно	daq	дақ	так	доғ	tegmil
tirnamoq	to scratch	царапать	tırnaw	тырналу	тырмалануу	харошидан	dyrnamak
ohang	tone	тон	dawıs	әуен	обон	оҳанг	äheň
Oila byudjeti va qadriyatlarimiz							
daromad	income	доход	dáramat	табыс	киреше	даромад	girdeji
ehtiyoj	need	потребность	zárúrlik	қажеттілік	муктаждык	эҳтиёҷ	zerurlyk
jamg‘arma	savings	сбережения	qor	қор	жыйым	захира	gazna
muhokama	discussion	обсуждение	talqılaw	талқылау	талкуу	муҳокима	ara alnyp maslahatlaşmak
Milliy bozor							
madaniy	cultural	культурный	mádeniy	мәдени	маданий	фарҳангй	medeni
sopol	ceramic	керамика	keramika	керамика	керамика	сафол	keramiki gaplar
asramoq	to protect	беречь	abaylaw	қорғау	коргоо	нигоҳ доштан	goramak
savdogar	merchant	торговец	sawdager	саудагер	соодагер	савдогар	söwdagär

sayyoh	tourist	турист	sayaxatshı	саяхатшы	турист	сайёҳ	syýahatçy
hunarmand	artisan	ремесленник	ónerment	қолөнерші	кол өнөрчү	ҳунарманд	hünärment
Pul nima?							
to‘lov vositasi	means of payment	средство платежа	tólew quralı	төлем құралы	төлөм каражаты	воситаи пардохт	töleg serişdesi
almashtirmoq	exchange	обменять	almastırıw	айырбастау	алмашуу	иваз кардан	çalyşmak
noqulay	inconvenient	неудобный	qolaysız	қолайсыз	ыңгайсыз	ноқулай	oňaýsyz
tarqalmoq	to spread	распростра-няться	tarqalıw	таралу	таралуу	паҳн шудан	ýaýramak
Xarid qilish							
tanlamoq	to choose	выбирать	tańlaw	таңдау	тандоо	интихоб кардан	saýlamak
tanishmoq	to get acquainted	знакомиться	tanısıw	танысу	таанышуу	шинос шудан	tanyşmak
mahsulot	product	продукт	ónim	өнім	продукт	маҳсулот	önüm
sarflamoq	to spend	тратить	sarplaw	жұмсау	сарптоо	сарф кардан	sarp etmek
Bir kunlik byudjet							
xarajat	expense	расход	qárejet	шығын	чыгым	хароҷот	çykdajy
tushlik	lunch	обед	túslik	түскі ас	түшкү тамак	хӯроки нисфирӯзӣ	günortan nahary
jamg‘armoq	to save	копить	jıynaw	қор жинау	топтоо	захира кардан	jemlemek
to‘plam	collection	набор	toplam	жинақ	топтом	маҷмӯа	toplum
ko’nikma	skill	навык	kónlikpe	дағды	көндүм	маҳорат	endik
Pul jamg‘arish							
arzon	cheap	дешёвый	arzan	арзан	арзан	арзон	arzan
behuda	in vain	напрасно	biypayda	бекер	бекер	беҳуда	biderek
maxsus quti	special box	специальная коробка	arnawlı qutı	арнайы қорап	атайын кутуча	қуттии махсус	ýörite guty
yig‘moq	to save	собирать	jıynaw	жинау	жыйноо	ҷамъ кардан	toplamak
qaror qilmoq	to decide	принять решение	qarar qabıllaw	шешім қабылдау	чечим кабыл алуу	қарор кардан	karar etmek
afzal	preferable	предпочтитель-ный	artıq	артық	артык	беҳтар	has gowysy
Yorliqni o‘qidingmi?							
xarid qilmoq	to buy	покупать	satıp alıw	сатып алу	сатып алуу	харид кардан	satyn almak
shoshilmoq	to hurry	спешить	asıǵıw	асығу	ашыгуу	шитоб кардан	howlukmak
yaroqlilik muddati	expiry date	срок годности	jaramlılıq múddeti	жарамдылық мерзімі	жарактуулук мөөнөтү	муддати исти-фода	ulanyş möhleti
yorliq	label	этикетка	jarlıq	жапсырма	этикетка	тамға	bellik
xavfli	dangerous	опасный	qáwipli	қауіпті	кооптуу	хатарнок	howply
muddati o‘tmoq	to expire	истекать (срок)	múddeti ótiw	мерзімі өту	мөөнөтү өтүү	муддаташ гузашта	möhleti gutarmak
Sayohatda							
bino	building	здание	bina	ғимарат	имарат	бино	bina
rejalashtirish	planning	планирование	rejelestiriw	жоспарлау	пландаштыруу	банақшақгирӣ	meýilleşdiriş
xotira	memory	память	estelik	ес	эстелик	хотира	ýatlama
saboq	lesson	урок	sabaq	сабақ	сабак	сабақ	sapak
solishtirmoq	to compare	сравнивать	salıstırıw	салыстыру	салыштыруу	муқоиса кардан	deňeşdirmek

MUNDARIJA

I CHORAK

O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi 3
O‘zbekiston – bag‘ri keng yurt 5
Tarixiy shaharlar – O‘zbekistonning yuzi .. 7
Imom al-Buxoriyning bolaligi 9
Osh bo‘lsin! 11
Sport. G‘alaba. Vatan sha’ni 13
Ranglar jilosi – atlas va adras 15
Adabiy o‘qish 17
Oila – insonning birinchi maktabi 19
Bilim – muvaffaqiyat kaliti 21
Yaxshi ustoz – hayotdagi yo‘lboshchi 23
Do‘sting – sening aksing 25
Vaqt – qimmatli boylik 27
Oqilona tanlovlar – kelajak poydevori 29
Adabiy o‘qish 31
Kelajakdagi sen: 20 yildan keyin kim bo‘lasan? 33
Uyg‘onish: sengacha va sendan keyingi dunyo 35
Ilm-fan afsonalarni yo‘q qiladimi? 37
Tarixni o‘zgartirgan qarorlar 39
Unutilgan kashfiyotlar 41
Adabiy o‘qish 43

II CHORAK

Oqil elchi 46
Do‘stlik ko‘prigi 48
Avval o‘yla, keyin so‘yla 50
Osmondagi ochiq yo‘l 52
Temur Ko‘ragoniy sirlari 45
Tanqid emas, taklif 56
Muloqotning 10 ta oltin qoidasi 58
Adabiy o‘qish 60
Har bir odam – kashf etilmagan sir 62
Do‘stlik sinovi 64
Inklyuziv ta’lim 66
Ijtimoiy haqiqat 68
Tabiat bilan do‘stlashish 70
Telefonsiz bir kun 72
Mening sevimli ustozim 74
Adabiy o‘qish 76

скачано с сайта www.idum.uz

III CHORAK

Dunyoni go‘zallik qutqaradi....79
Tabiatda ranglar jilosi....81
Tabobat....83
Shifokor tabiat....85
Arxitekturadagi go‘zallik....87
San’at asarlari....89
Adabiyo‘qish....91
Rassomchilik san’ati....93
Tasviriy san’at....95
Adabiy san’at....97
Sahna san’ati....99
Musiqa va kino san’ati....101
Xattotlik san’ati....103
Adabiyo‘qish....105
Sport va sog‘lik....107
Sport va ahillik....109
Sport va turizm....111
Turizm....113
Adabiyo‘qish....115
Xalq og‘zaki ijodi....117
Bayramlar jozibasi....119
Milliy nonushtalar....121
Sho‘rdanak....123
Adabiyo‘qish....125

IV CHORAK

Kislorod....128
“Toza havo” festivali....130
“Yashil shahar” loyihasi....132
Bobomning bog‘i....134
Ekoqahramon....136
Velosiped – tabiatga do‘st....138
Xobbining 5 turi....140
Bobom va men....142
Adabiyo‘qish....144
Oila byudjeti va qadriyatlarimiz....146
Milliy bozor....148
Pul nima?....150
Xarid qilish....152
Bir kunlik byudjet....154
Pul jamg‘arish....156
Yorliqni o‘qidingmi?....158
Sayohatda…....160
Adabiyo‘qish....162
Lug‘at....164

скачано с сайта www.idum.uz

O‘quv nashri

Dilafruz Xidoyatova, Iroda Bakirova,
Fayoza Rahmatova, Namoz Rasulov

O‘ZBEK TILI

8-sinf

Yangi nashr

Ta’lim rus, qoraqalpoq va qardosh tillarda
olib boriladigan maktablar uchun darslik

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2025

Muharrir	*Hamza Abdullayev*
Musahhih	*Ramazon Luqmonov*
Texnik muharrir	*Abdujalil Karimov*
Badiiy muharrir	*Dilmurod Jalilov*
Rassom	*Umid Sulaymonov*
Sahifalovchi-dizayner	*Kamilla Melnikova*

Nashriyot litsensiyasi AI № 290.04.11.2016-yilda berilgan.
Bosishga 2025-yil iyunda ruxsat etildi. Bichimi 84x108 1/16.
“Arial” garniturasi. Kegli 12 shponli. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i 18,48. Nashriyot-hisob tabog‘i 10,8
Adadi 127 093 nusxa. Buyurtma № ...

“SAXOVAT EGALARI” MCHJ
Ishlab chiqarish: Toshkent shahri, Yunusobod tumani,
Bog‘ishamol ko‘chasi, 254-b.

скачано с сайта www.idum.uz

Darslik holati haqida ma’lumot

№	O‘quvchining ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						

Darslikni olish va o‘quv yili oxirida uni qaytarishda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi mezonlarga muvofiq to‘ldiriladi

Yangi	Darslikning holati a’lo darajada.
Yaxshi	Muqovasi butun, kitobning asosiy qismidan uzilmagan. Barcha sahifalar mavjud, butun, yirtilmagan, yelimi ko‘chmagan.
Qoniqarli	Muqovasi ezilgan, shikastlangan, kitobning asosiy qismidan qisman ajralgan va foydalanuvchi tomonidan tiklangan. Qayta tiklash ishlari qoniqarli. Yirtilgan sahifalar yopishtirilgan, ba’zi sahifalari yirtilgan.
Qoniqarsiz	Muqovasiga chizilgan, kitobning asosiy qismidan to‘liq yoki qisman yirtilib, uzilgan, qoniqarli tiklangan. Sahifalari yirtilgan, ba’zi sahifalari yo‘q, bo‘yalgan, ifloslangan, tiklash mumkin emas.